

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

Qo`lyozma huquqida

UDK:336.22:336.773(575.172)

KALIMBETOV JANNAZAR KURBANBAEVICH

**AHOLI DAROMADLARI TARKIBIGA JISMONIY SHAXSLAR
TO'LAYDIGAN SOLIQLAR STAVKALARINING TA'SIRINI
MODELLASHTIRISH
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini
olish uchun tayyorlangan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: Toshmatov Shuxrat Amonovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Toshkent – 2023

	KIRISH	5
I BOB.	AHOLI DAROMADLARINI OPTIMAL SOLIQQA TORTISH VA SOLIQ STAVKALARI TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	13
1.1.	Aholi daromadlarini optimal soliqqa tortish nazariyasi.....	13
1.2.	Uy xo'jaliklari daromadiga soliq ta'sirini baholashning ilmiy nazariyalari.....	27
1.3.	Progressiv va proporsional soliqqa tortish nazariyalari va modeli.....	37
	I bob bo'yicha xulosa.....	44
II BOB.	JISMONIY SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISHNING TAHLILI VA SOLIQ STAVKASI TA'SIRINI BAHOLASH.....	46
2.1.	Jismoniy shaxslarni progressiv stavkada soliqqa tortishni modellashtirish.....	46
2.2.	Jismoniy shaxslarni proporsional va progressiv stavkalarda soliqqa tortishda xorij tajribasi.....	57
2.3.	Jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkasi ta'sirining samaradorligini baholash.....	69
	II bob bo'yicha xulosa.....	77
III BOB.	JISMONIY SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISHDA SOLIQ STAVKASINI MODELLASHTIRISHDAGI USTUVOR YO'NALISHLARI.....	79
3.1.	Aholi daromadlariga soliq stavkasi ta'siri samarasini oshirish yo'llari.....	79
3.2.	Jismoniy shaxslarni progressiv stavkada soliqqa tortishdagi ustuvor yondashuvlar.....	88
	III bob bo'yicha xulosa.....	100
	XULOSA.....	103
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	110

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahondagi rivojlangan va aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarda jismoniy shaxslarning daromad solig‘i nafaqat byudjet daromadlarini shakllantirishdagi muhim o‘rin tutadi, shu bilan birga, aholi daromadlarini tartibga solishda samarali fiskal instrumentlardan hisoblanadi. Iqtisodiy rivojlanish darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda progressiv daromad solig‘i shkalasi qo‘llaniladi. Jumladan, «Daromadga soliq solishning progressiv modelini joriy etish daromad tengsizligi va ijtimoiy tabaqlanishni kamaytirish hamda byudjetga soliqlarning to‘liq yig‘ilishini ta‘minlash bo‘yicha qator muammolarni hal qilishi mumkin»¹ bo‘lib, bu o‘z navbatida progressiv daromad solig‘i shkalasini takomillashtirishni talab etmoqda.

Jahonda daromadlarni taqsimlashda tengsizlikni tartibga solish instrumenti sifatida jismoniy shaxslarni progressiv shkalada soliqqa tortish, daromad solig‘i stavkasining turmush darajasiga ta‘sirini baholash, progressiv daromad solig‘i shkalasini tanlashni modellashtirish yo‘nalishlarida ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mazkur ilmiy izlanishlarda daromadlar darajasi bo‘yicha aholi guruhi qatlamlarini progressiv shkalada soliqqa tortish va soliq stavkalarining ijtimoiy tenglikni ta‘minlash va iqtisodiy o‘sishga ta‘siri samarasini oshirish, progressiv daromad solig‘i optimal shkalasi tanlovini modellashtirishga doir masalalar to‘liq o‘z yechimini topmaganligi ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

O‘zbekistonda soliq tizimidagi dolzarb vazifalardan biri - bu jismoniy shaxslarni optimal soliqqa tortish tizimini yaratish va aholi daromadlari tengsizligidagi farqlarni kamaytirish hisoblanadi. «...maxsus soliq stavkalarini o‘rnatish tajribasi asosida sharoiti «og‘ir» bo‘lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratish, 2026-yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foiz

¹Baymuxametova A.S. 2018. Modeli podoxodnogo nalogooblojeniya fizicheskix lits: primeneniye v Rossii i Kazaxstane. Perspektivi razvitiya fundamentalnix nauk: materialy XV mejdunarodnoy konferensii studentov, aspirantov i molodix uchenix. Rossiya, Tomsk. <http://conf-prfn.org.pdf>.

darajasiga kamaytirish»². Mazkur belgilangan ustuvor vazifalarning to‘laqonli amalga oshirilishida aholi daromadini soliqlar vositasida tartibga solishda soliqqa tortish tizimini optimallashtirish masalalari dolzarb hisoblanadi. Aholi daromadlari tarkibiga soliq stavkalari ta’siri samarasini baholash, jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortish tartibini takomillashtirish va optimal soliq solish modellari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borish taqozo etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida, 2021-yil 3-dekabrda PF-29-son «Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida», 2020-yil 30-oktyabrda PF-6098-son «Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida», 2020-yil 26-martda PF-5975-son «Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2019-yil 27-iyunda PF-5755-son «Soliq va bojxona imtiyozlari berilishini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2018-yil 29-iyunda PF-5468-son «O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasi to‘g‘risida»gi farmonlari, 2019-yil 10-iyulda PQ-4389-son «Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida», 2018-yil 31-mayda PQ-3756-son «Imtiyozlar va preferensiyalar berish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur sohadagi mavjud bo‘lgan normativ hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu dissertatsiya ishi ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni.<https://lex.uz/docs/5841063>.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jismoniy shaxslar daromadini optimal soliqqa tortish nazariyalari, soliqning daromad darajasi va faravonlikni oshirishga ta’sirini empirik baholash hamda progressiv soliq shkalasini modellashtirish masalalari xorijlik olimlar, A.Smith, F. Ramsey, J.Mirrlees, C.Heady, E. Guillaud, H.Sala, I.Mayburov, A.Sokolovskaya, G.Morozova, S.Migunova, L. Kostileva, R. Smirnov, T. Odinokova, A.Mudrevskiy, R. Tixomirov, V. Sheglov, A.Tixonova, E. Yugay, A. Baymuxametovalarning ilmiy tadqiqotlarida o‘rganilgan³.

Mahalliy iqtisodchi olimlar I.Yuldashev, A.Adizov, O.Abdurahmanov, M.Usmanova, A.Islamkulov, N.Ibragimova, I.Niyazmetov, A.Agzamov, A.Bozorov, Sh.Qiyosov, Sh.Babayev, R.Xusainovlarning olib borgan ilmiy izlanishlarida jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishni takomillashtirish masalalari bevosita va bilvosita tadqiq qilingan⁴.

³Smith A. 1776. An Enquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations, Cannan edition, London: Methuen, 1904.; Ramsey F.P. 1927. «A contribution to the theory of Taxation», E Economic Journal, vol. 37(145), pp.47-61.; 36.;Mirrlees J. A. 1971. "An Exploration in the Theory of Optimum Income Taxation" Review of Economic Studies, Oxford University Press, vol. 38(2), pages 175-208.;Heady C. 1993. Optimal Taxation as a Guide to Tax Policy: A Survey. Fiscal Studies (1993) vol. 14, no. 1, pp. 15-41. <https://ifs.org.uk/fs/articles.pdf>.; Guillaud E. 2017. Four levers of redistribution: The impact of tax and transfer systems on inequality reduction /E. Guillaud, M. Olckers, M. Zemmour // LIS Working Paper Series. Luxembourg : Luxembourg Income Study, – 34 p.;Sala H. 2019. A fresh look at fiscal redistribution and inequality in the US across electoral cycles //Journal of Behavioral and Experimental Economics. Vol. 81. P. 195-206.;Mayburov I.A.,Sokolovskaya A.M.Nekotorye postulaty optimalnogo nalogooblojeniya truda.<https://elibrary.ru>.;Morozova G.V., Migunova S.V. 2011. Vvedeniye progressivnoy shkali nalogooblojeniya doxodov fizicheskix lits kak sposob realizatsii printsipa spravedlivosti v nalogooblojenii // Sovremenniy tendentsii v ekonomike i upravlenii: noviy vzglyad. № 8. S. 198–202.;Kostileva L.V. 2011. Nalogooblojenie kak mexanizm regulirovaniya neravenstva naseleniya // Ekonomicheskie i sotsialnie peremeni: fakti, tendentsii, prognoz. № 3. S. 66–77.; Smirnov R.O. 2016. Modelirovaniye vibora progressivnoy shkali podoxodnogo naloga. <https://www.elibrary.ru>.; Odinokova T. 2015. Progressivnoye nalogooblojenie doxodov kak vozmojnost resheniya problemi sotsialnogo neravenstva grajdan v Rossii// Izvestiya Uralskogo gosudarstvennogo ekonomicheskogo universiteta. № 1.S.15–23.;Mudrevskiy A. Yu. 2017. Modelirovaniye protsessnogo podxoda v organizatsii truda rabochix// Ekonomika i upravleniye: problemi, resheniya. T. 2. №12. S. 57-63.; Tixomirov R. O. 2019. Progressivnoe nalogooblojenie kak instrument regulirovaniya neravenstva v raspredelenii doxodov. Vestsi BDPU.<https://www.elibrary.ru>.; Sheglov V.Yu. 2019. Vliyanie stavki podoxodnogo naloga na uroven jizni. elibrary.pnzgu.ru.;Tixonova A.V. 2021. K voprosu o vibore prioritelnix podxodov v nalogooblojenii naseleniya //Nalogi i nalogooblojeniya.№4.S.19-35.https://nbpublish.com/library_read_article.; Yugay e.V. 2021. Progressivnaya shkala podoxodnogo nalogooblojeniya i ekonomicheskij rost SShA. brary.ru/download/elibrary.pdf.;Baymuxametova A.S. 2021. Progressivnoe podoxodnoye nalogooblojenie fizicheskix lits i raschet shkali progressii na osnove programmnogo produkta.<https://nbpublish.com>.

⁴Yuldashev I. 2002. Jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishda umumdeklaratsiyalash tizimini joriy etish masalalari. Diss. avtoreferati. Toshkent. BMA 22 b.; Adizov A. 2005 Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimini takomillashtirish. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati–T.:DJQA. 21 b.; Abdurahmanov O. 2005. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimi va uni takomillashtirish masalalari. Diss avtoreferati. Toshkent. DJQA, 21b.; Usmanova M. 2011.Jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortishni takomillashtirish». Diss. avtoreferati. Toshkent. BMA. 23 b.; Islamkulov A. 2015. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`ining byudjet daromadlarini shakllantirishdagi o`rni». Bozor, pul va kredit. Ilmiy-amaliy oylik jurnal. 2/2015. B-45-52.;Ibragimova N.M. 2017. Modelirovaniye multiplikatorov doxodov i rasxodov naseleniya na osnove modeli Sam: otsenki dlya Uzbekistana. <https://www.elibrary.ru>.;Niyazmetov I.M. 2018. Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimi barqarorligini ta'minlash. <https://jspi.uz/pdf>.; Agzamov A. T. 2019. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirish. <https://jspi.uz/pdf>.; Bozorov A.A. 2019. Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlar va ularni soliqqa tortishni takomillashtirish.<https://jspi.uz/pdf>.; Qiyosov Sh.U. 2020. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish: mohiyati va xususiyatlari. Iqtisodiyot va ta'lim. № 4.130-136 bet.; Babayev Sh. B. 2020. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha tushumlarni prognoz qilish mexanizmini takomillashtirish.

Mazkur dissertatsiya ishi mavzu doirasida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga qaramasdan, aholi daromadlari tarkibiga soliq stavkalarining ta'sirini empirik baholash, daromadlar tengsizligini kamaytirishda soliq stavkalarini modellashtirish va aynan Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida jismoniy shaxslar daromad solig'ini tahlili kompleks va tizimli tarzda to'liq o'rganilmagan. Mazkur holat dissertatsiya ishida tadqiq etilgan ilmiy-amaliy muammolar va ularning yechimi yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning dolzarblik darajasini belgilab beradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlarning ustuvor yo'nalishlariga mos keladi va Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga bog'liq holda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi aholi daromadlarini soliqlar vositasida tartibga solish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

aholi daromadlarini optimal soliqqa tortish, uy xo'jaliklari daromadiga soliq ta'sirini baholashning ilmiy nazariyalari progressiv va proporsional soliqqa tortish nazariyalari va modelini o'rganish;

jismoniy shaxslarni progressiv stavkada soliqqa tortishni modellashtirish va soliq stavkasining ta'siri samarasini baholash;

jismoniy shaxslarni proporsional va progressiv stavkalarda soliqqa tortish bo'yicha ilg'or xorij tajribasini o'rganish hamda O'zbekistonda qo'llashning muhim jihatlarini ilmiy asoslash;

aholi daromadlariga soliq stavkasi ta'siri samarasini oshirish yo'llari va progressiv stavkada soliqqa tortishdagi ustuvor yondashuvlar tadqiq qilish;

aholi daromadlariga soliq stavkasi ta'siri samarasini oshirish yo'nalishlari bo'yicha taklif hamda tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortish tizimi olingan.

Tadqiqotning predmetini jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, monografik kuzatuv, ekspert baholash, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, empirik tahlil kabi usullardan qoʻllanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

aholi daromadlarini oshirish va jismoniy shaxslarning oʻzini oʻzi band qilishini soliq dastaklari orqali ragʻbatlantirish maqsadida aholining mazkur faoliyatlardan olgan daromadlarini soliq solinadigan daromadlar tarkibiga kiritmaslik taklifi asoslangan;

ijtimoiy yoʻnalishdagi soliq imtiyozlari tizimini joriy qilish va ipoteka kreditlar foiz stavkasini subsidiyalash mexanizmi samaradorligini kredit va foiz toʻlovlariga yoʻnaltirilgan daromadlarga nisbatan soliq chegirmasini tatbiq qilish orqali oshirish taklifi asoslangan;

hududdagi ustuvor ahamiyatga ega faoliyat bilan shugʻullanuvchi tadbirkorlarni qatʻiy belgilangan soliqni toʻlashdan muddatli ozod qilish orqali mamlakat boʻyicha aholi jon boshiga daromadning oʻrtacha koʻrsatkichidagi keskin tafovutni pasaytirish taklif etilgan;

ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanish darajasi past boʻlgan Taxtakupir, Bozatau va Shumanay tumanlarida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar daromadiga pasaytirilgan stavkada soliqqa tortishni tatbiq etish orqali jismoniy shaxslar daromadlari tarkibiga soliq stavkasining samarali taʼsirini oshirish asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

hududlarda aholining oʻzini oʻzi band qilish tartibida mehnat faoliyatini davlat tomonidan moliyaviy dastaklar vositada ragʻbatlantirishda mazkur faoliyat boʻyicha olingan daromadlarini soliqdan ozod qilinishi taklif etilgan;

jismoniy shaxslar daromadini progressiv soliqqa tortish tizimini joriy qilinishi va aholi umumiy daromadlarni taqsimlanishi boʻyicha aholi guruhlari maʼlumot asosida progressiv daromad soligʻi shkalasi chegaralarini va soliq solinmaydigan daromad miqdorini oʻrnatilishi asoslangan;

jismoniy shaxslarni tadbirkorlik faoliyatida foydalanayotgan ko'chmas mulk ob'yektlariga soliq stavkasini pasaytirish va o'rnatilgan muddatda qurib bitkazilmagan noturar joy ob'yektlariga nisbatan yuridik shaxslar mol-mulk solig'i amaldagi stavkasini ikki barobari miqdorida soliq solinishi taklif kilingan;

aholi daromadini optimal soliqqa tortish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish maqsadida, bosqichma-bosqich jismoniy shaxslar daromadlarining umumiy soliq deklaratsiyasiga o'tish taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya tadqiqotida olingan ilmiy natijalarning ishonchliligi ishda qo'llanilgan yondashuv va metodlarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, shakllantirilgan ilmiy xulosalar asosida ishlab chiqilgan taklif hamda tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortish tizimini optimallashtirish va daromadlar tengsizligini kamaytirish va iqtisodiy o'sishga soliq stavkalari ta'sirini baholash yo'nalishlaridagi ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati berilgan taklif va tavsiyalardan jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimini takomillashtirish, optimal soliq stavkalarini o'rnatish hamda soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirish sohasidagi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda muhim manba sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Aholi daromadlari tarkibiga jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar stavkalarining ta'sirini modellashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

aholi daromadlarini oshirish va jismoniy shaxslarning o'zini o'zi band qilishini soliq dastaklari orqali rag'batlantirish maqsadida aholining mazkur faoliyatlardan olgan daromadlarini soliq solinadigan daromadlar tarkibiga kiritmaslik taklifi O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi 369-modda birinchi qismining 7-bandida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq

qo`mitasining 2022-yil 18-noyabrdagi 15-151050-son va Qoraqalpog`iston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 14-sentyabrdagi SI/11-09/3109-son ma`lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Qoraqalpog`iston Respublikasida aholi bandligi qo`shimcha ravishda ta`minlash va ixtiyoridagi daromad miqdorini oshirish imkonini bergan;

ijtimoiy yo`nalishdagi soliq imtiyozlari tizimini joriy qilish va ipoteka kreditlar foiz stavkasini subsidiyalash mexanizmi samaradorligini kredit va foiz to`lovlariga yo`naltirilgan daromadlarga nisbatan soliq chegirmasini tatbiq qilish orqali oshirish taklifi O`zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi 378-modda 16-bandining to`rtinchi xatboshida o`z aksini topgan (O`zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo`mitasining 2022-yil 18-noyabrdagi 15-151050-son va Qoraqalpog`iston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 14-sentyabrdagi SI/11-09/3109-son ma`lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Qoraqalpog`iston Respublikasida aholi daromadlari tarkibiga jismoniy shaxslar to`laydigan soliqlar stavkalarining ta`sirini modellashtirish orqali fiskal siyosat instrumentlari ijobiy ta`sirini oshirish imkoni yaratilgan;

hududdagi ustuvor ahamiyatga ega faoliyat bilan shug`ullanuvchi tadbirkorlarni qat`iy belgilangan soliqni to`lashdan muddatli ozod qilish orqali mamlakat bo`yicha aholi jon boshiga daromadning o`rtacha ko`rsatkichidagi keskin tafovutni pasaytirish taklifi O`zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi 483-modda oltinchi qism ikkinchi xatboshida aks etgan (O`zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo`mitasining 2022-yil 18-noyabrdagi 15-151050-son va Qoraqalpog`iston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 14-sentyabrdagi SI/11-09/3109-son ma`lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Qoraqalpog`iston Respublikasida aholi jon boshiga o`rtacha daromad taxminan 0,3 foizga o`shirishga olib kelgan;

ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanish darajasi past bo`lgan Taxtakpir, Bozatau va Shumanay tumanlarida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar daromadiga pasaytirilgan stavkada soliqqa tortishni tatbiq etish orqali jismoniy shaxslar daromadlari tarkibiga soliq stavkasining samarali ta`sirini oshirish taklifi O`zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi 483-modda oltinchi qism

uchinchi xatboshida o`z aksini topgan (O`zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo`mitasining 2022-yil 18-noyabrdagi 15-151050-son ma`lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ushbu hududlardagi jismoniy shaxslar ixtiyorida qoladigan daromad 1,2 mlrd. so`mni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur dissertatsiya ishi natijalari 4 ta respublika va 6 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o`tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e`lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo`yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, O`zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, shundan 1 tasi xorijiy ilmiy jurnallarida nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 118 betni tashkil etadi.

I BOB. AHOLI DAROMADLARINI OPTIMAL SOLIQQA TORTISH VA SOLIQ STAVKALARI TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Aholi daromadlarini optimal soliqqa tortish nazariyasi

Soliq asosiy daromad manbai bo'lib, u davlatning suveren hokimiyati asosida undiriladi. Shu nuqtai nazardan, soliqqa tortish davlatlar iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy maqsadlarga erishish uchun foydalanadigan asosiy siyosiy vositalardan biridir. Soliqqa tortish fiskal siyosat vositasi sifatida davlatlarga makroiqtisodiy nuqtai nazardan o'z maqsadlariga erishishda samarali amaliyotlarni amalga oshirish imkonini beradi. Yuqorida qayd etilgan makroiqtisodiy maqsadlarga erishishda soliq siyosatining roli shuni ko'rsatadiki, soliqqa tortish davlat qo'lida iqtisodiy siyosatning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy davlat yondashuviga muvofiq soliqqa tortish transfer mexanizmi sifatida maydonga chiqadi. Har bir shaxs uchun tenglik adolatni ta'minlash davlatlarning o'z fuqarolari oldidagi burchlarining boshida bo'lishi qabul qilinadi.

Mamlakatdagi barcha daromad guruhlariga mansub fuqarolar tenglik va adolat tamoyili doirasida davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun, boshqa tomondan, davlat faqat yuqori daromad guruhidan yig'iladigan resursni o'tkazishi mumkin. Davlat xizmatlari sifatida past daromadli guruhlariga soliq solish. Shu doirada soliqqa tortish daromad guruhleri o'rtasidagi transfer mexanizmining eng muhim elementi hisoblanadi.

Samaradorlik va tenglik maqsadiga erishishda davlatning eng muhim siyosat quroli bo'lgan soliqlarni qanday loyihalash to'g'risida optimal soliqqa oid adabiyotlarda har tomonlama muhokama qilingan. Optimal soliqqa tortish - bu jamiyatning tenglik va iqtisodiy samaradorlik kabi raqobatbardosh maqsadlari o'rtasidagi imtiyozlarni aks ettiruvchi va ijtimoiy boylikni maksimal darajaga ko'tarish boshlang'ich nuqtasi bo'lgan soliqqa tortish.

Davlat shaxsning ijtimoiy va iqtisodiy xususiyatlari to'g'risida assimetrik ma'lumotlarga ega bo'lgan bugungi sharoitda daromadlarni qayta taqsimlash maqsadini buzuvchi soliqlardan foydalanish orqali amalga oshirish mumkin.

Davlat faqat iqtisodiy samaradorlikka yo‘l qo‘yib, buzib ko‘rsatuvchi soliqlardan foydalangan holda daromad adolatini ta‘minlashi mumkin. Shu sababli, optimal soliqqa tortishda asosiy e‘tibor soliq subyekti, soliq stavkasi va soliq bazasiga qaratiladi, bu esa soliq tushumlarining ma‘lum miqdorini ta‘minlashda siqilishni minimallashtiradi⁵.


AQSh va Yevropa mamlakatlarida yuqori va past daromadlarga soliq stavkalarini qo‘llanishi keng doirada va uzoq vaqt davomida muhokama qilingan bo‘lsada, biroq, daromadni taqsimlashda qanday soliq stavkasi muhim instrument bo‘lishiga qaramasdan iqtisodiy nazariya deyarli mavjud emas⁶. Umuman olganda, qayta taqsimlovchi progressiv soliqqa tortish odatda jismoniy shaxsning daromadi (aniqrog‘i, uning taxminiy daromadi miqdoriga) bilan bog‘liq. Uning aniq intellekt koeffitsienti (I.Q.), ilmiy darajasi, yashash joyi, yoshi yoki ijtimoiy mavqei orqali jismoniy shaxsning daromad olish potentsiali to‘g‘risidagi axborotga ega bo‘lish mumkin, ammo tabiiy ravishda taxmin qilish mumkin, uning daromad potentsiali eng ishonchli ko‘rsatkich bo‘lib uning daromadi hisoblanadi. Mirrleesning ta‘kidlashicha, insonlarning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini iqtisodiy imkoniyatlarining dalili sifatida ishlatish natijasida daromadning ijtimoiy marjinal foydaligining to‘liq tengligi ma‘qul bo‘lmay qoladi, chunki bunday natijaga olib keladigan soliq tizimi barcha yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan noqulaylikni bartaraf etadi⁷. Shuning uchun quyidagi savollar yuzaga keladi: optimal daromad solig‘ini qaysi prinsiplar tartibga solishi kerak?; bunday soliq stavkasi qanday belgilanadi va soliq stavkasi o‘rnatilgandan keyin daromad tengsizlikning darajasi qanday o‘zgaradi?

Zamonaviy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida bu yondashuvlar juda keng qo‘llanilgan, ammo bu yondashuvlarni gibrid (birlashtirilgan) sifatida ko‘rib chiqilgan tadqiqotlar ham mavjud. Bu bizga eng maqbul yondashuvdir, chunki u aholi daromadlari kategoriyasining mohiyatini o‘rganishga kompleks yondashish imkonini beradi.

⁵ <https://www.intechopen.com/chapters/59478>

⁶Mirrlees J. A. 1971. "An Exploration in the Theory of Optimum Income Taxation", Review of Economic Studies, Oxford University Press, vol. 38(2), pp. 175.

⁷Mirrlees J. A. 1971. "An Exploration in the Theory of Optimum Income Taxation", Review of Economic Studies, Oxford University Press, vol. 38(2), pp. 175.



1.1-rasm Aholi daromadlari kategoriyasini aniqlashga yondashuvlar⁸

Binobarin, iqtisodiyot fanida mahalliy iqtisodchi olimlar aholi daromadlari kategoriyasini aniqlashning ikkita yondashuvga asoslanadi va aholi daromadlari kategoriyasi mohiyatini aniqlashda har tomonlama tahlil qilish imkonini beruvchi makro va mikro yondashuvlarni birlashtirgan.

Aholining daromadlari toifasini aniqlash bo'yicha qarashlarni makro va mikro yondashuvlarga bo'lish bilan bir vaqtda umumiy nazariy yondashuvni (iqtisodiy nazariya doirasida ishlab chiqilgan) va amaliy yondashuvni (amaliy iqtisodiy va sotsiologiya fanlari tizimida qo'llaniladi) ajratib ko'rsatish mumkin⁹ (1.1-rasm).

⁸Takmakova, e.V. Dohodi selskogo naseleniya v usloviyax stanovleniya rinochnoy ekonomiki: diss.... kand. ekon. nauk: 08.00.01 / Takmakova elena Valeryevna. – Orel, 2003. C.191.

⁹ Такмакова, Елена Валерьевна Регулирование доходов населения на основе формирования системы социальной стандартизации: в предметной сфере "доходы населения" : диссертация ... доктора экономических наук : 08.00.05 Орел 2021. <http://dlib.rsl.ru>

Aholi daromadlari mohiyatini aniqlashga xorijiy iqtisodchilarning yondashuvlari¹⁰

Mualliflar	Aholi daromadlarini aniqlashning mohiyati
McConnell, Bru S.L.	Uy xo'jaligini daromadini, uy xo'jaligini iqtisodiyotni resurslar bilan ta'minlaydigan va ular uchun olingan pulni insonning moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun ishlatadigan iqtisodiy birlik sifatida ko'rib chiqish.
Samuelson Nordhaus	Daromad-jismoniy shaxs yoki mamlakat tomonidan muayyan vaqt mobaynida olingan ish haqi, foiz to'lovlari, dividendlar va boshqa daromadlar oqimi.
Hayes, Simon	Shaxsiy daromad iste'molda amalga oshirilgan huquqlarning bozor qiymatining algebraik yig'indisi va ko'rib chiqilayotgan davrning boshi va oxirigacha to'plangan mulkiy huquqlar qiymatining o'zgarishi sifatida belgilanishi mumkin.
Hicks	1. Individning daromadi uning tushumlariga (mehnat daromadlari yoki mol-mulk uchun renta to'lovlari) teng deb hisoblanishi mumkin. 2. Daromad-hafta davomida iste'molga sarflanishi mumkin bo'lgan maksimal miqdor va haftaning oxirida boshida bo'lgani kabi bir xil farovonlikni saqlab qolish. 3. Daromad-mavjud taxminlarga muvofiq kelajakdagi tushumlarning kapital qiymati bir xil bo'lib qolishi sharti bilan, bir vaqt davomida sarflanishi mumkin bo'lgan mablag'larning maksimal miqdori.
Fisher	Daromad tushunchasi yakuniy iste'molni anglatadi.

Aholi daromadlarining amaldagi ta'riflarida ularning shakllanishi shart-sharoiti va omillarini aniqroq ko'rsatish hamda bu shart-sharoit va omillarni tizimlashtirish imkonini beradigan jihatlarni o'zichiga olishi zarurligini alohida ta'kidlash lozim.

Shu bilan birga, umumiy nazariy yondashuvning ahamiyati shundan iboratki, bunda aholining nominal va real daromadlaridagi farqlarni hamda ularning dinamikasini nazariy tahlil qilish imkonini beradi. Aholi daromadlari kategoriyasini aniqlash bo'yicha yuqoridagi yondashuvlar iqtisodchi olimlar McConnell, Bru S.L., Samuelson, Nordhaus, Haye, Simon, Hicks va Fisherlarning¹¹ tadqiqotlarida o'z aksini topgan (1.1-jadval). Biroq, ayrim iqtisodchi olimlar, jumladan, Atkinson, Stiglitz va Ehrenberg, Smithlar¹² aholi daromadlarini nazariy jihatdan odatda to'lov qobiliyati tahlil qilinadi, empirik

¹⁰O'rganishlar asosida dissertant tomonidan tuzilgan.

¹¹McConnell K.R. Economics: principles, problems and politics: in 2 volumes; per. from English. / K.R. McConnell, S.L. Bru. - M.: Respublika, 1993. - 1 vol. - 399 p.; Samuelson P.A. Economics / P. Samuelson, V.D. Nordhaus. - 9th ed., Rev. and additional-St. Petersburg: Alfa-Kniga, 2018.- 1325 p.; Fisher I. Purchasing power of money: its definition and relation to credit, interest and crisis / I. Fisher.- M.: Financial publishing house of the NKF of the USSR, 1925.- 399 p.; Hicks J. R. Cost and capital: per. from eng. / J. R. Hicks.- M.: Progress-Univers, 1993.- 487 p.;

¹²Atkinson E.B. Lectures on the economic theory of the public sector / E.B. Atkinson, J. E. Stiglitz. - M.: Aspect Press, 1995. - 831 p.; Ehrenberg R. J. Modern labor economics: theory and state policy: per. from English. / R. J. Ehrenberg, R.S. Smith. - M.: Publishing House of Moscow. un-ta, 1996. - 777 p.;

tadqiqotlarda esa qoida tariqasida, o'lgangan pul daromadlari miqdori hisobga olingan. Aksariyat, iqtisodchi olimlar tomonidan aholi daromadlari konsepsiyasiga asoslangan bo'lib, unga ko'ra, daromad nafaqat pul tushumlarini, balki pul bo'lmagan tarkibiy qismini, ya'ni o'z tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlari, oila tomonidan to'plangan mulkning (uy-joy, uzoq muddatli iste'molga mo'ljallangan predmetlar, garaj va boshqa mol-mulka) joriy iste'molini ham o'z ichiga oladi¹³. Umuman olganda, aholi daromadlari aholi turmush darajasining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi, shu bilan birga, uning xususiyatlariga har tomonlama yondashish lozim, ya'ni, ayni paytda iste'mol jarayonlari o'rganilishi lozim. Aholi daromadlarini shakllanish bosqichida uy xo'jaliklari daromadlari mehnatga haq to'lash, uy xo'jaliklarining o'z ishlab chiqarish faoliyatidan olingan aralash daromadlari, mulkdan olingan daromadlar shaklida namoyon bo'ladi.

Fikrimizcha, aholi daromadlarini tartibga solish mexanizmi iqtisodiy tartibga solish umumiy mexanizmning bir qismidir degan xulosaga kelishimiz mumkin. Aholining daromadlarini tartibga solish mexanizmining obyektini daromadlarni birlamchi taqsimlash, fiskal va transfert tizimi orqali qayta taqsimlash, aholiga xizmat ko'rsatish orqali yakuniy taqsimlash bo'yicha mexanizm subyektlari o'rtasidagi obyektiv mavjud munosabatlar va o'zaro munosabatlardir¹⁴.

Aholi daromadlari tarkibiga soliqlar stavkasi ta'sirini modellashtirish muammosi yechimida quyidagi soddalashtiruvchi taxminlarni keltirish mumkin¹⁵:

1. Vaqtinchalik xarakterdagi muammolarni e'tiborga olinmasligi. Daromad solig'i odatda har yili daromaddan undiriladi, soliqqa tortish uchun daromadni bir yildan ikkinchisiga o'tkazish imkoniyati cheklangan. Optimal tizimda, shubhasiz, soliq to'lovlarini daromad va boshlang'ich boylikning butun hayotiy strukturasi bilan bog'lash va to'lovlarni rejalashtirishda nomukammal xususiy kapital

¹³Butova L.M. Dohodi naseleniya v sisteme blagosostoyaniya i mexanizmi ix regulirovaniya: avtoref. diss. kand. ekon. nauk: 08.00.01. Voronej, 2006.– 14s.; Il'in A.e. Formirovaniye i regulirovaniye doxodov rabotnikov selskogo xozyaystva: avtoref. dis. d-ra ekon. nauk: 08.00.05/Kursk, 2005.–10 s.; Fedchenko A.A. Regulirovaniye doxodov rabotnikov v usloviyax stanovleniya rinka truda: diss. d-ra ekon. nauk: 08.00.05 / Voronej, 2002. – 57s.

¹⁴ Такмакова, Елена Валерьевна Регулирование доходов населения на основе формирования системы социальной стандартизации: в предметной сфере "доходы населения" : диссертация ... доктора экономических наук : 08.00.05 Орел 2021. <http://dlib.rsl.ru>

¹⁵Mirrlees J. A. 1971. "An Exploration in the Theory of Optimum Income Taxation," Review of Economic Studies, Oxford University Press, vol. 38(2), pages 175-176.

bozorlariga va nomukammal oldindan ko'rishga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. Moyillikdagi farqlar, oila a'zolari miqdori va tarkibi, shuningdek, ixtiyoriy transfertlardagi farqlar e'tiborga olinmaydi. Chunki bu ko'rsatkichlar turli xil muammolarni keltirib chiqaradi va ularni inobatga olmaslik tabiiydir.

3. Shaxslar o'zlari ishlab chiqaradigan mehnat hajmi va turini foydali funksiyani tegishli maksimalashtirishni ratsional hisoblash yo'li bilan aniqlaydilar va ijtimoiy farovonlik individual foydalilik darajalarining funksiyasi sifatida taxmin qilinadi. Bundan tashqari, inson tomonidan taklif qilinadigan mehnat miqdori unga to'lanadigan narxni o'zgartirmasdan juda katta farq qilishi mumkin deb taxmin qilinadi. Birinchi taxminda ayniqsa, daromadning yuqori darajasida ba'zida iste'molning to'yinganligi va ish ishchiga olib keladigan daromad bilan bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra amalga oshirilishi haqiqatga mos kelmaydi.

4. Migratsiya mumkin emas deb taxmin qilinadi. Migratsiya tahdidi, real soliq tizimlarida rivojlanish tezligiga katta ta'sir ko'rsatganligi sababli bu taxmin asosli hisoblanadi.

5. Davlat iqtisodiyotda band bo'lgan shaxslar haqida ularning foydaliligi va o'z navbatida faoliyati bo'yicha to'liq ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Amalda, albatta, o'z-o'zini ish bilan ta'minlashdan, xususan, ishchi va uning oilasi tomonidan o'zi uchun bajarilgan ishlardan olinadigan daromadga nisbatan ba'zi mamlakatlarda noaniqlik darajasi juda yuqori.

6. Matematik formula soddalashtirilgan: bir xildagi mehnat va tovarlar mavjudligi; farovonlik jamiyatdagi shaxslar tomonidan farqlanishi va ekvivalent bo'lib, u individual foydalilik funksiyasi (hamma uchun bir xil) to'g'ri tanlangan bo'lsa, u shaxslarning foydali xizmatlari yig'indisi sifatida ifodalanishi mumkin.

7. Optimal soliqqa tortish shkalasini boshqarish xarajatlari ahamiyatsiz deb taxmin qilingan.

Mirrlees fikricha, daromad solig'i aholi daromadlari tengsizligini kamaytirishdagi eng samarali instrument hisoblanmaydi, shuning uchun duch keladigan qiyinchiliklarni oldini olish uchun daromad solig'ini to'ldiruvchi soliqlarni ishlab chiqish yaxshi maqsadga muvofiq. O'rganilgan modelda bunga

ishlagan vaqtga (y) shuningdek, mehnat daromadidan (z) bogʻliq boʻlgan soliq shkalasini kiritish orqali erishish mumkin¹⁶. Umuman olganda iqtisodchi olimlar tomonidan optimal soliqqa tortish asosan Ramsey va Mirrleeslarning fundamental ilmiy ishlarga asoslangan. Optimal soliqqa tortishning standart nazariyasida mavjud cheklovlar eʼtiborga olingan holda soliq solish ijtimoiy faravonlik funksiyasini yuqori oʻsishiga olib kelishi lozim. Optimal soliqqa tortish boʻyicha nazariy adabiyotlarning umumiy tahlilida individual foydalilikning nochiziqli funksiyasi hisoblangan ijtimoiy taʼminot funksiyasidan foydalanilgan va bu ijtimoiy rejalashtiruvchiga foydalilikni teng taqsimlash imkoniyatini beradi. Biroq ayrim tadqiqotlarda individual foydalilik chiziqli funksiyasi ijtimoiy taʼminot funksiyasi sifatida faraz qilingan holda ijtimoiy rejalashtiruvchi faqat oʻrtacha foydalilik haqida qaygʻuradi, deb taxmin qilinadi¹⁷. Ramsey tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar optimal soliqqa tortish boʻyicha ilmiy adabiyotlarning asosi sifatida qaraladi. Ramsey samarali soliqqa tortish faqat bir soliqni emas, toʻliq soliqlar toʻplamini joriy etishni talab qilishini koʻrsatib bergan. Shu bilan birga, bu foizli daromadlarni soliqqa tortishda ham muhim ahamiyatga ega. Ramsey isteʼmol va jamgʻarmani ikkita turli tovarlar sifatida koʻrib chiqadi va kapitalga ish haqidan daromadga nisbatan ancha past stavkada soliq solinishi lozimligini taʼkidlagan¹⁸. "Foydalilik" tushunchasi optimal soliqqa tortish boʻyicha maxsus adabiyotlarda "daromad" tushunchasidan ham koʻproq qoʻllanilib, bunday fenomenga quyidagi tushuntirishlar berilgan¹⁹: birinchidan, individlar bevosita soliqlar koʻpayishiga javoban oʻz daromadlarining kamayishini qoplash uchun yuqori mehnat samaradorligi bilan javob berishi ancha keng tarqalgan. Ular uchun mehnat qilishning ortib borishi soliqdan keyingi daromadning pasayishi kutilayotgan summaga soliqning toʻliq qiymati oshishiga qadar qoʻshilishi zarur boʻlgan qiymatdan iborat. Ikkinchidan, soliqdan keyingi daromad miqdorining tengsizlik darajasi tahlili xatoliklarga olib kelishi mumkin, chunki bu tengsizlikka

¹⁶Mirrlees J. A. 1971. "An Exploration in the Theory of Optimum Income Taxation," *Review of Economic Studies*, Oxford University Press, vol. 38(2), p.208.

¹⁷Mankiw N. Gregory & Matthew Weinzierl & Danny Yagan (2009). "Optimal Taxation in Theory and Practice", *Journal of Economic Perspectives*, American Economic Association, vol. 23(4), pages 148.

¹⁸Ramsey, F.P. (1927). «A contribution to the theory of Taxation», *E Economic Journal*, vol. 37(145), pp.47-61.

¹⁹Heady C. (1993). *Optimal Taxation as a Guide to Tax Policy: A Survey Fiscal Studies* vol. 14, no.1, pp.18-19.

qanday omillar sabab bo`lganligi aniq emas. Uchinchidan, iste'mol tovarlariga bilvosita soliqlar solinishi narxlar va iste'molchilarning iste'mol strukturasi o`zgarishiga sabab bo`ladi. Buning natijasida, nominal daromadni real daromadga o`tkazishda iste'mol narxlar indeksidagi muhim ko`rsatkichlar o`zgarishiga olib keladi. Yuqoridagi mulohazalarga asoslanib, foydalilik funksiyasini quyidagi ko`rinishda tasvirlanadi:

$$U = f(x_1, \dots, x_n, L) \quad (1.1)$$

Bundan, U –foydalilik; x_i –tovar iste'moli, shu jumladan, joriy jamg`armaga bog`liq kelgusidagi iste'mol; L –taklif qilingan mehnat miqdori.

Faqat soliqlar ushlangandan keyingi real daromad (Y) bilan ifodalangan iste'molning umumiy hajmi muhim ahamiyatga ega bo`lib, foydalilik funksiyasi quyidagi ko`rinishga ega bo`ladi:

$$U = f(Y, L) \quad (1.2)$$

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda jamiyat rivojlanishining dastlabki davrlarida soliqlar asosan fiskal funksiyasi ta'kidlanib o`tilgan bo`lsada, zamonaviy sharoitlarda soliqlarning funksiyalarini xilma-xildir va iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli muhim ahamiyat kasb etib bormoqda²⁰. Iqtisodchi olimlarning fikriga ko`ra, soliqlarni o`rganishdagi ikkita asosiy jihatlar sifatida qo`yiladigan maqsad va erishiladigan samara muhim hisoblanib, maqsad davlat funksiyalarini amalga oshirishdagi zaruriy pul mablag`larini to`plashdan iborat bo`lib, bunda samara erishilgan natija bilan baholanib, bu soliqning iqtisodiy kategoriyaligini xarakterlaydi. Samara iqtisodiy kategoriya sifatida tor ma'noda ham, keng ma'noda ham soliq solishning ta'siri natijasining muqarrar oqibati hisoblanadi²¹. Soliq nazariyasi rivojlanishining hozirgi bosqichida soliqqa tortish samarasiga alohida e'tibor qaratish lozim, chunki ularning oqibatlari jamiyat uchun ancha ehtimoliy va avvaldan aniq prognoz qilib bo`lmaydigan oqibatlarga olib kelishi mumkin.

²⁰ Савина О.Н. Налоговое регулирование доходов населения: современная практика и перспективы развития. Москва, 2016.Издательство: Издательство «Русайнс». 74-81 стр.<https://elibrary.ru/item.asp?id=27228014>

²¹Мамонova I. V., Alenikov A. S. Vliyaniye podoxodnogo proporsionalnogo nalogooblojeniya na predlojenie truda. <https://cyberleninka>.

Barchaga ma'lumki, soliq qonunchiligida barcha faoliyatdan olingan daromadlar ham soliqqa tortilmaydi (pensiya, nafaqa), shu bilan birga, faoliyat va turiga qarab daromadlarga soliq solinishida farqlanish (turli stavka) mavjud. Soliq tizimida daromadni bunday soliqqa tortish tartibini mavjudligi, jismoniy shaxslarning iqtisodiy faoliyatini soliqqa tortiladigan sohalardan soliqqa tortilmaydigan sohaga o'tkazishiga olib kelishi mumkin.

Jismoniy shaxs daromadidan undiriladigan jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq (daromad solig'i), uni iqtisodiy model yordamida taqdim etish tavsiya etilgan. Jismoniy shaxs daromad solig'i stavkasi t_w jismoniy shaxs tomonidan olingan daromadni o'zgartiradi (ishlagan ish kunlari soniga qarab farqlanishi bilan). Agar uni xodimga to'lanadigan soliqlar ushlanguncha bo'lgan ish haqi sifatida olinadigan bo'lsa, u holda daromad solig'i quyidagicha ifodalash mumkin²²:

$$D = (wT + O) - t_w(wT + O) \quad (1.3)$$

Bu yerda, D - soliq to'lovchining soliqdan keyingi daromad; w - ish haqi; T - soliq to'lovchining ishlagan kunlari soni; O - olingan daromad ish haqi shaklida emas; t_w - muayyan shaxs uchun daromad solig'i stavkasi²³. Shubhasiz, (1.1) formuladagi modelda soliq solinadigan bazaning o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan proporsional stavka bo'yicha undiriladigan daromad solig'i miqdori keltirilgan. Barchaga ma'lumki, aksariyat, rivojlangan mamlakatlarda jismoniy shaxslarning daromad solig'i stavkasi progressiv hisoblanadi.

Keltirib o'tilgan modelda aholi daromadlarini soliqqa tortish tizimidagi mavjud soliq chegirmalari nazarda tutilmaganligi sababli, soliq samarasi aniq ifodalanmagan. Buni hisobga olgan holda soliq to'lovchining daromad modeli quyidagicha ko'rinishda ifodalash mumkin²⁴:

²²Мамонова И.В., Алеников А.С. Влияние подоходного пропорционального налогообложения на предложение труда. Финансы и кредит. 2011. № 14 (446). С. 61-65.

²³ Мамонова И.В., Алеников А.С. Влияние подоходного пропорционального налогообложения на предложение труда. Дайджест-финансы. 2011. № 5 (197). С. 15-19.

²⁴Мамонova I. V., Alenikov A. S. Vliyaniye podoxodnogo proporsionalnogo nalogooblojeniya na predlojeniyе truda. <https://cyberleninka>.

$$\begin{aligned}
 D &= (wT + O) - t_i \left(wT + O - \sum G \right) \\
 &= (wT + O) - t_i \left(wT + O - \sum G \right) \sum G * t_i \quad (1.4)
 \end{aligned}$$

bu yerda, G -solliq chegirmasi.


Solliq summalarini hisoblashda “nominal stavka” va “haqiqiy stavka” kabi tushunchalarning mavjudligini istisno qilib bo`lmaydi, ya’ni “nominal stavka” umumbelgilangan solliq stavkasini anglatadi, real solliq stavkasi- mavjud solliq chegirmalari asosida korrekcirovka qilingan va daromad hajmiga bog`liq tabaqalashgan solliq stavkalaridir. Fikrimizcha, solliq stavkalari bo‘yicha bunday tushunchalarning mavjudligi ortib borayotgan kapitalni asosiy stavkadan farq qiladigan darajada solliqqa tortish, turli shakldagi daromadlarni solliq tortishdagi solliq stavkasidagi farqlar, solliq to`lovlarini kechiktirish va bo‘lib to`lash imkoniyati, solliq to`lovchi o`zi bilan bog`liq turli individual xususiyatlar kabilar bilan izohlanadi²⁵.

Yuqoridagi sabablarning mavjudligi o`rganilayotgan muammoning murakkabligini belgilaydi va solliqlarning solliq yukini ko`taruvchi shaxslarga ham, solliq to`lovlarini amalga oshiruvchi shaxslarga ham (solliq agentlariga) real ta`siri muammosi to`liq o`rganilgan holda solliq yukini taqsimlash bo‘yicha xulosalar chiqarishga yanada oqilona yondashish zarurligini anglatadi.

Umuman olganda, solliq yukining og`irligi va jismoniy shaxsning iqtisodiy hulq-atvorilaridagi o`zgarishlarning o`zaro bog`liqligini tahlil qilishda quyidagi asosiy ilmiy nazariyalarni asos qilib olinadi²⁶:

²⁵ Мамонова И.В., Алеников А.С. Влияние подоходного пропорционального налогообложения на предложение труда. Дайджест-финансы. 2011. № 5 (197). С. 15-19.

²⁶Мамонova I. V., Alenikov A. S. Vliyaniye podoxodnogo proporsionalnogo nalogooblojeniya na predlojeniyе truda. <https://cyberleninka>.



1.2-rasm Soliq yukining og'irligi va jismoniy shaxsning iqtisodiy hulq-atvorilaridagi o'zgarishlarni o'rganish bo'yicha nazariyalar mazmuni²⁷

Individning byudjet cheklovlari quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$M = wT + O \quad (1.5)$$

bu yerda, M - sof daromad.


Daromad solig'i (proporsional soliq sifatida) byudjet cheklovini quyidagi shaklga o'zgartiradi:

$$M = (wT + O)(1 - t_i) = \varpi T + Q \quad (1.6)$$


bu yerda, ϖ -soliq to'langandan keyingi ish haqi; Q - soliq to'langandan keyingi boshqa manbalardan olingan daromad.

Jismoniy shaxslarning daromad solig'i ta'sirini 2 bosqichga ajratish mumkin bo'lib, dastlab soliq boshqa manbalardan olingan daromadga ta'sir o'tkazadi va byudjet cheklovlari egri chizig'ida pastga siljishi yuz beradi va o'z navbatida mehnat taklifining o'sishiga olib keladi. Shu bilan birga, ish haqiga almashtirish samarasi va daromad samarasi ta'sirlarini ham hisobga olish kerak (1.2,1.3-rasmlar).

²⁷Takmakova, e.V. Doxodi selskogo naseleniya v usloviyax stanovleniya rinochnoy ekonomiki: diss.... kand. ekon. nauk: 08.00.01 / Takmakova elena Valeryevna. – Orel, 2003. C.191.



1.2-rasm. Agar soatlar oshganda proporsional soliqning ishlagan soatlari soniga ta'siri²⁸



1.3-rasm. Agar soatlar oshganda proporsional soliqning ishlagan soatlari soniga ta'siri²⁹

P nuqtadan soliq to'langandan keyingi P' nuqtaga siljishi 2 bosqichni: doimiy ish haqi darajasida naflilikni kamaytirishning ta'siri (soliqlar to'langandan keyingi P nuqtani P'' ga siljishini ifodalovchi); naflilik darajasini saqlagan holda ish haqi darajasi o'zgarishining samarasi (P'' nuqtani P'ga siljishi).

²⁸Mamonova I. V., Alenikov A. S. Vliyaniye podoxodnogo proporsionalnogo nalogooblojeniya na predlojeniya truda. <https://cyberleninka>.

²⁹Mamonova I. V., Alenikov A. S. Vliyaniye podoxodnogo proporsionalnogo nalogooblojeniya na predlojeniya truda. <https://cyberleninka>.

progressiv soliq kiritilgandan keyin byudjet cheklovi kabi muhim emas (Z_{E_1} chizig`i). Z_{E_1} chizig`i burchagini egilishi minimal, mehnat miqdori ortishi bilan progressiv soliq to`lovchisi sof daromadi tobora sekin o`sb borishidan dalolat beradi³². J_B dam olish va ish o`rtasida soliq to`lovchining befarqlik egri chizig`i hisoblanib, soliq joriy etilguncha befarqlik egri chizig`i Z_A chiziqdan yuqorida joylashgan edi. J_B befarqlik egri chizig`i Z_{E_2} byudjet cheklovi bilan progressiv soliqqa tortishda E_2 nuqtada proporsional soliq solishda esa E_1 nuqtada birlashadi. E_2 nuqtasi progressiv soliqqa tortishda E_1 ga nisbatan mehnat taklifining yuqori darajasiga mos kelishini ko`rish mumkin. G byudjet dotatsiyasi umumiy progressiv soliqqa tortiladigan barcha to`lovchilarga taqdim etiladi, ya`ni ularning har biriga iste`molning ma`lum bir minimal darajasini kafolatlovchi (soliq solinmaydigan minimum). A_1, E_1 va A_2, E_2 – soliq tushumlari (mehnatning ma`lum darajasi uchun soliqqa tortishdan oldingi va soliqdan keyingi byudjet cheklovlari orasidagi vertikal masofa), E_1, F_1 va E_2, F_2 – mos ravishda progressiv va proporsional soliq solishda yuzaga kelgan ortiqcha yuk (mehnat miqdorining tanlangan darajasida tegishli soliq va faraziy bir martalik soliq joriy etilganidan keyingi byudjet cheklovlari orasidagi vertikal masofa)³³. Progressiv soliq solish o`xshab proporsional soliqqa tortish buzuvchi hisoblanadi, biroq nisbatan kam darajada. Proporsional soliq davlat byudjetiga katta daromad tushumini ta`minlaydi ($A_2, E_2 > A_1, E_1$), xolbuki progressiv soliq ortiqcha soliq yukini ko`rsatadi ($E_1, F_1 > E_2, F_2$). Bundan yaqqol xulosa kelib chiqadiki, proporsional soliqqa tortish progressiv soliqqa tortishdan ko`ra ko`proq darajada iqtisodiy samaradorlik talablariga javob beradi³⁴.

Daromad solig`ining yuqori stavkasini o`rnatishda quyidagilar muhimdir: aholi umumiy daromadagi aholi boy qatlamining hissasi; ushbu daromadning mehnat harakatlari bilan bog`liqligi. Agarda umumiy daromadda aholi boy qatlamini hissa yuqori bo`lmasa va daromadni asosiy qismi iqtisodiy faol aholiga

³²Mayburov I.A., Sokolovskaya A.M. Nekotoriye postulati optimalnogo nalogooblojeniya truda. <https://elibrary.ru/download/elibrary>.

³³Mayburov I.A., Sokolovskaya A.M. Nekotorie postulati optimalnogo nalogooblojeniya truda. <https://elibrary.ru/download/elibrary>.

³⁴ Майбу́ров И.А., Соколовская А.М. Некоторые постулаты оптимального налогообложения труда. Вестник УрФУ. Серия: Экономика и управление. 2012. № 2. С. 28-39. https://elibrary.ru/query_results.asp

to'g'ri kelganda, yuqori soliq stavkasini o'rnatilishi noto'g'ridir³⁵. Fikrimizcha, ko'pchilik yuqori daromadli davlatlarda jismoniy shaxslar daromadi va mulkiga progressiv shkala soliq solinadi, lekin so'nggi yillarda soliq tizimidagi islohotlar natijasida stavkalar miqdori va ko'lamini qisqarishi (maksimal soliq stavkalari) natijasida progressivlik ko'rsatkichi pasayib ketgan.

1.2. Uy xo'jaliklari daromadiga soliq ta'sirini baholashning ilmiy nazariyalari

Barchaga ma'lumki, mamlakat moliya tizimida uy xo'jaligi sektoridagi daromad muhim moliyaviy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi, xususan, daromad masshtabi aholi iste'mol va jamg'arish nisbatini o'rnatishdagi mezon hisoblanadi. Uy xo'jaliklari daromadlari miqdoriga ko'plab omillar ta'sir qiladi va bu omillardan biri soliqqa tortish tizimidir. Soliqlarning nafaqat aholi daromadlarini qayta taqsimlash orqali byudjet daromadlari shakllantirishda, shuningdek, aholi daromadlar o'rtasidagi tengsizlikni kamaytirishdagi muhim fiskal instrument sifatida, daromad strukturasi ta'sirini baholash zaruriyatini keltirib chiqaradi³⁶. Bunda uy xo'jaliklarining pul daromadlari tarkibini o'zgarishi va aholi daromadlarini tartibga solish mamlakatda amalga oshirilgan soliq islohotlarida aholi daromadlarini soliqqa tortish tizimini takomillashtirish jumladan, samarali soliq stavkalari joriy qilinishi bilan belgilanadi. King ta'kidlashicha, uy xo'jaliklarining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda o'zni, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishdagi ishchi kuchi sifatida muhimdir, ammo, uy xo'jaliklari iqtisodiyotning boshqa xo'jalik subyektlari kabi iste'molchi va jamg'arma shakllantiruvchidir³⁷. Shu ma'noda, har bir uy xo'jaligi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida yoki ularning umumiyliги, iqtisodiyotda uy xo'jaligi sohasini tashkil etuvchi, mehnat birliklarining yuqori unumdorligi, keng ko'lamli iste'mol va faoliyat hajmining oshishi tufayli kamida uchta yo'nalishda sezilarli iqtisodiy

³⁵ Майбуров И.А., Соколовская А.М. Некоторые постулаты оптимального налогообложения труда. Вестник УрФУ. Серия: Экономика и управление. 2012. № 2. С. 28-39. https://elibrary.ru/query_results.asp

³⁶ Майбуров И.А., Соколовская А.М. Некоторые постулаты оптимального налогообложения труда. Вестник УрФУ. Серия: Экономика и управление. 2012. № 2. С. 28-39. https://elibrary.ru/query_results.asp

³⁷ King, J. & Carey, M. 2014. Personal Finance: A Practical Approach. Oxford University Press, 15–24.; Zuykov A.V. 2017. Vliyaniye imushchestvennogo nalogooblozheniya na fiskalnuyu nagruzku: metodicheskiy aspekt. <https://cyberleninka.ru/article>.

o`shiga egadir³⁸. Fikrimizcha, bunday jarayonlarda uy xo`jaligining tasarrufidagi daromad miqdori muhim o`rin tutadi. Chunki, shaxsiy iste`moldagi tovar va xizmatlar tarkibi hamda miqdori, jamg`arma normasi yoki investitsion faolligi ko`p jihatdan soliqlar to`langandan keyingi aholi ixtiyoridagi real daromad summasiga bevosita bog`liqdir. Bunda, birinchidan davlatdagi umumiy ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va jumladan, soliq va ijtimoiy sug`urta yuki funksiyasidir. Shu bilan birga, soliqning daromadni samarali taqsimlashi, iste`mol va daromadni soliqqa tortishda tabaqalashtirilgan soliq stavkasini qo`llash, inson va jismoniy kapitalni soliqqa tortish, inflyatsiyaning iqtisodiyotning kapital intensivligiga ta`siri va jamg`arma normasi yetarli darajadali yoki yuqoriligi haqida munozaralar dolzarbdir³⁹.

Xususiy jamg`arma normasi soliqlardan to`langandan keyingi real daromad stavkasiga sezgir bo`lgan iqtisodiyotda yoki davlat sektorining daromad hisobiga sarmoya kiritishga bo`lgan marjinal moyilligi xususiy sektorning xususiy daromad hisobiga tejashga bo`lgan marjinal moyilligidan farq qiladi bu taxmin noto`g`ri. Chunki daromad solig`i orqali bir vaqtning o`zida aholi daromadini soliqqa tortilgandan keyin kapital daromadini rentabellik darajasini pasaytiradi va resurslarni xususiy sektordan davlat sektoriga o`tkazadi, milliy jamg`arish normasi hamda mehnat va kapital nisbatiga ta`sir o`tkazadi. Aksariyat iqtisodchilar daromaddan ko`ra iste`molga soliq solishda samaradorlik afzalliklarini tan olishsada, mazkur soliqning regressiv stavkada o`rnatilishi salbiy jihati bo`lib, bunda olingan foizlar chegirilmaydi va bu foiz ko`rinishidagi tushumlar ham boylikka proporsional tarzida o`sadi. Biroq, u ikkita asosiy holatni e`tibordan chetda qoldiradi: birinchidan, iste`mol solig`i bo`yicha stavka strukturasi boshqacha tarzda belgilanishi mumkin; ikkinchidan, soliq solinadigan bazadan foizli daromadlarni chiqarib tashlash jamg`arma normasini, kapital nisbatini, mehnat unumdorligini, ish haqi va rentalar nisbatini oshirishi mumkin. Daromadni kapitaldan mehnatga uzoq muddatli o`tkazish kapitalning foizli daromaddan ozod qilishdan olingan qisqa muddatli foydasi bilan qoplanishi kerak. Aniq natijalar albatta, taqqoslanayotgan ikkita soliqning xususiyatlariga bog`liq. Biz jismoniy

³⁸Callaghan, G. & Fribbance, I. 2007. Personal Finance, Palgrave Macmillan, 47–87.

³⁹Boskin, M. J. 1978. Taxation, Saving and the Rate of Interest. Journal of Political Economy, 86(2), r.3. <http://dx.doi.org/10.1086/260692>.

kapitalga investitsiyalarni bir zumda hisobdan chiqarishga yoʻl qoʻymasligimiz sababli (tadqiqot va ishlanmalar xarajatlaridan tashqari) ehtimol daromadlarni soliq tortishning amaldagi tartibi inson kapitaliga daromad bilan taqqoslaganda jismoniy kapitalga soliq solinganidan keyin foyda normasini pasaytiradi.

Soʻnggi vaqtlarda inflyatsiyaning iqtisodiy oqibatlariga eʼtibor qaratilmoqda, Tobin tipidagi soliqlari bilan pul massasining oʻsish modeli inflyatsiya ishlab chiqarishning kapital intensivligini qanday kamaytirishi va natijada real iqtisodiyotga qanday taʼsir qilishi mumkinligini koʻrsatadi⁴⁰. Shunga qaramay, asosiy masala, jamgʻarish real sof daromad darajasining oʻsishiga ijobiy taʼsir koʻrsatishini aniqlashdan iborat. Shunday qilib, agar jamgʻarma normasi foiz stavkasining ayrim elastikligini ifodalaydigan boʻlsa, soliq yuki, inflyatsiyaning real iqtisodiyotga taʼsiri va resurslarni taqsimlashning vaqtlararo samaradorligi haqidagi tushunchamiz qayta koʻrib chiqishga toʻgʻri keladi. Wright tomonidan isteʼmol funksiyasini baholashda soliqlar toʻlangandan keyin aktsiyalar va obligatsiyalarni daromadlilik koʻrsatkichlarini oʻz ichiga olgan AQShning vaqt qatorlari yillik maʼlumotlaridan olib borilgan tadqiqotlar natijasida uning hisob-kitoblariga koʻra, jamgʻarmaning foiz egiluvchanligi taxminan 0,2 ga teng⁴¹. Uning oʻzi taʼkidlaganidek, bu odatiy taxmindan ancha yuqoridir, uning harakatlariga qaramay, bu almashtirishning sof elastikligiga qaraganda umumiyga yaqinroq boʻlishi mumkin. Xususiy jamgʻarmaning yalpi normasi (GPSR)-bu tasarrufdagi daromaddan jamgʻarma normasi va mavjud tasarrufdagi daromadning umumiy daromadga nisbatini ifodalaydi, yaʼni⁴²:

$$GPSR = \frac{GPS}{GNP} = \frac{GPS}{DPI} * \frac{DPI}{GNP} \quad (1.7)$$

Bu yerda: GPS-yalpi xususiy jamgʻarma; GNP-yalpi milliy daromad; DPI-tasarrufdagi xususiy daromad.

Binobarin, soliqlar toʻlagandan keyingi tasarrufdagi daromaddan jamgʻarish normasi xususiy va umumiy daromad nisbati pasayishini qoplash uchun sezilarli

⁴⁰Feldstein, M., "The Welfare Costs of Capital Income Taxes," mimeo, 1975.

⁴¹Wright, C., "Saving and the Rate of Interest," in A. Harberger and M. Bailey, eds., *The Taxation of Income From Capital*, Brookings, 1969.

⁴²Boskin, M. J. 1978. Taxation, Saving and the Rate of Interest. *Journal of Political Economy*, 86(2), r.12. <http://dx.doi.org/10.1086/260692>.

darajada oshishi lozim bo`ladi. David va Scaddinglarning ta`kidlashicha, soliqlar va joriy iste`mol mohiyatan mukammal o`rinbosar bo`lganligi sababli, soliqlarning o`shishi joriy iste`molning ekvivalent pasayishi bilan qoplanadi⁴³. Umuman qilib olganda, birinchidan, iste`molchilarning xatti-harakatlarining aksariyat nazariyalarida jamg`arishni tasarrufdagi daromad bilan bog`laydi va agar bu to`g`ri bo`lsa, jamg`arish normasi sezilarli darajada farq qiladi; ikkinchidan, agarda uy xo`jaligi yalpi jamg`arish va daromad nuqtai nazaridan davlat va firma sektoriga nisbatan ratsional hisoblab chiqilgan bo`lsa hamda ba`zi mumkin bo`lgan texnik o`zgarishlardan tashqari, soliqlar kapital jamg`arishiga ta`sir qiladimi yoki yo`qmi degan savolga aynan sof jamg`armaga tegishli; uchinchidan, jami yalpi daromad va yalpi jamg`armalar ko`rib chiqilganda ham, jamg`armalarga haqiqiy sof foyda normasining mustaqil ta`siri hali ham mavjud bo`lishi mumkin. Ammo, agar odatiy tarzda harakat qilsak va soliqlardan tashqari barcha buzilishlarni e`tiborsiz qoldirsak va shuni ta`kidlash kerakki, bu birinchi taxminiy jamg`arma normasi soliqlar mavjud bo`lmaganda samarali bo`ladi, biz iste`molchining yo`qolgan boyligining odatdagi o`lchovini olishimiz mumkin: soliq orqali kelib chiqqan kelajakdagi iste`mol narxining o`shish va kelajakdagi iste`molning kompensatsiyalangan o`zgarishning yarmiga teng bo`lib, Feldstein tomonidan quyidagicha ifodalangan⁴⁴:

$$\Delta W = \frac{1}{2}(1 + \epsilon SR/rT)(P_1 - P_0/P_1)^2 S_1 \quad (1.8)$$

Bu yerda: P_1 va P_0 kapitaldan daromadga soliq to`languncha va to`langandan keyin ($e^{(-r/(1-\mu)T)}$ and e^{rT}) kelajakdagi iste`mol narxlari; μ -kapitaldan daromadga marjinal soliq stavkasi; kapitalning r -sof daromadlilik normasi; s -jamg`arish va sarflanish o`rtasidagi davomiylik muddati; S_1 -kelajakdagi iste`mol uchun jamg`arma; ϵSR -jamg`arma normasining kompensatsiyalangan foiz elastikligi. Boskin ta`kidlashicha, xususiy sektor sof jamg`aruvchi hisoblanib, daromad darajasi o`zgarganda daromad va almashtirish ta`siri teskari yo`nalishda bo`ladi. Shunday qilib, baholashda sof almashtirish egiluvchanligi bo`yicha pastki

⁴³David, P., and J. Scadding, "Private Saving: Ultrarationality, Aggregation and 'Denison's Law'," Jour. Pol. Econ., 1974.

⁴⁴Feldstein, M., "The Welfare Costs of Capital Income Taxes," mimeo, 1975.

chegaralari hisoblangan. Real sof daromad normasi r , tahlilda olingan davrida taxminan o'rtacha uch yoki to'rt foizni, T , jamg'arish va sarflashish o'rtasidagi o'rtacha davrning ehtimoligi taxminan 25 yilni tashkil qilgan. Shunday qilib, Feldstein modelidan real sof foyda normasining elastikligini yo'qotilgan farovonlikka qo'shgan hissasi $1/rT$ $4/3$ omil bilan ortishini ko'rish mumkin. Garchi μ kapital turiga qarab sezilarli darajada farq qilsa va jismoniy shaxslar daromad solig'ining progressiv stavkalari strukturasi o'rtacha soliq stavkasiga nisbatan marjinal miqdorni o'lchashni qiyinlashtirini hisobga olgan holda, μ aniq baholash sifatida 50% qabul qilingan⁴⁵. Harberger taxminan 60% aniqroq ekanligi, Pechman and Oknerlar tomonidan esa 40 % ko'rsatib o'tilgan⁴⁶. Biroq, birinchi ko'rsatkich notijorat sektoriga nisbatan noadekvat hisoblanadi, ikkinchisi esa kapitalga hech qanday bilvosita soliq solmaydi. Chunki, S_1 - bu kelajakdagi iste'mol uchun jamg'arma bo'lib, jami sof xususiy jamg'arma S_1 ni kamaytiradi. Agar yiliga aholi soni 1-2%ga, real daromad esa 3% ga o'sganda va taxminan $T=25$ yilga teng bo'lganda, S_1 umumiy sof xususiy jamg'armaning yarmini, taxminan 200 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan. r va ${}^{\epsilon}SR$ turli qiymatlar bo'yicha hayot sikli davomida soliqqa tortishdagi nomutanosiblik tufayli yillik yo'qotilgan faravonlik baholangan⁴⁷. $r=0,4$ va ${}^{\epsilon}SR=0,4$ asosida yillik yo'qotilgan faravonlik qiymati taxminan 60 mlrd AQSh dollari miqdorida baholangan. Bunda r dagi o'zgarishlarga nisbatan befarq va ${}^{\epsilon}SR$ dagi o'zgarishlarga esa o'rtacha sezgirligi aniqlangan (1.2-jadval). Har xil turdagi kapitalni differentsial soliqqa tortish natijasida farovonlikni yo'qotish bo'yicha avvalgi olib borilgan tadqiqotlar natijasi bilan solishtirganda, bu raqamlar juda katta. Bu esa kapitalni samarasi katta miqdorda ishlatilishiga sabab bo'ladi.

1.2-jadval

⁴⁵Boskin, M. J. 1978. Taxation, Saving and the Rate of Interest. Journal of Political Economy, 86(2), r.28. <http://dx.doi.org/10.1086/260692>.

⁴⁶Harberger, A., "Introduction," in A. Harberger and H. Bailey, eds., The Taxation of Income From Capital, Brookings, 1969. ;Pechman, J., and B. Okner, Who Bears the Tax Burden? Brookings, 1974.

⁴⁷Boskin, M. J. 1978. Taxation, Saving and the Rate of Interest. Journal of Political Economy, 86(2), rr.28-29. <http://dx.doi.org/10.1086/260692>.

**Kapitaldan joriy daromadni soliqqa tortish sharoitida farovonligining
taxminiy yillik qiymati⁴⁸ (mlrd. AQSh dollari)**

r	$^{\text{€}}SR$		
	0.2	0.3	0.4
0.03	44.6	48.3	52.1
0.04	48.0	52.0	56.0
0.06	48.0	52.3	56.3

Mazkur xarajatlarning joriy qiymati yillik xarajatlarning katta qismidir (chegirmaning taxminiy stavkasiga bog`liq aniq nisbat) va osongina yuzlab mlrd. AQSh dollarlarini tashkil qilishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, agar joriy yilda kapitaldan olinadigan daromad solig`ini bekor qiladigan bo`lsa, o`n yillikning oxiriga kelib bugungi kundagi aholining yillik daromaddan ikki baravarga oshishi mumkin. Ushbu hisob-kitoblar shuni ko`rsatadiki, kapitaldan olinadigan daromadga joriy soliq solish iste`molchilarni ijtimoiy nuqtai nazardan optimal bo`lganidan ko`ra, hayotining keyingi davrida- birinchi navbatda qarilikda iste`mol qilish uchun kamroq tejashga undaydi. Shu bilan birga, bir vaqtni o`zida jamg`arma daromadlilik va shuningdek, ijtimoiy ta`minot tizimida davlat pensiya ta`minotini rolini orqali xususiy pensiya fondini rivojlantirmaslik ajablanarli bo`lib, bu esa o`z navbatida xususiy jamg`armalarni sezilarli darajada kamaytirishi mumkin⁴⁹. Fikrimizcha, kapitaldan daromadga soliq solish va ijtimoiy ta`minot tizimidan ko`zlangan maqsadlar turlicha bo`lsada, biroq, ular o`rtasida pensiya yoki kelgusidagi iste`molini ta`minlashdagi ziddiyatlar mavjud. Soliqdan to`langandan keyingi real daromad normasiga ta`sir etuvchi boshqa choralar amalga oshirilmasa va teng joriy rentabellikka ega bo`lgan iste`mol solig`ini kapitaldan daromadning joriy soliqqa tortishga almashtirishi, qisqa muddatda real sof foyda normasi $\mu = 0,5$ bilan ikki baravarga oshadi. Bunda shaxsiy iste`mol solig`i progressiv stavkalarda bo`lishi mumkinligi va darhaqiqat, bu ko`pincha e`tibordan chetda qoladigan fakt daromaddan iste`mol soliqlariga o`tishda taqsimlash ta`sirini yanada jozibador qiladi. Bu esa o`z navbatida bu jamg`arma, kapital/mehnat nisbati hamda ish haqi normasi oshishiga va kapitalning yalpi

⁴⁸Boskin, M. J. 1978. Taxation, Saving and the Rate of Interest. Journal of Political Economy, 86(2), r.30. <http://dx.doi.org/10.1086/260692>.

⁴⁹Feldstein, M., "The Welfare Costs of Capital Income Taxes," mimeo, 1975.

daromad normasining pasayishiga olib keladi. Feldsteln tomonidan omil soliqlari va jamg`arma normasi o`zgaruvchilari bilan bir sektorning o`shida kapitalning sof daromadlilik normasi va kapitaldan daromadga soliq o`rtasidagi bog`liqlikni aniqlangan⁵⁰. Demak, kapitaldan olinadigan daromadni soliqqa tortishni to`liq bekor qilinishi real sof daromad normasini taxminan 30%ga (yoki almashtirish egiluvchanligi yuqoriroq bo`lsa) oshiradi. Fikrimizcha, nazariy va empirik tadqiqotlar natijalarini umumlashtirgan holda, daromad va uning taqsimotiga aniq ta'sir aniq taxminlar to`plamiga bog`liq bo`lsada, umumiy dalil bir xil bo`lib qoladi: sezilarsiz ijobiy foiz egiluvchanligi soliq siyosati korporativ va jismoniy shaxslar daromad solig`i integratsiyasi yoki kapitaldan daromadga soliqni kamayishini anglatuvchi iste'mol soliqlariga o`tish, jamg`armani, ishlab chiqarishning kapital zichligini, daromad va farovonlikni oshiradi hamda keyinchalik yalpi daromadni kapitaldan mehnatga o`tkazishga olib keladi degan xulosaga kelish mumkin.



1.5-rasm Aholi daromatlari kategoriyasini aniqlashga yondashuvlar⁵¹

Shu bilan birga, kapitaldan daromadga soliq solishning amaldagi tartibi iste'mol va jamg`arish o`rtasidagi tanlovning buzilishi tufayli farovonlikning

⁵⁰Feldstein M. "Incidence of a Capital Income Tax in a Growing Economy With Variable Savings Rates," R.E. Stud., October 1974b.

⁵¹O`rganishlar asosida dissertant tomonidan tuzilgan.

yo`qotilishiga olib keladi va foizli daromadga soliqlarni kamaytirish uzoq muddatli istiqbolda daromadlar darajasini oshiradi hamda kapitalning yalpi daromadning asosiy qismini mehnatga o`tkazadi. Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari kapitaldan daromadga soliq solish tartibini isloh qilish, masalan, korporativ va daromad solig`ini integratsiyalash yoki yaxshiroq, daromaddan iste`molga soliq solishga o`tish hisoblanadi.

Bundan tashqari, bular shuningdek, pul-kredit siyosatining qisqa va uzoq muddatda potensial samaradorligiga aniq ta`sir ko`rsatadi. Umuman olganda, soliqlarning uy xo`jaliklari daromadlariga ta`siri iste`mol, jamg`arma va investitsiyalar nuqtai nazaridan shaxsiy imkoniyatlar hamda uy xo`jaligi sektori milliy iqtisodiyotning eng katta sof jamg`aruvchi sifatida mamlakatda iqtisodiy faoliyat uchun muhimligi sababli dolzarb ilmiy va amaliy xususiyatga ega masala hisoblanadi.

Uy xo`jaliklarining pul tushumlarini shakllantirish manbalarining xilma-xilligi ularni to`rt guruhga bo`lish imkonini beradi (1.5-rasm). Jumladan, soliq solish maqsadlarida quyidagilar uy xo`jaliklarining daromadi tarkibiga quyidagilardan iborat: ish haqi, mulkiy, moddiy naf va boshqa daromadlar⁵². Barchaga ma`lumki, ushbu ko`rsatib o`tilgan turli daromadlar to`lanadigan soliq va majburiy to`lovlar hisobiga sezilarli miqdorda qisqaradi. Shuni ta`kidlash kerakki, uy xo`jaliklarini daromad manbalari (pensiya, oilaviy nafaqa, ishsizlik nafaqalari, ijtimoiy nafaqalar) bevosita soliq solinmaydi.

Bugungi kunda xalqaro standartlari bilan uyg`unlashtirishga qaratilgan soliq tizimini takomillashtirish va optimallashtirish eng muhim quyidagilar hisoblanadi: uy xo`jaliklari daromadlariga soliq solishda soliqqa tortilmaydigan minimumni va progressiv darajalarda yuqori va pastki chegaralarni oshirish; uy xo`jaliklarini mulk komponentlarini soliqqa tortishni o`zgartirish, jumladan, ko`chmas mulk va transport vositalariga soliqlarni oshirish; daromadlarni soliqqa tortish islohotlari uy xo`jaliklari jamg`armasini oshirishga qaratilgan; ijtimoiy to`lovlarni nisbatini ishchining sug`urta mablag`larini hisobga oshirish oqibatida uy xo`jaliklarining tasarrufidagi daromadiga salbiy ta`sirni kamaytirish; kapitaldan olinadigan soliqlar

⁵²O`zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahriri). <https://lex.uz/docs/4674902>.

va iste'molga soliqlar o`rtasidagi nisbatni optimallashtirish; ipoteka kreditlar va uzoq muddatli iste'molga mo`ljallangan tovaralar bo'yicha qarz to'lovlariga soliq chegirmalari berilishi tartibini takomillashtirish; uy xo'jaligi sektorning daromadlari va farovonligiga samarali ta'sir ko'rsatadigan soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarni amalga oshirish. O'z navbatida, soliq ta'sirining yuqorida ko'rsatilgan usullarini amaliyotga tatbiq etish uy xo'jaliklarining moliyaviy savodxonligining yuqori darajasini talab qiladi, ular soliq imtiyozlari va preferensiyalar orqali ixtiyoriy daromadni oshirishga huquqiy ta'sirning real imkoniyatlarini bilishi kerak. Bundan tashqari, eng kam oylik ish haqidan oshmagan daromadlar bo'yicha soliq imtiyozlarini bekor qilinishi, voyaga yetmagan har bir yosh bolalar uchun mol-mulk solig'i va ijara to'lovlari uchun soliq chegirmalarini taqdim qilinishi va bolalikdan nogiron bolalarni bolani tarbiyalash xarajatlarini hisobga olgan holda ijtimoiy maqsadga qaratilgan samarali soliq mexanizmini tatbiq qilinishi, jismoniy shaxslarning nafaqat depozitlar, balki omonatlar bo'yicha olgan foiz daromadlarining yalpi summasini o'z ichiga olgan foizli daromad solig'i bo'yicha soliq solinadigan bazani kengaytirish, tegishli shartlar va alohida hollarda davlat yoki munitsipalitetlarning obligatsiyalari yoki korporativ obligatsiyalar bo'yicha foiz solig'idan ozod qilish, soliqlar va yig'imlar qonunchiligida elektromobillar, elektromototsikllar va elektr transport vositalari hamda maishiy chiqindilar uchun to'lovlarni aniqlashning samarali mexanizmi joriy etish, xodimlardan majburiy ijtimoiy ta'minot badallari, ba'zi ish bilan bog'liq bo'lmagan munosabatlar va o'z-o'zini ish bilan band bo'lgan uy xo'jaliklarining tasarrufidagi daromadlariga ta'sirini kamaytirish.

Soliq tizimida nazarda tutilgan imtiyozlar, birinchi navbatda, quyidagilarga qaratilgan: uy xo'jaliklarining tasarrufidagi daromadlarining oshishiga olib keladigan ijtimoiy ta'sirlar, shu jumladan voyaga etmagan bolalarni tarbiyalayotgan, jamg'arma, investitsiya va xayriya faoliyatini rag'batlantirish. Shu o'rinda, ta'kidlab o'tish lozimki, jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini kamaytirishning mavjud imkoniyatlarini hisobga olgan holda, o'z daromadlarini (tegishli bo'lgan uy xo'jaliklarining daromadlarini) shakllantirish va soliqqa tortish

tartibini to'liq tushunib etishi, xususiy moliyani boshqarishning muhim jihati va samarali boshqarishning zaruriy sharti sifatida belgilangan.

Iqtisodiyotda bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi, aholi daromadlar hajmini oshishiga hamda strukturasi kengayishi va shu bilan birga, daromadlar tengsizligidagi keskin kuchayishi kuzatilmoqda. Bu, o'z navbatida, davlat tomonidan aholi daromadlarini, jumladan, fiskal mexanizm vositada tartibga solish orqali boylar va kambag'allar qatlamlar o'rtasidagi tafovutni qisqartirish chora-tadbirlarini ko'rishni talab etadi. Shuning uchun fiskal mexanizmni samarali instrumentlaridan bo'lgan jismoniy shaxslar daromad solig'ining qayta taqsimlash va tartibga solish funksiyalari alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bu soliq aholi daromadlarining o'sish sur'atlarini kamaytirish yoki oshirish, shu orqali aholining iste'mol va jamg'arish normasi nisbatini o'zgartirish oqibatida aholi real daromadlari darajasi va strukturasi ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga egadir. Birinchi navbatda shuni ko'rsatib o'tish kerak-ki, byudjet daromadida daromad solig'i hissasi juda kam bo'lgan ko'pchilik mamlakatlarda bu, asosan, samarasiz soliq ma'murchiligi hamda ish haqi darajasining pastligi bilan bog'liqdir. Soliq tizimida jismoniy shaxslar daromad solig'ining yuqori bo'lmagan roli ko'p jihatdan aholining yuqori daromadli guruhi tomonidan soliq to'lashdan bosh tortishning turli mexanizmni qo'llab-quvvatlash tufayli yuzaga keladi⁵³. So'nggi yillarda ilg'or tadqiqotlar progressiv daromad solig'ini modellashtirishga qaratilgan bo'lib, bunga asosan Mirrleesning optimal daromad solig'ining zamonaviy nazariyasida daromad solig'i shkalasi progressiyaning optimal darajasi haqidagi savolga ham, marjinal stavkalarining o'lchamlari va ularni qo'llash diapazonlari haqidagi savollarga ham to'liq javob bermasligini ko'rsatib o'tish mumkin. Barchaga ma'lumki, daromad solig'i tizimining asosini shaxsiy daromad solig'i tashkil etib, rezidentlarning daromadlaridan va nerezidentlarning daromadlaridan qonunchilik o'rnatilgan tartibda proporsional yoki progressiv stavkalar undiriladi. Masalan, Rossiyada asosiy soliq stavkasi 13%, progressiv shkalada Avstriyada 55%, Belgiyada. Isroilda – 50%, Gollandiyada – 52%, Frantsiya, Germaniya, Gretsiyada

⁵³Kostoeva e.X. Organizatsiya risk-menedjmenta na predpriyatii/ e.X. Kostoeva, A.D. Burikin // Ekonomika i upravleniye: problemi, resheniya. - 2016. - T. 4. - № 12. - S. 33-38.

- 45% gacha etadi. Jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishning muhim elementiga, soliq ushlanmaydigan minimal daromad summasi hamda turli ko`rinishdagi ijtimoiy va investitsion soliq chegirmalarini keltirib o`tish mumkin⁵⁴.

1.3. Progressiv va proporsional soliqqa tortish nazariyalari va modeli

Progressiv va proporsional soliqqa tortish o`rtasidagi bahs va munozaralar hozirda dunyoning ko`plab mamlakatlarida iqtisodchi olimlar tomonidan faol muhokama qilinayotgan dolzarb masalalardan biriga aylangan. Jamiyatdagi daromadlar tengsizlik darajasini pasaytirish va adolatli mexanizmini yo`lga qo`yish bo`yicha chora-tadbirlarning yetarli emasligi turli toifalar o`rtasidagi daromad farqini kamaytirish uchun samarali qayta taqsimlashni ta`minlash jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimini takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Albatta, butun insoniyat taraqqiyoti davomida soliq tizimi sezilarli o`zgarishlarga duch keldi: natura ko`rinishidagi birinchi to`lovlar va zamonaviy soliqlar o`rtasida inson tafakkurining ming yillik taraqqiyot yo`li yotadi⁵⁵. Ammo olimlar, iqtisodchilar va hukumat bu boradagi ko`plab muammoli masalalar bo`yicha haligacha bir fikrda emaslar. Proporsional va progressiv soliqqa tortishni qo`llash bo`yicha munozaralar XVIII asrdan boshlab va hozirgi kungacha qizg`in tortishuvlarga sabab bo`lmoqda. Masalan, A. Smit Proporsional soliqqa tortish tarafdori edi⁵⁶. Ammo adolat tamoyilini tushunishning boshqa kontseptsiyalari ham mavjud⁵⁷. Xususan, “vertikallik” bo`yicha adolat soliq stavkasini yuqori daromadlarga oshirishni o`z ichiga oladi⁵⁸. Lekin nisbatan olganda, ayirboshlash nazariyasiga teskari bo`lib, ko`p miqdorda soliq to`laydigan boy aholi qatlamining jamiyatdagi faravonlikni taqsimotida ulushi yuqori bo`lishini anglatadi. Bu Jean-

⁵⁴Mayburov I.A., Sokolovskaya A.M. Nekotoriye postulati optimalnogo nalogooblojeniya truda. <https://elibrary.ru/download/elibrary>.

⁵⁵Kosov M. e., Bondarenko N. O. Teorii proporsionalnogo i progressivnogo nalogooblojeniya: praktika primeneniya. Mejdunarodniy buxgalterskiy uchet.–2018.–T.21, №11. 1268 s.

⁵⁶Brizgalin A.V. K voprosu o progressivnom nalogooblojenii – «bit ili ne bit» (ili rassujdeniya o sovremennoy nalogovoy politike) // Nalogi i finansovoe pravo. 2009. № 6. 17–29s.

⁵⁷Shayxutdinova D.R. Spravedlivost` kak osnovnoy printsip nalogooblojeniya // Upravlenie ekonomicheskimi sistemami: elektronnyy nauchnyy jurnal. 2012. № 6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/spravedlivost-kak-osnovnoy-printsip-nalogooblozheniya>.

⁵⁸Морозова Г.В., Мигунова С.В. Введение прогрессивной шкалы налогообложения доходов физических лиц как способ реализации принципа справедливости в налогообложении // Современные тенденции в экономике и управлении: новый взгляд. 2011. № 8. 198–202с.

Jacques Rousseau, Jean Charles Léonard Simonde de Sismondi, Jean-Baptiste Saylar tomonidan inkor etilgan bo`lib, ularning ta`kidlashicha, jamiyatning yuqori qatlamlari vakillari o`z mavqeini o`z kapitalini himoya qiluvchi davlatga qarzdordir. Klassik maktab rivojlanishining yakuniy bosqichlarida marjinal hisob-kitoblardan foydalanish soliq to`lovchilarning turli toifalari uchun olingan teng daromad ulushlari har xil subyektiv qiymatga ega ekanligini aniqlashga imkon bergan. Rus olimi Kostyleva fikricha, soliq tizimi soliq yukini teng taqsimlashga asoslanishi kerak va uni tenglashtirish uchun soliqqa tortishning progressiv shkalasini joriy etish zarurligi John Stuart Mill tomonidan ko`rsatib o`tilgan⁵⁹.


Iqtisodchi olimlarning fikricha, aholi istemol talabi hajmining yetarli bo`lmagan (asosiy qism aholining pul daromadlari faqat birlamchi ehtiyojlarini qondirishi), yuqori darajadagi daromad tengsizligi sharoitida daromadga mutanosib stavkada soliq solinishi jamiyatda ijtimoiy tengsizlik va qarama-qarshiliklarning keskinlashuviga sabab bo`lishi mumkin. Darhaqiqat, o`n yildan ko`proq vaqt davomida Rossiya Federatsiyasi Davlat Dumasiga jismoniy shaxslarning daromad solig`i bo`yicha progressiv shkalani joriy etishni nazarda tutuvchi qonun loyihalari kiritilib kelingan. Masalan, 2011 yilda yillik daromad miqdoriga muvofiq 10%,15%,25%,35% va 45% soliq tizimini joriy etishni nazarda tutuvchi loyiha ko`rib chiqilgan bo`lib, shubhasiz, mamlakat byudjet tizimi orqali yalpi ichki mahsulot qiymatining yanada adolatli qayta taqsimlanishi joriy etilganini ushbu qonun loyihasining afzalligi deb hisoblash mumkin. Shubhasiz, soliq solinmaydigan minimum daromad miqdorining belgilanishi aholi turmush darajasi yaxshilanishi va kam ta`minlangan aholi qatlami ixtiyoridagi daromadni ortishi o`z navbatida yalpi talabning o`shishiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi⁶⁰.

Fikrimizga ko`ra, jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda mutanosib yoki progressiv shkalani o`rnatilishi mamlakatdagi aholining boy va kambag`al guruhlarga tabaqalanishi muammosi doirasidagi ustuvor ijtimoiy ahamiyatga molik masaladir.

⁵⁹Костылева Л.В. Налогообложение как механизм регулирования неравенства населения // Экономические и социальные перемены: факты, тенденции, прогноз. 2011. № 3. 66–77с.

⁶⁰Косов М., Бондаренко Н. О. Теории пропорционального и прогрессивного налогообложения: практика применения. Международный бухгалтерский учет.–2018.–Т.21,№11..1270-1271с.

Mazkur salbiy ta'sirlarning rivojlanayotgan holatlarini keng doirasi tengsizliklarni kamaytirish yo'llarini izlashga undaydi. Shu bilan birga, rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, daromadlar tengsizligi darajasini tavsiflovchi Jini koeffitsienti qiymatining ma'lum darajada pasayishi davlat tomonidan aholi daromadlarini soliqqa tortishning samarali va adolatli tizimiga asoslangan samarali fiskal siyosat amalga oshirish bilan bog'liqdir.



1.6-rasm. Daromad tengsizligi va jamiyatning mulkiy tabaqalanishi quyidagi salbiy oqibatlar⁶¹

Xalqaro valyuta fondining (XVF) “Fiscal Monitor:Tackling Inequality” nomli ma’ruzasida progressiv soliqqa tortish byudjet resurslarini samarali qayta taqsimlashning asosiy tarkibiy qismi sifatida ko’rsatib o’tilgan⁶². Tadqiqot natijalarida soliq solish daromadlar tengsizligini kamaytirishi, biroq bu tendentsiya mamlakatlarda turlicha yuz beradi. Bunda, rivojlangan mamlakatlarda to’g’ridan to’g’ri soliqlar va transfertlar daromadlar tengsizligini o’rtacha uchdan bir qismga kamaytiradi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida daromad tengsizligini tartibga solish instrumenti sifatida progressiv soliqqa tortish shkalalaridan foydalanishning samarali ekanligini ko’rsatgan. Shunday qilib, progressiv soliq shkalalaridan foydalanishning jahon mamlakatlaridagi tengsizlik darajasiga ijobiy ta’sirini aniq

⁶¹O’rganishlar asosida dissertant tomonidan tuzilgan.

⁶²IMF Fiscal Monitor: Tackling Inequality / International Monetary Fund. – Washington, 2017. 10– 13p.

qayd etish mumkin. Biroq mamlakatda shakllangan o`rta sinf mavjud bo`lmaganda progressiv soliqqa tortish samaradorligi minimallashtiriladi. Bundan kelib chiqib, rivojlangan mamlakatlarda, shuningdek, aholi turmush darajasi tegishli darajada bo`lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda progressiv soliqqa tortishdan foydalanish tavsiya etiladi⁶³.

MDH iqtisodchilari Balatskiy va Ekimovalar tomonidan progressiv soliqqa tortish joriy etishning maqsadga muvofiqligini baholash uchun ikki parametrlil modeldan foydalanilgan va bunday holda, ularning model sxemasida ikkita parametrni ijtimoiy (mablag`lar nisbati) va fiskal (soliq daromadlarining o`shishi) hisobga olinishi nazarda tutilgan⁶⁴. Progressiv soliqqa tortish joriy qilinishi mablag`lar nisbatini pasayishiga va soliq to`lovlarining oshishiga olib keladi. Ushbu sxemaning asosiy g`oyasi shundaki, hisob-kitoblarda progressiv daromad solig`i shkalasini joriy etishning ikkita natijasini bir vaqtning o`zida hisobga olish kerak. Progressiv daromad solig`i joriy etilishidan oldin, mablag`lar nisbatining boshlang`ich qiymati ahamiyatsiz tarzda hisoblanadi:

$$F_0 = \frac{D_{10}}{D_1} \quad (1.9)$$

Bu yerda, D_1 , D_{10} , 1-chi va 10-chi detsil guruhlarini daromadi.

Soliq to`lovchilardan soliq tushumlarining boshlang`ich qiymati soddalashtirilgan formuladan foydalangan holda hisoblanishi mumkin:

$$T_0 = \alpha D - V \quad (1.10)$$

Bu yerda, D , –aholining jami daromadlari; α – amaldagi soliq stavkasi; V – soliq chegirmalari.

Progressiv daromad solig`i joriy etilishidan keyin mablag`lar nisbati quyidagicha hisoblanadi:

$$F_1 = D_{10}^*/D_1^* \quad (1.10)$$

Bu yerda, D_1^* , D_{10}^* – daromad solig`ining progressiv shkalasi joriy qilingannan keyingi 1-chi va 10-chi detsil guruhlarini daromadi.

⁶³Тихомиров Р. О. Прогрессивное налогообложение как инструмент регулирования неравенства в распределении доходов. Вестси БДПУ. Серия 2. 2019. № 1. <https://elib.bspu.by/bitstream>.

⁶⁴Балатский В., Екимова Н.А. Сравнительные характеристики прогрессивной и плоской шкалы подоходного налога. JOURNAL OF INSTITUTIONAL STUDIES Vol. 10, no. 3. 2018. S.110.

Eng oddiy holatda, soliq imtiyozlarini e`tiborsiz qoldirish mumkin ($V = 0$). Bunday holatda soliq islohotining butun samarasi (progressiv daromad solig`i joriy etilishidan keyin) 10-chi detsil guruhi daromadi D_{10}^* ning yangi qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$D_{10}^* = (1 - \alpha)W_{max}L_{10} + \sum_{i=2}^n L_{10,i} \sum_{j=1}^{i-1} (1 - \beta_j)(W_{10,j,max} - W_{10,j,min}) + \sum_{i=1}^n (1 - \beta_i)(\bar{W}_{10,i} - W_{10,i,min})L_{10,i} \quad (1.11)$$

Bu yerda, W_{max} – bazaviy soliq stavkasi (α) bo`yicha maksimal daromad; L_{10} – 10-chi detsil guruhdagilar soni; $L_{10,i}$ – 10-chi detsil guruhdagi i – kichik guruhdagilar soni; β_i va β_j – 10-chi detsil guruhdagi i va j - kichik guruhdagilarga mos ravishdagi soliq stavkasi; $W_{10,j,max}$ – 10-chi detsil guruhdagi j - kichik guruhdagilar daromadini yuqori chegarasi; $W_{10,i,min}$ va $W_{10,j,min}$ – mos ravishda 10-chi detsil guruhdagi i va j - kichik guruhdagilar daromadini quyi chegarasi; $\bar{W}_{10,i}$ – 10-chi detsil guruhdagi i – kichik guruhdagilarni o`rtacha daromadi; $i = 1, n; j = 1, n; n = 5$.

Progressiv shkala kiritilgandan keyin daromad soliq tushumlari miqdori quyidagi formula bo`yicha hisoblanadi:

$$T_1 = \alpha[(D - D_{10}) + W_{max}L_{10}] + \sum_{i=2}^n L_{10,i} \sum_{j=1}^{i-1} \beta_j (W_{10,j,max} - W_{10,j,min}) + \sum_{i=1}^n (\bar{W}_{10,i} - W_{10,i,min})\beta_i L_{10,i} \quad (1.12)$$

$V = 0$ da bo`lgan holatdagi formulani hisobga olgan holda (1.12) tenglamani quyidagicha qayta yozish mumkin:

$$T_1 = T_0 + \alpha[W_{max}L_{10} - D_{10}] + \sum_{i=2}^n L_{10,i} \sum_{j=1}^{i-1} \beta_j (W_{10,j,max} - W_{10,j,min}) + \sum_{i=1}^n (\bar{W}_{10,i} - W_{10,i,min})\beta_i L_{10,i} \quad (1.13)$$

Tahlilni keyingi bosqichida mazkur ikki parametрни - progressiv shkala amalga kiritilgandan keyingi mablag`lar nisbati o`zgarishini baholash lozim:

$$\Delta F = F_1 - F_0 \quad (1.14)$$

Shu bilan birga, soliq yig`imlarining mutlaq va nisbiy o`zgarishini baholash talab qilinadi:

$$\Delta T = T_1 - T_0 \quad (1.15)$$

$$\lambda = \left(\frac{\Delta T}{T_0} - 1 \right) * 100 \quad (1.16)$$

Kiritilgan joriy belgilangan daromad solig`i joriy etish natijalarini baholash uchun kerakli modelni yozishga imkon beradi.

$$\lambda = (\beta_1 \dots \beta_n) \rightarrow \max \quad (1.17)$$

$$\lambda = (\beta_1 \dots \beta_n) \rightarrow \min \quad (1.18)$$

$$\beta_1 \leq \beta_1^*, i = 1, \dots, n \quad (1.19)$$

Bu yerda, β_1^* – model cheklovlari sifatida hisobga olinadigan daromad solig`i progressiv shkalaning maksimal ruxsat etilgan stavkalari. Qoida tariqasida bu stavkalar bo‘yicha rasmiy cheklovlar yo‘q, ammo ularning oqilona qiymatlari haqida empirik dalillar mavjud. Mezon (1.17) ni ekvivalent bilan almashtirish mumkin⁶⁵:

$$\Delta F(\beta_1 \dots \beta_n) \rightarrow \max \quad (1.20)$$

Ushbu shaklda modelning ikkala mezonlari bir tomonlama bo‘lib chiqadi, ya’ni maksimallashtirilgan. Turli ssenariylarni solishtirish uchun (1.17) va (1.20) mezonlarni ζ i 1– ζ vagn koeffitsientlarini kiritish orqali bittasiga jamlash mumkin:

$$\zeta F \lambda + (1 - \zeta) | \Delta F | \rightarrow \max \quad (1.21)$$

$$\beta_1 \leq \beta_1^*, i = 1, \dots, n \quad (1.22)$$

Qurilgan model o‘z shakli bo‘yicha optimallashtirilgan hisoblanadi, ammo, progressiv soliq stavkasi stavkalarida aniq cheklovlar yo‘qligi sababli, u soliq islohotining turli variantlarini baholash imkonini beruvchi simulyatsiya modeliga aylantiriladi. Progressiv shkalani joriy qilish ssenariylarini proporsional shkalani o‘zgartirish ssenariysi bilan solishtirish uchun formuladan foydalangan holda ikkinchi holat uchun soliq yig`imlarini hisoblash kifoya hisoblanadi:

$$T_1 = \alpha^* D - V^* \quad (1.23)$$

Bu yerda, α^* – daromad solig`ining o‘zgartirilgan proporsional stavkasi.

Yuqoridagi formulalar turli progressiv soliqqa tortish shkalalari va proporsional shkalaning oddiy o‘zgarishi ssenariylari bilan ijtimoiy va fiskal natijalarini iloji boricha aniqroq baholash imkonini beradi. Soliq ta`sirining barcha makroiqtisodiy baholari, qoida tariqasida, juda shartli va yuqori aniqlikka da`vo qilmaydi. Biroq olib borilgan hisob – kitoblarni turli masshtablar-proporsional va progressiv soliqqa tortishning solishtirma ta`sirlarini aniqlashtirish uchun iloji boricha aniqroq amalga oshirishdir. Umuman olganda olib borilgan nazariy va empirik tahlil natijalariga ko`ra aholi daromadlarini proporsional stavkada soliqqa

⁶⁵Балатский В., Екимова Н.А. Сравнительные характеристики прогрессивной и плоской шкалы подоходного налога. JOURNAL OF INSTITUTIONAL STUDIES Vol. 10, no. 3. 2018. S.110.

tortish davlat byudjetini to`ldirish va daromadlar tengsizligi bilan bog`liq muammolarini hal qilmaydi.

I bob bo'yicha xulosa

Aholining daromadlari iqtisodiy kategoriya sifatida jamiyatda uy xo'jaliklari yoki shaxslar o'rtasida yaratilgan mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash, iste'mol qilish jarayonidagi real iqtisodiy munosabatlarini aks ettiradi. Optimal soliqqa tortishning standart nazariyasiga asosan, soliq solish tartibi mavjud cheklovlar inobatga olingan ijtimoiy faravonlik funksiyasini o'sishini maksimal darajada ta'minlashi lozim.

Soliqqa tortishning asosiy samarasining biri "daromad samarasi" bo'lib, soliqlar o'z mohiyatiga ko'ra jismoniy shaxslar daromadlarini qayta taqsimlash orqali bir qismini olib qo'yishi, o'z navbatida soliq to'langanidan keyingi jismoniy shaxsning tasarrufida real daromad miqdoriga (jumladan, iste'mol va jamg'arish normasiga) ta'sir ko'rsatadi.

Soliq qonunchiligida barcha faoliyatdan olingan daromadlar soliqqa tortilmaydi va hatto soliqqa tortiladigan faoliyatlar bo'yicha jismoniy shaxslarning daromadi turli xil stavkada soliqqa tortilishi mumkin va bu soliqqa tortishning ikkinchi fundamental ta'sirini soliqqa tortiladigan faoliyatni soliqqa tortilmaydigan faoliyat turlari bilan almashtirishda ifodalanadigan "almashtirish samarasi"dir.

Soliq summalarini hisoblashda "nominal stavka" va "haqiqiy stavka" kabi tushunchalarning mavjudligini istisno qilib bo'lmaydi, ya'ni "nominal stavka" umumbelgilangan soliq stavkasini anglatasa, haqiqiy stavka esa soliq chegirmalari hamda soliq imtiyozlari hisobga olingan holda korrektyrovka qilingan va daromad miqdoriga qarab differensiyalashgan soliq stavkalarini anglatadi. Boshqa teng sharoitlarda (byudjet daromadlarining ma'lum miqdori uchun), soliqqa tortilmaydigan minimal daromadni oshirish marjinal soliq stavkasini ko'tarish bilan birga amalga oshirish kerak.

Nazariy va empirik tadqiqotlar natijalarini umumlashtirgan holda sezilarsiz ijobiy foiz egiluvchanligi soliq siyosati korporativ va jismoniy shaxslar daromad solig'i integratsiyasi yoki kapitaldan daromadga soliqni kamayishini anglatuvchi iste'mol soliqlariga o'tish, jamg'armani, ishlab chiqarishning kapital zichligini, daromad va farovonlikni oshiradi hamda keyinchalik yalpi daromadni kapitaldan mehnatga o'tkazishga olib keladi degan xulosaga kelish mumkin.

Shu bilan birga, kapitaldan daromadga soliq solishning amaldagi tartibi iste'mol va jamg'arish o'rtasidagi tanlovning buzilishi tufayli farovonlikning yo'qotilishiga olib keladi va foizli daromadga soliqlarni kamaytirish uzoq muddatli istiqboda daromadlar darajasini oshiradi hamda kapitalning yalpi daromadning asosiy qismini mehnatga o'tkazadi.

Jismoniy shaxslar daromadiga soliq solish tizimining muhim elementlari sifatida soliq olinmaydigan daromad summasi va ijtimoiy yoki investitsion xarajatlarga soliq chegirmalari hisoblanadi. Iqtisodchi olimlarning fikricha, aholi iste'mol talabi hajmining yetarli bo'lmagan (asosiy qism aholining pul daromadlari faqat birlamchi ehtiyojlarini qondirishi), yuqori darajadagi daromad tengsizligi sharoitida daromadga mutanosib stavkada soliq solinishi jamiyatda ijtimoiy tengsizlik va qarama-qarshiliklarning keskinlashuviga sabab bo'lishi mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida progressiv soliq shkalalaridan foydalanishning jahon mamlakatlaridagi tengsizlik darajasiga ijobiy ta'sirini aniq qayd etish mumkin, ammo aholi qatlamining o'rta sinfini shakllantirish sharoitida progressiv soliqqa tortish samaradorligi minimallashtiriladi. Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar, aholi daromadi tengsizligi yoki turmush darajasi yetarli darajada yuqori bo'lgan sharoitlarda progressiv stavkada soliq solish tavsiya qilinadi. Aynan shu holatda progressiv soliq stavkalarini qo'llanishi daromadlarning adolatli qayta taqsimlanishiga va bir vaqtning o'zida tengsizlikni qisqartiradi.

Soliq ta'sirining barcha makroiqtisodiy baholari, qoida tariqasida, juda shartli va yuqori aniqlikka da'vo qilmaydi. Biroq olib borilgan hisob – kitoblarni turli masshtablar-proporsional va progressiv soliqqa tortishning solishtirma ta'sirlarini aniqlashtirish uchun iloji boricha aniqroq amalga oshirishdir. Umuman olganda, aholi daromadlarini proporsional stavkada soliqqa tortish davlat byudjetini to'ldirish va daromadlar tengsizligi bilan bog'liq muammolarini hal qilmaydi.

II-BOB. JISMONIY SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISHNING TAHLILI VA SOLIQ STAVKASI TA'SIRINI BAHOLASH

2.1.Jismoniy shaxslarni progressiv stavkada soliqqa tortishni modellashtirish

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, soliq islohotlarining amalga oshirishda asosiy muammolaridan biri bo'lib, samarali soliq stavkalari tanlovini asoslash hisoblanadi. Progressiv va regressiv soliq stavkalaridan foydalanganda bu muammo ancha murakkablashadi, chunki proporsional stavkadagi soliqdan farqli o'laroq, bu holda bitta emas, balki bir nechta chegaraviy stavkalarni tanlashni asoslash lozim⁶⁶.

2.1-jadval

Aholining umumiy daromadlari miqdori va uning tarkibi⁶⁷


Ko'rsatkichlar	2017y.	2018y.	2019y.	2020y.	2021y
Aholi umumiy daromadi (trln.so`m)	236,9	300,8	365,7	415,1	515,7
Aholi real umumiy daromadi (trln.so`m)	216,4	256,0	319,3	367,6	465,3
Aholi jon boshiga umumiy daromad (mln.so`m)	7,3	9,1	10,9	12,1	14,8
Aholi jon boshiga real umumiy daromad (mln.so`m)	6,7	7,8	9,5	10,7	13,3
Aholi daromadlarini tarkibi (%da)	100	100	100	100	100
Ish haqi ko`rinishdagi daromadlar	68,8	71,1	69,1	69,3	71,5
Transfertlardan olingan daromadlar	24,8	23,5	25,3	25,5	26,4
Mol-mulkdan olingan daromadlar	4,2	3,5	3,5	3,0	2,2
Shaxsiy iste`mol uchun o`ziga ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromad	2,2	1,8	2,1	2,2	4,3

Jumladan, Rossiyada shaxsiy daromad solig`ining proporsional qo'llanilganidan keyin o'n yil o'tgach, 1990-yildan 2000-yilgacha qo'llanilgan ushbu soliqning progressiv shakliga qaytish masalasi tobora ko'proq muhokama qilinmoqda. Daromad solig'i shkalasining yuqoridagi parametrlarini tanlashni asoslash muammosining dolzarbligi Mirrlees ilmiy ishlarida mavjud bo'lgan optimal daromad solig'i nazariyasining mavjudligi bilan bog'liq bo'lib, bunda

⁶⁶Смирнов Р.О. Моделирование выбора параметров шкалы подоходного налога. Вестник Санкт-Петербургского университета. ЭКОНОМИКА.№4, 2011.С.141.

⁶⁷<https://www.stat.uz>.

daromad solig'i shkalasi progressiyaning optimal darajasi haqidagi savolga ham, marjinal stavkalarining o'lchamlari va ularni qo'llash diapazonlari haqidagi savolga ham to'liq javob bermaydi⁶⁸.



- Mehnat faoliyatidan daromadlar
- Mol-mulkdan olingan va boshqa daromadlar
- Transfertlardan olingan daromadlar

2.1-rasm. Hududlar kesimida aholi jami daromadining tarkibi⁶⁹, 2020 y.,%da

Xususan, 2021-yilda respublika aholisining umumiy daromadlari 515,7 trln. so'mni, aholi jon boshiga bo'lgan daromad 14,8 mln. so'mni, real daromad esa 13,3 mln. so'mni tashkil etgan. Aholining umumiy daromadlari tarkibida 71,5 % ulushga ega bo'lgan mehnat faoliyatidan olingan daromadlar va 26,4 % ni tashkil

⁶⁸Mirrlees J. A. An Exploration in the Theory of Optimum Income Taxation // Review of Economic Studies. 1971. N 38. P. 175–208.

⁶⁹<https://www.stat.uz>.

etuvchi transfertlarning ulushi yuqoridir (2.1-jadval). Hududlar kesimida ham aholining umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlar 62,5-83,1 % oraliqda ulushga ega bo`lib, transfertlardan olingan daromadlarning ulushi esa 13,1-33,9% oraliqni tashkil etadi (2.1-rasm).

Bugungi kunda Qoraqalpog‘iston Respublikasi shahar va tumanlari kesimida aholining umumiy daromadlarida ish haqi ko`rinishidagi daromadlar 60,1 %ni, mol-mulkdan olingan daromadlar daromadlar 0,9%, transfertlar 32,9%ni va boshqa daromadlar 6,1%ni tashkil etgan (2.2-jadval).

2.2-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholining umumiy daromadlari miqdori va uning tarkibi⁷⁰, %da

Ko`rsatkichlar	2017y.	2018y.	2019y.	2020y.	2021y
Aholi umumiy daromadi (mlrd.so`m)	8946,9	11942,9	15329,4	18034,8	22055,2
Aholi real umumiy daromadi (mlrd.so`m)	8229,3	10134,0	13531,2	15989,7	20046,6
Aholi jon boshiga umumiy daromad (mln.so`m)	5,2	6,8	8,1	9,4	11,4
Aholi jon boshiga real umumiy daromad (mln.so`m)	4,8	5,8	7,2	8,4	10,4
Aholi daromadlarini tarkibi (%da)	100	100	100	100	100
shundan					
Ish haqi ko`rinishdagi daromadlar	65,4	64,5	64,3	61,2	60,1
Transfertilardan olingan daromadlar	24,1	25,9	27,7	31,2	32,9
Mol-mulkdan olingan daromadlar	0,9	1,0	1,0	0,7	0,9
Shaxsiy iste`mol uchun o`ziga ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromad	9,6	8,6	7,1	6,8	6,1

Aholi daromadlarini tarkibida ish haqi ko`rinishdagi daromadlar, shu jumladan, tadbirkorlikdan olingan daromad ulushini yuqoriligidan kelib chiqadigan bo`lsak, jismoniy shaxslar daromadlariga soliq solishda fiskal va tartibga solish nuqtai nazaridan progressiv soliq stavkalarini qo`llanishi optimal hisoblanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjet daromadlarida jismoniy shaxslar to`laydigan soliqlarning ulushi 2017-2021 yillar davrida taxminan 2 baravarga o`sgan bo`lib, 45,5 %ni tashkil etgan. Jismoniy shaxslar tomonidan to`lanadigan soliqlar tarkibida ish haqidan daromad solig`i va boshqa soliq va yig`imlarning

⁷⁰Statistika ma`lumotlari asosida dissertant tomonidan tuzilgan.

ulushi yuqori bo'lsada, yer solig'i va mol-mulk soliqlarida ham o'sish tendentsiyasi kuzatilgan. Bundan tashqari, mulkiy daromadga solinadigan soliq stavkasini o'zgartirilishi (dividendlar va foizlarga soliq stavkasi 10%dan 5 %ga pasaytirilishi) tushumlarning nisbatan kamayishiga olib kelgan (2.3-jadval).

2.3-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjet daromadlarida jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarning miqdori va ulushi⁷¹

Soliqlar	2017y.	2018y.	2019y.	2020y.	2021y
Byudjetda jami soliq tushumlari (mlrd.so'm)	1289.6	2376.8	3167.1	1829.7	1789.7
Jismoniy shaxslardan undirilgan jami soliqlar (mlrd.so'm)	298.9	416.9	727.2	708.4	814.3
<i>shundan</i>					
<i>ish haqidan daromad solig'i</i>	202.8	294.6	581.7	553.0	614.4
<i>YaTT to'langan soliq</i>	45.0	44.4	28.0	12.4	16.9
<i>mulkiy daromaddan soliq</i>	2.4	3.3	10.1	10.7	7.7
<i>er solig'i</i>	28.9	47.9	71.3	102.6	138.7
<i>mol-mulk solig'i</i>	19.8	26.7	36.1	29.7	36.6
Byudjet soliq tushumlarida jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarning ulushi	23.2	17.5	23.0	38.7	45.5
<i>shundan</i>					
<i>ish haqidan daromad solig'i</i>	15.7	12.4	18.4	30.2	34.3
<i>YaTT to'langan soliq</i>	3.5	1.9	0.9	0.7	0.9
<i>mulkiy daromaddan soliq</i>	0.2	0.1	0.3	0.6	0.4
<i>er solig'i</i>	2.2	2.0	2.3	5.6	7.7
<i>mol-mulk solig'i</i>	1.5	1.1	1.1	1.6	2.0

Umumiy qilib ayganda, jismoniy shaxslar daromad solig'ining hududlar byudjetiga to'liq o'tkazilishi va soliq qonunchiligidagi kiritilgan o'zgarishlar, xususan, tadbirkorlik faoliyati amalga oshiruvchi jismoniy shaxslarga aylanmadan soliq va QQSni tatbiq qilinishi byudjet soliq tushumlaridagi ulushini ortishiga olib kelgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasining shahar va tumanlari kesimida mahalliy byudjetlar daromadida jismoniy shaxslardan undirilgan soliqlar ulushining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, aksariyat tuman va shahar byudjetlarida jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar asosiy daromad manbasini bo'lib, ushbu soliqlarning ulushi o'rtacha 46 %ni tashkil qiladi. Jumladan, Kegeyli, Ellikqal'a, Mo'ynoq, Kungrod

⁷¹Soliq ma'lumotlari asosida dissertant tomonidan tuzilgan.

va Shumanay mahalliy byudjetlari daromadida jismoniy shaxslarning soliq tushumlarining ulushi 50%dan yuqoridir (2.4-jadval).

2.4-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasi mahalliy byudjetlari daromadida jismoniy shaxslar to‘laydigan soliqlarning ulushi⁷²,2017-2021 yy.,%da

Shahar va tumanlar	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Nukus sh.	18.1	12.3	16.6	55.3	44.0
Amudaryo t.	39.3	40.6	35.5	48.1	48.8
Beruniy t.	32.3	31.1	37.9	43.5	37.4
Bo‘zatov t.	-	-	-	44.6	41.4
Kegeyli t.	32.0	36.5	34.3	44.3	64.4
Qo‘ng‘irod t.	22.3	14.4	21.1	44.0	52.3
Qanliko‘l t.	33.7	30.0	32.4	44.1	42.7
Mo‘ynoq t.	16.2	7.0	24.3	7.5	53.1
Nukus t.	12.7	14.6	33.2	42.7	29.6
Taxtako‘pir t.	51.3	41.5	49.6	42.7	49.5
To‘rtko‘l t.	39.3	35.3	33.6	43.3	46.4
Xojayli t.	21.8	31.5	18.6	51.2	40.3
Chimboy t.	41.0	37.0	42.5	49.4	48.4
Shumanay t.	47.1	50.7	40.7	50.9	51.3
Ellikqal‘a t.	37.0	39.0	40.7	54.5	54.3
Qorao‘zak t.	36.5	32.7	31.7	29.4	49.9
Taxiatosh	28.0	23.0	29.3	52.3	34.1

Barchaga ma‘lumki, soliq kodeksining 419-moddasiga asosan jismoniy shaxslarning mol-mulkini soliqqa tortishda uy-joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari va boshqa ko‘chmas mulklari soliqqa tortish obyektini hisoblanib, mol-mulk obyektlarining kadastr qiymati soliq bazasi hisoblanadi. Agarda mol-mulk qiymati bahosi mavjud bo‘lmaganda, belgilangan soliq bazasi 42 mln.so‘mning Toshkent shahri, viloyat markazlarida 5 baravari miqdorida; boshqa shaharlarda va qishloq joylarda esa 2 baravari miqdorida shartli qiymat qabul qilingan. Jismoniy shaxslarning yer uchastkalari, boshqa maqsadlarda berilgan va sotib olingan yer maydonlari soliq bazasi hisoblanib, hududlar kesimida bazaviy stavkalariga nisbatan tuzatish koeffitsientlari qo‘llanilgan holda soliq summasi hisoblanadi⁷³.


⁷²Soliq ma‘lumotlari asosida dissertant tomonidan tuzilgan.

⁷³O‘zbekiston Respublikasining soliq kodeksi (yangi tahrir). <https://lex.uz/docs/4674902>.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida jismoniy shaxslar to‘laydigan yer va mol-mulk soliqlarning tahlili⁷⁴.

Yillar	Mol-mulk solig‘i (mlrd.so‘m)			yer solig‘i		
	Mol-mulkning umumiy qiymati	Soliq bazasi	Soliq summasi	yer maydoni ming. ga	Soliq solingan er maydoni, ming.ga	Soliq summasi (mlrd.so‘m)
2017	674.7	449.7	16.4	30.4	27.3	21.8
2018	16 688.9	14 734.6	19.7	65.3	61.2	25.1
2019	14 586.5	13 922.3	29.7	87.4	85.0	55.3
2020	15 083.5	13 305.8	32.1	86.5	82.5	115.7
2021	17 229.3	15 211.9	40.5	88.9	84.6	147.5

Qoraqalpog‘iston Respublikasida mol-mulk kadastr qiymati soliq bazasi sifatida olinishi, yer solig‘i bazasini kengaytirish hamda stavkalarni oshirish hisobiga soliq tushumlari o‘shish tendensiyasini kuzatish mumkin (2.5-jadval)




**2.2-rasm. Hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga umumiy daromad⁷⁵,
ming so‘mda**

⁷⁴Soliq ma‘lumotlari asosida dissertant tomonidan tuzilgan.

⁷⁵<https://www.stat.uz>.


Hududlar kesimida ko`rib chiqadigan bo`lsak, aholi jon boshiga umumiy daromad bo`yicha aksariyat hududlar respublika o`rtacha ko`rsatkichidan past ko`rsatkichga ega bo`lib, hududlar bo`yicha aholi jon boshiga umumiy daromad taqsimoti darajasida keskin farqlanishni kuzatish mumkin (2.2-rasm).



2.3-rasm. Tarmoqlar bo'yicha hisoblangan o`rtacha nominal oylik ish haqi⁷⁶, so`mda

Agarda tarmoqlar kesimida hisoblangan o`rtacha nominal oylik ish haqi miqdorida ham keskin farqlanishlar mavjud bo`lib, asosiy ishlab chiqarish tarmoqlari va ijtimoiy sohada ish haqi miqdorini pastligini ko`rish mumkin (2.3-rasm). Statistik ma`lumotlarga ko`ra 2021 yilda mehnat resurslari va band aholining 68,2 % aholi jon boshiga umumiy daromadi bo`yicha respublika o`rtacha ko`rsatkichidan past bo`lgan hududlarda yashovchi aholi hisoblanadi (2.4-rasm). Bundan tashqari, tarmoqlar kesimida ko`rib chiqadigan bo`lsak o`rtacha nominal oylik ish haqi respublika ko`rsatkichidan past bo`lgan sohalarda (qishloq xo`jaligi, savdo, ijtimoiy sohalar) ishlovchilar soni umumiy band bo`lgan aholining 50%dan ortig`ini, jumladan, qishloq xo`jaligida 25,9%ni, ijtimoiy sohada (ta`lim va sog`liqni saqlashda) 13,6%ni tashkil etgan.

⁷⁶<https://www.stat.uz>.



2.4-rasm. Hududlari bo'yicha mehnat resurslari va aholi bandligi taqsimoti⁷⁷, %da

Amaldagi jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimidagi yagona stavkada soliq solinishi byudjet daromadlari bazasini shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, bundan tashqari, aholi daromadlaridagi nomutanosiblik kamaytirishda samarasiz fiskal instrument hisoblanadi. O'rtacha (samarali) daromad solig'i stavkalarining progressiv shkalasi (o'rtacha (samarali) stavka soliq summasining soliq solinadigan bazaga xususan, jismoniy shaxsning umumiy daromadiga nisbati hisoblanadi) $y = y(x) \in (0,1)$, $x \in (0,+\infty)$ mutlaq uzluksiz funksiya sifatida modellashtiriladi, u deyarli hamma joyda berilgan $[x_-, x_+]$ oraliqda differentsial tengsizliklarni qanoatlantiradi⁷⁸:

$$0 < \frac{dy}{dx} < \frac{1-y}{x} \quad (2.1)$$

va har bir intervalda doimiydir $(0, x_-]$ va $[x_+, +\infty)$, ya'ni

$$y(x) = 0, \forall x \in (0, x_-], y(x) = y_+, \forall x \in [x_+, +\infty) \quad (2.2, 2.3)$$

Bu yerda, x_- –jismoniy shaxslarning umumiy daromadi, x_+ –soliqqa tortilmaydigan minimal daromad, x_+ –daromadning chegaraviy darajasi, qaysiki y_+ maksimal o'rtacha stavkada soliq undiriladi. Modelda $y \in (0,1)$, $x \in (0,1)$ sohasida

⁷⁷<https://www.stat.uz>.

⁷⁸Smirnov R.O. Modelirovaniye vibora parametrov shkali podoxodnogo naloga. Vestnik Sankt-Peterburgskogo universiteta. ekonomika.№4, 2011.S.142.

differentsial tengsizliklar sistemasining barcha mutlaq uzluksiz echimlari to'plami (1) differentsial tenglamalarning parametrik oilasi echimlari to'plamiga mos keladi⁷⁹:

$$\frac{dy}{dx} = \frac{1-y}{x} \quad (2.4)$$

Lebeg funksiyalari bo'yicha barcha mumkin bo'lgan o'lchovlarga mos keladi:

$$u = u(x) \in (0,1) \quad (2.5)$$

Soliqlarning eng muhim funksiyalaridan biri fiskal funksiya bo'lganligi sababli, daromad solig'i shkalasini tanlashning optimallik mezoni davlat byudjetiga soliq tushumlarining umumiy hajmini tavsiflovchi funksiyalarni maksimal darajada oshirish muammosi hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, $[x_0, x_+]$ intervali o'rta sinfnining daromadlari diapazonini belgilaydi. Bunday holatda $[x_-, x_0]$ yarim intervali past daromadli jismoniy shaxslarning daromadlari diapazonini, $[x_+, +\infty]$ intervali esa aholi boy qatlami daromadlari diapazonini ko'rsatadi. O'rta sinfnining daromadlari chegaralarini yashash minimumiga mutanosib ravishda tanlash eng oqilona ko'rinadi, bu aholi turmush darajasini aniqlashdagi tadqiqot markazlarining yondashuviga mos keladi⁸⁰. Hisoblashda o'rta guruhdagi aholi daromadining quyi chegarasi 5 baravar miqdordagi yashash minimumi va eng yuqori chegarasi sifatida esa 20 baravar miqdordagi yashash minimumi miqdoridagi summa, ya'ni $x_- = 5x_-, x_+ = 20x_-$.

Shunday qilib, marjinal daromad solig'i stavkalarining progressiv shkalasi parametrlarining eksperimental hisob-kitoblarini o'tkazishda diapazon chegaralarining quyidagi qiymatlari hisobga olingan.

$$a_0 = x_-, a_1 = x_0 = 5x_-, a_2 = 10x_-, a_3 = 15x_-, a_4 = x_+ = 20x_-.$$

Ishlab chiqilgan metodologiyaga muvofiq (Smirnov, 2011) ushbu parametrlarni quyidagicha tanlash taklif etiladi. Soliq solinmaydigan eng kam daromad x-jahon soliq amaliyotiga mos keladigan yashash minimumiga teng

⁷⁹Filippov A. F. Differentsialnie uravneniya s razrivnoy pravoy chastyu. M., 1985. <http://www.mathnet.ru/php/archive>.

⁸⁰Neravenstvo doxodov i ekonomicheskii rost: strategii vixoda iz krizisa. Pod redaksiyey A. Buzgalina, R. Traub-Merts, M. Voeykova. M: Kul'turnaya revolyutsiya, 2014. – 406 s.

bo'lishi taklif qilingan. Progressiv soliq soliq to'lovchining umumiy yillik daromadiga solinganligi sababli, oylik minimal 12 oyga ko'paytirilib olingan.

Taqdim etilgan eksperimental hisob-kitoblar illyustrativ bo'lib o'rganilayotgan yondashuvning imkoniyatlarini ko'rsatishga mo'ljallangan. O'rtacha daromad solig'i stavkalarining optimal shkalasi parametrlarini o'zgartirganda, marjinal soliq stavkalari shkalasining hisoblangan parametrlari ham o'zgarishi aniq. Yana bir marotaba ta'kidlab o'tamizki, progressiv stavkada soliq solishda shkalaning oxirgi diapazonidagi 25%ga teng marjinal stavkada mazkur diapazondagi jismoniy shaxsning umumiy x daromadi soliqqa tortiladi⁸¹ (2.7-jadval).

2.7-jadval

Progressiv daromad solig'i shkalasi (BHM 300000).

diapazon chegaralari, a_i , so'm	Marjinal soliq stavkasi η_i , %
$0 < x \leq 3600000$	0
$3600000 < x \leq 18000000$	16
$18000000 < x \leq 36000000$	27
$36000000 < x \leq 54000000$	29
$54000000 < x \leq 4\ 111\ 200$	32
$x > 72000000$	25

Jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan barcha soliqlarga nisbatan progressiv soliq shkalasi belgilanishi zarur, chunki ushbu diapazonlarning chegaralari fiskal va qayta taqsimlashdagi samarali soliq stavkalarini o'rnatilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqa tomondan, soliq shkalalarining tegishli diapazonlaridan kelib chiqib proporsional stavkalarda jismoniy shaxslarni soliqqa tortish taklifi daromad solig'i tizimida teng soliq yuki tamoyilini ta'minlash imkon berishi mumkin. O'rganilayotgan yondashuv doirasida olingan natijalar marjinal daromad solig'i stavkalarini va soliq shkalasi chegaralarini to'g'ridan to'g'ri tanlash muammosi doirasida o'rtacha daromad solig'i stavkalarining optimal modeli shkalasining beshta parametrini tanlash masalasi asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda berilgan parametrlar miqdori nisbatan raqamdan

⁸¹Smirnov R.O.2016. Modelirovanie vybora progressivnoy shkalы podoxodnogo naloga. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=27451951>

kichikroq marjinal daromad solig`i stavkalarining progressiv shkalasi parametrlari ikki diapazondan ortiq bo`lgan taqdirda ($2n > 5$ $n > 2$ diapozonlar soni)⁸².


Yuqorida keltirib o`tilgan tahlillar asosida olingan natijalaridan kelib chiqib shuni ta`kidlab o`tish joizki, ma`lum bir soliqlarning fiskal “samaradorligi” turli omillar ta`sirida tegishli davrlar mobaynidan turli darajada bo`lishi tabiiy holat hisoblanib, bunga quyidagilarni ko`rsatib o`tish mumkin: soliq stavkalari va soliq solishning boshqa elementlarini o`zgartirish hamda mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishidagi holati (o`sinh, turg`unlik yoki pasayish). Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish, xususan, daromad solig`i o`tgan davr davomida o`zining yuqori fiskal “samaradorligi”ga erishishi kerak edi. Shu bilan birga, progressiv stavkadagi daromad solig`i tizimida proporsional soliq tortishga nisbatan byudjetga daromadlar tushumi kamroq bo`lishi mumkinligi to`g`risida obyektiv dalil mavjud emas. So`nggi yillarda jismoniy shaxslar daromad solig`i tushumlaridagi o`sinh dinamikasi asosan jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishdagi o`zgarishlar, ish haqi va iqtisodiyotning yuqori rivojlanish sur`atlari bilan bevosita bog`liq bo`lgan boshqa daromad turlarining obyektiv o`sishi bilan bog`liqdir. Barcha rivojlangan va tez rivojlanayotgan mamlakatlarda (masalan, Xitoy), daromadlarga soliq solishda nafaqat stavkalarining progressiv shkalasi, balki soliq solinmaydigan minimal miqdori (yashash minimumidan yuqori) ham qo`llaniladi. Ko`pchilik iqtisodchi olimlarning ta`kidlashicha, iqtisodiyoti rivojlangan va yuqori daromadli rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan solishtirib ko`rilganda, aksariyat o`rta va kam daromadli davlatlarda jismoniy shaxslar daromadi strukturasi va miqdori keskin farqlanishni kuzatish mumkin. Buning sabablaridan biri sifatida balki amaldagi jismoniy shaxslar daromadini proporsional stavkada soliqqa tortish tizimidir. Barchaga ma`lumki, soliq tizimi va jismoniy shaxslar soliqlarining samaradorligi tushunchasini soliq tushumlari hajmi va ushbu soliqlar ma`murchiligi xarajatlari o`rtasidagi nisbatga bog`lash juda noto`g`ridir. Umuman olganda jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimi, agar aholi daromadlar tengsizligi darajasini

⁸²Smirnov R.O.2016. Modelirovaniye vyboru progressivnoy shkali podoxodnogo naloga. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=27451951>

kamaytirishga va milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga to'siq bo'lmagan holda samarali deb hisoblanishi mumkin⁸³.

2.2. Jismoniy shaxslarni proporsional va progressiv stavkalarda soliqqa tortishda xorij tajribasi

Jismoniy shaxslarning daromad solig'i ham iqtisodiyotni tartibga solishdagi muhim fiskal instrument sifatida qarash mumkin bo'lib, davlat mazkur soliq orqali bir tomondan, aholining real daromadlari va daromadlar tengsizligi darajasiga ta'sir etsa, ikkinchi tomondan, byudjetning daromad qismini shakllantiradi. Barcha rivojlangan mamlakatlarda daromad solig'ini undirishning maqsadlari va asosiy tamoyillari o'xshash, ammo farqlari ham mavjud.



2.5-rasm. Mamlakatlardagi jismoniy shaxslar daromad solig'i tizimlari⁸⁴

Turli mamlakatlarda jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortish tizimini ko'rib chiqishda dunyodagi mamlakatlarda proporsional va progressiv soliq stavkalari qo'llanishini hamda daromad solig'i mavjud bo'lmagan mamlakatlarni ajratib ko'rsatish mumkin (2.5-rasm). Rossiyada va boshqa bir qator Sharqiy

⁸³Tixomirov R. O. 2019. Progressivnoe nalogooblojeniye kak instrument regulirovaniya neravenstva v raspredelenii doxodov. Vestsi BDPU. Seriya 2. № 1. S. 85–92. <https://www.elibrary.ru>.

⁸⁴<http://worldtaxes.ru/nalogi-v-mire>.

Yevropa mamlakatlarida proporsional soliq stavkasi mavjud. Ya`ni har qanday miqdordagi daromadga bir xilda soliq stavkasi qo`llaniladi. Rossiya va Belorussiyada - 13%, Litvada - 20%, Ukrainada - 18%. Qozog`istonda soliq stavkasi eng past 10% ni tashkil qiladi.


2.6-jadval

Mamlakatlarda 2020-yildagi daromad solig`i stavkalarining qiyosiy tahlili⁸⁵

Mamlakatlar	Soliq stavkasi, %	Izohlar
Belorus	13	davlat nafaqalari, pensiya, meros ozod qilingan
Rossiya	13	davlat nafaqalari, pensiya, kompensatsiya to`lovlari, aliment, mukofot, meros hadyalar ozod qilingan.
Buyuk Britaniya	20–45%	37500 GBPgacha – 20%; 37501–150000 GBP – 40% 150000 GBP dan yuqori – 45%
Vengriya	15%	shu jumladan, dividendlar va bank omonatlaridan olinadigan daromadlar
Chexiya	15%	bandlik va tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar uchun-7%
Germaniya	14–45%	9407 EUR – 0%;9408–14532 EUR – 14–24%; 14533–57051 EUR – 24–42%; 57052–270 500 EUR – 42%; 270 500 EUR – 45%
Ispaniya	19–45%	12450 EURgacha – 9,5%; 20200 EURgacha – 12,0%; 35200 EURgacha – 15,0%; 60000 EURgacha – 18,5%; 60000 EURdan yuqori – 22,5%. Mulkiy daromaddan soliq ham progressiv stavkada (19-21-23%)
Italiya	23–43%	15000 EURgacha – 23%; 15000–28000 EURgacha – 27%; 28001–55000 EURgacha – 38%; 55001–75000 EURgacha – 41%; 75001 EUR yuqori – 43%. hududiy soliqlar (mintaqaga qarab 0,70 dan 3,33% gacha) va (0,0 dan 0,9%ga stavkada) munitsipal soliqlar qo`shiladi.
Xitoy	3-45%	yillik daromal 36000 yuangacha – 3%;36000dan 144000yungacha – 10%; 144000dan 300000 gacha– 20%; 300000dan 420000 gacha– 25%; 420000dan 660000gacha – 30%;600000dan 960000gacha – 35%; 960000dan yuqori– 45%. Oylik asosiy soliq chegirmasi 5000 yuan.

⁸⁵<https://ultramodern-home.ru/2020/10/nalogi-dlya-fizicheskix-lic-v-stranax-evropy-v-2020-godu>.

Biroq yuqori daromadli va ko'pchilik o'rtacha daromadli davlatlarda soliq tizimida jismoniy shaxslarning daromadi progressiv shkalada soliqqa tortiladi, bunda yuqori daromadga ega bo'lgan aholining boy qatlamlari yuqori stavkalarda soliq to'lashlarini bildiradi. Belorussiya, Rossiya va ayrim Yevropa mamlakatlari va Xitoyda jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortish stavkalarini qiyosiy tahlili amalga oshirilgan (2.6-jadval).



2.6-rasm. AQShda uy xo'jaliklari daromadlarining taqsimoti foizda, 2006-2020 yy⁸⁶.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, eng kam daromadli guruhdagi oilalar (10000 dollardan kam) daromadlarining bir qismi sifatida foizdan ko'proq soliq to'laydilar. Jumladan, 2020-yilda AQShdagi uy xo'jaliklarining taxminan 11,6 foizini yillik daromadi 35000dan 49999 AQSh dollargacha bo'lib, 2020-yilda 50000dan 74999 AQSh dollargacha bo'lgan daromad darajasi aholining eng katta ulushini 16,5 foizni tashkil etgan (2.6-rasm).

Fikrimizcha, soliq solishning fiskal va tartibga soluvchi funksiyalarini nazarda tutadigan bo'lsak, progressiv stavkada soliqqa tortish va soliq

⁸⁶<https://www.statista.com/statistics/758502/percentage-distribution-of-household-income-in-the-us>.

solinmaydigan minimum daromad summasini belgilanishi byudjet daromadlarini oshirishda hamda daromadlar tengsizligi darajasini pasaytirishda samarali hisoblanishi mumkin. Ta`kidlash joizki, AQShda federal daromad solig`i tizimida soliqqa tortilmaydigan minimal daromad miqdori mavjud bo`lib, uning miqdori bir qator omillarga bog`liq, xususan, oilaviy ahvol, yosh va deklaratsiyani to`ldirish usuli (turush o`rtog`i bilan birgalikda yoki alohida). Masalan, 65 yoshgacha bo`lgan yolg`iz fuqarolar uchun 7000 AQSh dollari, agar er-xotinning ikkalasi ham yosh bo`lsa, 13000 AQSh dollari, agar ulardan biri 65 yoshga to`lgan bo`lsa, 14000 AQSh dollarida soliq solinmaydigan daromad miqdori belgilangan. Frantsiyada esa soliq solinmaydigan minimal daromad miqdori yiliga 6011 € ni tashkil etadi. Germaniyada yiliga 9168 € dan kam ish haqi daromad solig`iga tortilmaydi. Bu miqdor soliqsiz minimal deb ataladi. Agarda fiskal nuqtai nazardan oladigan bo`lsak, jadval ma`lumotlaridan ko`rinib turibdiki, OECD tarkibiga kiruvchi mamlakatlar byudjet daromadlarida jismoniy shaxslar to`laydigan daromad solig`i ulushi yuqori hisoblanadi (2.7-jadval)

2.7-jadval.

Mintaqalar bo`yicha byudjet daromadlarida soliq tushumlarining ulushi⁸⁷, (%)

Mintaqa	Mamlakat soni	daromad solig`i	foyda solig`i	ijtimoiy sug`urta solig`i	mol-mulk solig`i	iste`mol soliqlari	boshqalar
OECD	37	24.0	9.6	25.7	5.6	32.3	2.9
Yevropa	29	23.0	7.8	29.5	4.4	32.7	2.5
Osiyo	11	13.6	25.8	12.0	5.0	38.9	4.7
Shim.Amerika	17	14.2	13.9	16.5	4.1	47.5	6.4
Afrika	30	17.5	19.2	7.2	1.6	51.9	5.2
Jan. Amerika	10	7.3	15.9	18.6	4.4	48.5	5.3
Okeaniya	10	24.4	13.0	0.0	2.4	56.1	7.8

Mazkur tashkilotga kiruvchi rivojlangan va aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarning jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortish tizimida progressiv

⁸⁷<https://taxfoundation.org/occd-tax-revenue-2021>.

soliq stavkalarini qo'llanishi, o'z navbatida daromad solig'i ulushi yuqori bo'lishiga olib kelgan⁸⁸.


Masalan, Daniyada–52%, AQShda–41,5%, Kanadada–36,6%, Italiyada–25,7%, Ispaniyada–22,7%, Frantsiyada–21,1% va Germaniyada–27,40% byudjet daromadlari tushumini ulushi jismoniy shaxslar daromad solig'i hissasiga to'g'ri keladi. Melnikova va Nesterenkolarning ta'kidlashicha, so'nggi bir necha yil ichida Rossiyada progressiv daromad solig'ini joriy etish masalasi keskin muhokama qilinmoqda. Chunki progressiv shkala yuqori daromad oladigan jismoniy shaxslar uchun soliq stavkasini oshirishga imkon beradi. Biroq davlat sektori vakillari bunday tizimdagi soliq solish o'tishga qarshi va progressiv daromad solig'i shkalasidan foydalanish badavlat aholiga nisbatan “diskriminatsiya”ga olib kelishini ko'rsatib o'tishgan. Ularning fikricha, bunday o'zgarishlar katta kapitalga ega bu kichik aholi qatlami uchun soliq yukining oshishiga olib kelishi mumkin⁸⁹. Umuman olganda, har qanday mamlakatda daromad solig'i tizimidagi stavkalarining o'zgarishi soliq to'lashdan bo'yin tovlash masalasining dolzarblashishiga va aholining yashirin daromadlarining oshishiga olib kelishi mumkin. Fikrimizcha, jismoniy shaxslar daromadiga soliq solish tizimi bo'yicha rivojlangan mamlakatlar soliq amaliyotida progressiv daromad solig'ini qo'llash samaradorligini isbotlangan, bu esa aholining real daromadlarini soliqqa tortishda adolat tamoyilini amalga oshirish bilan bog'liq. Shu sababli dunyo ko'p rivojlangan va rivojlanayotgan aksariyat mamlakatlar tomonidan progressiv daromad solig'i tizimidan foydalanishni afzal ko'rishadi. Bundan tashqari, Xalqaro valyuta fondi tomonidan ko'rsatib o'tilishi bo'yicha rivojlangan mamlakatlarda fiskal siyosat aholi daromadlar tengsizligining uchdan bir qismini kompensatsiya qilishi mumkin⁹⁰. Bundan tashqari, o'rtacha daromadli davlatlarda soliq, to'lovlar va xarajatlar hajmini kichikligi, soliq solish nisbatan progressivligi optimal emasligini nazarga olganda qayta taqsimlanishi darajasi yuqori emas. Tengsizlik darajasi ikki guruh, ya'nirivojlangan mamlakatlar hamda rivojlanayotgan va o'tish

⁸⁸Mayburov I.A., Sokolovskaya A.M. Nekotorie postulati optimalnogo nalogooblojeniya truda. <https://elibrary.ru/download/elibrary>.

⁸⁹Mel'nikova N. A., Nesterenko Dj. Sistema podoxodnogo nalogooblojeniya fizicheskix lits: otechestvennyy i zarubejnyy opyt. https://elibrary.ru/download/elibrary_44157174_83161752.pdf.

⁹⁰<https://www.imf.org/external/russian/np/blog/2017/101117r.pdf>.

iqtisodiyoti mamlakatlarida soliqlar chegirilguncha boʻlgan daromadlar farqlanish boʻlmasada, biroq, soliq solingandan keyingi jismoniy shaxslar ixtiyoridagi daromadlar esa aksincha sezilarli darajada farqlanish mavjud (2.7-rasm).



2.7-rasm. Soliqning daromadlar tengsizligiga taʼsirining mamlakat guruhlari boʻyicha tahlili⁹¹

Olib borilgan nazariy va empirik tadqiqotlarda daromadlarni qayta taqsimlashning eng muhim fiskal instrumentlaridan biri jismoniy shaxslarning daromad soligʻi boʻlib, daromad soligʻining daromadlar tengsizligiga taʼsirining tahlili natijasida quyidagilar aniqlangan: daromad soligʻining qayta taqsimlovchi taʼsiri nafaqat soliq hajmiga, balki soliqqa tortishning progressivligiga ham bogʻliq; daromadlar tengsizligini kamaytirishning yanada samarali vositasi progressiv soliqqa tortish shkalasining yuqori marjinal stavkasini oshirish emas, balki ushbu stavka qoʻllanila boshlagan daromadning chegaraviy qiymatini pasaytirishdir⁹². Buchanan va Musgravelarning taʼkidlashicha, adolatli soliqqa tortish talablari progressiv daromad soligʻi bilan eng mos keladi, chunki soliqqa tortishning proportsional shkalasi aholi daromadlarining tabaqalanishini kamaytirishga yordam bermaydi. Uning fikricha, progressiv soliq stavkalarini yagona soliq stavkasi bilan almashtirish daromadlar tengsizligining yanada

⁹¹<https://www.imf.org/external/russian/np/blog/2017/101117r.pdf>.

⁹²Mayburov I.A., Sokolovskaya A.M. Nekotorie postulati optimalnogo nalogooblojeniya truda. <https://elibrary.ru/download/elibrary>.

oshishiga olib keladi. Buning sababi shundaki, uni yuqori darajada belgilash mumkin emas, chunki u minimal va maksimal daromadlarga nisbatan qo'llaniladi⁹³. Jumladan, Akgun va boshqalar tomonidan olib borilgan empirik tahlil natijalarida uzoq muddatli istiqbolda jismoniy shaxslarning daromad taqsimotiga quyidagilar ta'siri aniqlangan: ixtiyoridagi daromadlarni taqsimlash shaxsiy daromad solig'i (ayniqsa, ish haqida daromadiga soliq solish), mol-mulk, meros soliqlari va hadyalarga bog'liq; qo'shilgan qiymat solig'i yoki foyda solig'i stavkalarining o'zgarishi daromadlarning aholi o'rtasida taqsimlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi; qo'shilgan qiymat solig'ining oshishi aholi iste'moliga ta'sir qilishi mumkin. Xususan, QQSning standart stavkasini oshishi kam daromadli aholi iste'molining pasayishiga olib kelishi mumkin, ammo aholining boy qatlamining iste'moliga ta'sir qilmaydi, balki faqat ularning umumiy daromadning iste'mol va jamg'armalarga taqsimlanishidagi nisbati o'zgaradi⁹⁴.

Rossiyada Oliy Iqtisodiyot Maktabi (VShE) badavlat fuqarolarning investitsiya qilinmaydigan shaxsiy daromadlari va korporatsiyalarning investitsiya qilinmaydigan mablag'lariga soliqlarni sezilarli darajada oshirishni taklif qildi. Bunda jismoniy shaxslarning 12 mln. va 24 mln. rubldan ortiq daromadlariga 20-24% soliq stavkasi qo'llanishi ko'rsatib o'tilgan. 2021-yildan boshlab, 20 yil ichida birinchi marta Rossiyada shaxsiy daromadlarni soliqqa tortishda progressiv elementi joriy etildi va daromadi 5 mln. rubldan yuqori bo'lgan jismoniy shaxslar uchun daromad solig'i stavkasi 13 foizdan 15 foizgacha oshirildi. Yuqori stavkadagi soliq daromadning 5 mln. rubldan oshadigan qismidan undiriladi. Soliqni hisob-kitobida faqat davriy va faol daromadlar, masalan, ish haqi, dividendlar, qimmatli qog'ozlarni sotishdan olingan daromadlar hisobga olinadi va bir martalik daromadlar, masalan, shaxsiy mulkni sotishdan olinadigan daromadlar oshirilgan soliq bazasidan chegirib tashlanadi. Buning natijasida, 2021-yilda

⁹³Buchanan, J.M. Musgrave R.A. Public finance and public choice: Two contrasting visions of the state. Cambridge, Mass.: MIT Press, 1999. –282 r.

⁹⁴Oguzhan Akgun & Boris Cournède & Jean-Marc Fournier, 2017. "The effects of the tax mix on inequality and growth," OECD Economics Department Working Papers 1447, OECD Publishing.

byudjetga 60 mlrd. rubl, 2022-yilda 64 mlrd. rubl va 2023-yilda 68,5 mlrd. rubl qo`shimcha daromad tushishi prognoz qilingan⁹⁵.

Bizning fikrimizcha, yuqori daromad solig`i stavkasini jismoniy shaxslarning investitsiya qilinmagan daromadlarni soliqqa tortish taklifini “kapital jamg`arishga jarima” sifatida baholash mumkin. Jismoniy shaxslarning daromadini progressiv soliqqa tortishdagi bu yondashuv uzoq muddatli istiqbolda samarasiz bo`lishi mumkin. Shu alohida ta`kidlash joizki, jismoniy shaxslar mol-mulkini soliqqa tortishda ham har bir mamlakatda ko`chmas mulk solig`i bo`yicha soliq bazasini shakllantirishning turli tartibi mavjud (2.8-jadval).

2.8-jadval

Dunyo mamlakatlarida ko`chmas mulk solig`i bo`yicha soliq solinadigan bazani hisoblash tartibi⁹⁶

Mamlakat	Stavka	Soliq solinadigan bazani hisoblash tartibi
Latviya	0,2%-3%	Bino va inshootlar–buxgalteriya ma`lumotlari bo`yicha o`rtacha yillik qoldiq qiymati. yer uchastkalari-kadastr qiymati.
Italiya	0,76%	Turli xil differentsiallanuvchi koeffitsientlarni hisobga olgan holda umumiy daromadga asoslangan hisoblashning murakkab shakli.
Belgiya	1,25–2,5%	Umumiy daromad asosida hisoblangan ko`chmas mulk obyektlari davlat kadastr ma`lumotlari joylashuvga qarab mulk qiymatidan.
Ispaniya	0,4-1,1%	Binolar va yer uchastkalarining kadastr qiymati
Shvetsiya	1,75%	Mulk solig`i stavkasi 1,75% ni tashkil qiladi, lekin to`lov mulkning bozor qiymatining uchdan ikki qismidan undiriladi. O`rtacha, bu yiliga 250 dan 300 evrogacha, maksimal miqdor - 650 evro.
Avstraliya	1,6%-2%	Avstraliyada jismoniy shaxslar uchun yillik mol-mulk solig`i mavjud emas. Yer solig`i hajmi har bir shtatda turlicha. Misol uchun, yangi janubiy Uels shtatida qiymati 432 ming Avstraliya dollaridan kam bo`lgan yer soliqqa tortilmaydi.
Germaniya	0,35%/2,6-3,55%	Yer ustidagi obyektlar-baholangan qiymatiga (maxsus soliq baholash akti bo`yicha), munitsipal koeffitsientlarga korrektirovka qilingan. Yer uchastkalari-bozor qiymati.
Vengriya	3,6%/0.18%	Ko`chmas mulk munitsipalitetning tanloviga ko`ra:yoki mulkning maydoni yoki belgilangan bozor qiymatiga soliq solinadi. Uy-joy va kvartiraning bozor qiymatidan 3,6% stavkada yoki 1m ² .dan o`rtacha 5-6 € chegarasida o`rnatiladi.
Buyuk-Britaniya	0-12%	Ijara bozori ko`rsatkichlari to`g`risidagi ma`lumotlar asosida hisoblangan soliq qiymati
AQSh	1-2,35 %	Bozor qiymati.

⁹⁵ <https://www.rbc.ru/newspaper/2020/11/06/5fa010309a794777f46f3cc3>.

⁹⁶Pashinyan J.T. Sravnitelniy analiz nalogooblojeniya imushestva fizicheskix lits v rossii i zarubejnix stranax.<https://elibrary.ru/download/elibrary>.

Xitoy	1,2%	Xitoyda ko`chmas mulk solig`i bo'yicha soliq bazasi 10-30% ga kamaytirilgan ko`chmas mulk qiymati hisoblanadi.
Rossiya	0,1%-2%/0,3 va 3%	Turar-joy binosi-bu turar-joy binosining umumiy maydonining 50 m ² kadastr qiymatiga kamaytirilgan kadastr qiymati sifatida aniqlanadi. Kwartira - umumiy maydonning 20 m ² kadastr qiymati miqdorida. Xona - umumiy maydonning 10 m ² kadastr qiymati miqdorida. Kamida bitta turar-joy binosini (turar-joy binosini) o'zichiga olgan yagona ko`chmas mulk majmuasi-1 mln. rubl miqdorida.

Vengriyada soliq qonunchiligida agar mulk 5 yildan ortiq vaqt davomida mulk egasiga tegishli bo`lsa, soliqni to`lash shart emasligi belgilangan. Undiriladigan soliq quyidagicha amalga oshiriladi: agar mulkka egalik qilish 4 yildan 5 yilgacha bo`lgan bo`lsa, unda soliq olingan daromadning 50 %, 3-4 yil bo`lsa, 70%, 2-3 yil - 90%. tashkil qiladi. Agar mulk birinchi marta sotilayotgan bo`lsa, soliq obyektini sotib olish va sotish vaqtidagi narxlardagi farqdan 25% miqdorida soliq, ikkinchi martasida - 25% stavkaning 90% miqdorida, uchinchi martasida - 25% stavkaning 60% miqdorida, to`rtinchisida - 25% stavkaning 30% miqdorida va beshinchidan-25% stavkaning 10% miqdorida soliq undiriladi.

Jahon amaliyotida ko`chmas mulk soliqqa tortishning tizimi va ko`chmas mulk solig`i o`rtasidagi asosiy farqlar sifatida quyidagilarni keltirib o`tish mumkin: soliq solish obyektiga ko`ra, xorijiy amaliyotda ko`chmas mulk solig`i qoidaga ko`ra, mulkning obyektini yer va unda qurilgan binolar va inshootlar hisoblanishi; soliq solinadigan bazani aniqlash usuli bilan, xorijiy amaliyotda ko`chmas mulk solig`i bo'yicha soliq solinadigan bazani aniqlash faqat bozor qiymati ma`lumotlari asosida amalga oshiriladi. Umuman olganda, fikrimizcha rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, ko`chmas mulklarni soliqqa tortish tizimini takomillashtirishda, ayniqsa mulk ob`ektlarini qiymatini bozor narxidan kelib chiqib aniqlash va yuqori soliq stavkalarini qo`llashda ijtimoiy jihatlar bilan bog`liq masalalar hisobga olinishi lozim deb hisoblaymiz. Hududlar markazidagi uy-joy va yer maydonlari bozor qiymatidagi yuqori darajadagi farqlanishlar kam daromadli aholining fiskal xarajatlarni keskin oshib ketishi o`z navbatida aholi faravonligiga salbiy ta`siri etishi mumkin. Shu sababdan, Vengriya davlati tajribasidan kelib chiqib, ko`chmas mulk mahalliy hokimiyat organlarining

tanloviga ko`ra, mulkning maydoni yoki belgilangan bozor qiymatiga soliq solinishi hamda ko`chmas mol-mulk obyektlarini soliqqa tortishda soliq solinmaydigan qiymat yoki maydon ko`rsatkichlarini kiritish maqsadga muvofiq bo`ladi. Shu bilan birga, ko`chmas mulklarni foydalanish va sotish davriyligini (masalan foydalanish muddati 1 yildan 5 yilgacha bo`lgan davrlarni) hisobga olgan holda progressiv stavkalarda soliqqa tortishga e`tibor berilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu o`rinda, aholining (uy xo`jaliklarining) haqiqiy soliq yukini aniqroq baholash uchun quyidagi Barulin formulasidan foydalanish mumkin⁹⁷:

$$НБ_{\text{н}} = [(NLN + NKN + K_{\text{д}}) / ДДН] 100\% \quad (2.8)$$

Bu yerda: NLN–jismoniy shaxslarga hisoblangan shaxsiy soliqlar; NKN – hisoblangan bilvosita soliqlar; $K_{\text{д}}$ –aholi tomonidan to`lanadigan bilvosita soliqlar ulushi koeffitsienti; ДДН–aholining pul daromadlari. Bizning fikrimizcha, bu usul OECD metodologiyasi bilan solishtirganda obyektiv ma`lumot olish imkonini beradi, chunki u har bir soliq to`lovchiga ham, jismoniy shaxslar guruhiga ham soliq yukini hisoblash imkonini beradi⁹⁸. Biroq uy xo`jaliklari uchun soliq yukini hisoblash usuli, shubhasiz, soliqlarning soliq to`lovchining moliyaviy holatiga ta`sirini ko`rsatishi mumkin, biroq soliq va to`lovlar miqdorining ortishi va krizislar sharoitida jismoniy shaxslar to`qnash keladigan muammolarni batafsil ochib berolmaydi⁹⁹. Shu sababdan, quyidagi (FN) fiskal yukining foizini hisoblash formulasi uy xo`jaliklari va uning mazmunini tushuntiradi va soliqni hisoblashning yuqoridagi usullarida bo`lgani kabi yukni hisoblash nisbiy jihatdan amalga oshiriladi¹⁰⁰:

$$FN = [(ND + IN + PPN * K_{D1} + PJKX + PPNP * K_{D2} + KPN * K_{D3} + PODKZ + DRNNP / DDN] 100\% \quad (2.10)$$

Bu yerda: ND–uy xo`jaliklari daromad solig`i; IN–mulkiy soliqlar; «PPN–uy xo`jaliklariga o`tkaziladigan to`g`ridan to`g`ri soliqlar; K_{D1} –uy xo`jaliklari

⁹⁷Zuykov A.V. Vliyaniye imushestvennogo nalogooblojeniya na fiskalnuyu nagruzku: metodicheskiy aspekt. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=27637757>.

⁹⁸Zuykov A.V. Vliyaniye imushestvennogo nalogooblojeniya na fiskalnuyu nagruzku: metodicheskiy aspekt. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=27637757>.

⁹⁹Zuykov A.V. Vliyanyie imushestvennogo nalogooblojeniya na fiskalnuyu nagruzku: metodicheskiy aspekt. <https://www.elibrary.ru>.

¹⁰⁰Зуйков А.В. Влияние имущественного налогообложения на фискальную нагрузку: методический аспект. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=27637757>.

tomonidan haqiqatda to'langan to'g'ridan to'g'ri soliqlar ulushi koeffitsienti; PJKX–uy-joy kommunal xizmatlari uchun to'lovlar; PPNP–uy xo'jaliklariga o'tkaziladigan to'g'ridan to'g'ri soliqsiz to'lovlar; $K_{Д2}$ –uy xo'jaliklari tomonidan haqiqatda to'langan to'g'ridan to'g'ri o'tkaziladigan soliq bo'lmagan to'lovlarning ulushi koeffitsienti; KPN–uy xo'jaliklariga o'tkaziladigan bilvosita soliqlar; $K_{Д3}$ –uy xo'jaliklari tomonidan haqiqatda to'langan bilvosita soliqlarning ulushi koeffitsienti; PODKZ-kreditlar va qarzlar bo'yicha qarzga xizmat ko'rsatish to'lovlari; DRNNP–soliqsiz boshqa to'lovlar; DDN–aholining pul daromadlari¹⁰¹».

«Quyidagi bir necha sabablarga ko'ra fiskal yukni hisoblash formulasini ushbu shaklda taqdim etilgan: Birinchidan, nazariyalarga ko'ra, soliqlar to'g'ridan to'g'ri, ya'ni iste'molchiga ham yoki qayta yo'l bilan ham, ya'ni vositachilar, pudratchilar va boshqalarni yetkazib beruvchilarga o'tkazilishi mumkin. Shuning uchun, uy xo'jaliklarining soliqlar va soliqdan tashqari to'lovlarni to'lashdagi haqiqiy ishtirokini yoki soliqlarning o'zgarishi darajasini ko'rsatadigan koeffitsientlardan foydalanish afzal hisoblanishi. To'g'ridan to'g'ri soliqlarni o'tkazishning egri soliqlarni o'tkazishdan tub farqi tovarlar harakatining bosqichlari bo'yicha taqsimlanishidir. Masalan, yer, suv resurslari va mol-mulk solig'i kabi to'g'ridan to'g'ri soliqlar avtomatik ravishda mahsulot tannarxiga kiritiladi. QQS va aktsiz kabi bilvosita soliqlar tovar (xizmat)lar narxiga ustama hisoblanadi. Shunga ko'ra, bu holatda bilvosita soliqlar miqdori to'g'ridan to'g'ri yig'indilari bilan chambarchas bog'liqdir. Bu shuni anglatadiki, egri soliqlarning o'tkazilish darajasi to'g'ridan to'g'ri soliqlarni o'tkazish darajasiga ham bog'liq, shuningdek tovarlarning narxi va yakuniy narxiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan ko'plab soliqsiz to'lovlarga bog'liqdir. Shunday qilib, $K_{Д3}$ –koeffitsienti $K_{Д1}$ va $K_{Д2}$ –koeffitsientlariga bog'liqdir».

«Ikkinchidan, to'g'ridan to'g'ri soliqlarni turlari bo'yicha aniqlashtirishni zarur deb hisoblangan, chunki ularning ishlash mexanizmlarida farqlar mavjud. Mol-mulk solig'i moliyaviy ahvoldan mustaqilligi tufayli yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, uning yomonlashishi soliq to'lovchi uchun ushbu turdagi

¹⁰¹Зуйков А.В. Влияние имущественного налогообложения на фискальную нагрузку: методический аспект. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=27637757>.

soliq bo'yicha soliq qarzining oshishiga olib keladi. Shuningdek, uy-joy kommunal xizmatlaridan foydalanganlik uchun to'lovlarni alohida ta'kidlashni maqsadga muvofiq, chunki ularning ijtimoiy ahamiyati mulk solig'iga nisbatan yuqori darajada¹⁰²». Quyida fiskal yukni hisoblash uchun ishlab chiqilgan metodologiyaga muvofiq NN soliq yukining foizini hisoblash formulasi keltirilgan:

$$NN = \frac{(ND + IN + PPN * K_{D1} + KPN * K_{D3}) DDN - PJKX - PODKZ - DRNNP - PPNP * K_{D3}}{100\%} \quad (2.11)$$

Jismoniy shaxslar daromad darajasining pasayishi va mol-mulk solig'i va bilvosita soliqlarning ortishi bilan soliq yuki darajasining ko'rsatkichi oshishi tabiiydir. Bundan tashqari, soliq yukini hisoblashda daromadlar bo'yicha o'ta keskin ijtimoiy tabaqalanishni hisobga olish lozim. «Bundan kelib chiqadiki, moliyaviy holatni aniq baholashda 10 % eng boy aholining daromadi olinmasligi lozim, chunki ularning yuqori darajadagi daromadlari aholi farovonligi darajasidagi o'zgarishlar va soliqning ta'sirining real tasvirini buzilishiga olib keladi¹⁰³». Shunday qilib, uy xo'jaliklariga soliq yukini hisoblash soliqlar, birinchi navbatda, mol-mulk solig'i stavkasi marjinal darajasini yanada aniqroq baholash va ijtimoiy-iqtisodiy voqelikda nihoyatda muhim bo'lgan soliq sohasida tegishli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Tabiiyki, uy xo'jaliklariga daromadlar tengsizligi yuqori bo'lgan sharoitlarda fiskal yukning haddan tashqari ortishi salbiy oqibatlarga olib keladi: «iste'mol degradatsiyasi (ya'ni yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqaruvchilari aziyat chekadigan past sifatli va ayni paytda arzonroq tovarlarni sotib olish); jamg'arish tendentsiyasini o'sishiga; tadbirkorlar daromadlari darajasining pasayishi va boshqalar. Shunday qilib, uy xo'jaliklari uchun soliq yukini hisoblashning ishlab chiqilgan metodologiyasi soliqlarni, birinchi navbatda, mol-mulk solig'ini boshqa uy xo'jaliklari moliyalari bilan birgalikda ko'rib chiqish, soliqqa tortishda stavkalarni maksimal darajasini yanada aniqroq baholash va soliq siyosati sohasida tegishli qarorlar qabul qilish imkonini

¹⁰²Zuykov A.V. Vliyaniye imushestvennogo nalogooblojeniya na fiskalnuyu nagruzku: metodicheskiy aspekt. <https://www.elibrary.ru>.

¹⁰³Зуйков А.В. Влияние имущественного налогообложения на фискальную нагрузку: методический аспект. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=27637757>.

beradi va bugungi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy voqeliklarda nihoyatda muhim hisoblanadi¹⁰⁴».

2.3. Jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkasining ta'sirining samaradorligini baholash

Jismoniy shaxslarning soliqqa tortishning uzoq muddatli istiqbolli vazifalari aholi daromadlarini barqaror o'sish va daromadlar tengsizligini kamaytirishni ta'minlash, ish o'rinlarini yaratish, iqtisodiy o'sish orqali daromadning manbalarini kengaytirish va birinchi navbatda, birinchidan, inson kapitali sifatining o'sishi, iqtisodiyotning innovatsion potentsiali hamda makroiqtisodiy samaradorligining o'sishi bilan bog'liqdir¹⁰⁵. Ushbu vazifalarni hal qilish uchun jismoniy shaxslarni daromadi va mol-mulkini optimal soliqqa tortish va tegishli ilmiy asoslangan modellar doirasidagi hisob-kitoblar bilan asoslanadigan samarali soliq stavkalarini qo'llanish yondashuvlaridan foydalanish lozim.

Boshqa tomondan esa jismoniy shaxslar daromadiga soliq solishda samarali progressiv soliq stavkalardan foydalanish samaradorligini oshirishni rag'batlantirishga qaratilgan fiskal islohatlarni amalga oshirish nuqtai nazaridan ko'rib chiqish muhimdir.

Shaxsiy daromad solig'i stavkasini va soliq yukini taqsimlashning boshqa instrumentlarini birlashtirish orqali aholi daromadlarini tartibga solishning ikkita mumkin bo'lgan usuli mavjud. Aholining kam ta'minlangan qatlamlari uchun ko'plab soliq chegirmalari mavjud bo'lgan holda daromad solig'ining tekis shkalasini qo'llanishishi yoki progressiv soliq stavkasi va qo'shimcha imtiyozlarning minimal miqdori. Aholining daromadlaridagi tengsizlikni, qashshoqlik ko'lamini kamaytirish, faravonlikni oshirish, aholi daromadlariga soliq solishda iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarning tajribasini chuqur o'rgangan holda jismoniy shaxslar daromadini progressiv shkalada soliqqa tortish tizimini qo'llanishi zarur hisoblanadi¹⁰⁶.

¹⁰⁴Zuykov A.V. Vliyaniye imushestvennogo nalogooblojeniya na fiskalnuyu nagruzku: metodicheskiy aspekt. <https://www.elibrary.ru>.

¹⁰⁵Ibragimova N.M.. 2017. Modelirovaniye multiplikatorov doxodov i rasxodov naseleniya na osnove modeli Sam: otsenki dlya Uzbekistana. https://www.elibrary.ru/download/elibrary_30296192_76913278.pdf.

¹⁰⁶Jarova e.N., Morozova G.V. 2013. Vliyaniye sistemi nalogooblojeniya na uroven jizni naseleniya. https://elibrary.ru/download/elibrary_21007018_31370828.pdf.

Sheglov fikricha, adolatli soliqqa tortish prinsipi buzilgan hisoblanadi, «chunki jismoniy shaxslar daromad solig`i bo`yicha tabaqalashtirilgan soliqqa tortish shkalasining mavjud emasligi aholining ijtimoiy tengsizligining kuchayishiga, eng kambag`al fuqarolarning daromadlarining pasayishiga va kam ta`minlanganlar ulushining oshishiga olib keladi¹⁰⁷». Aholining daromad guruhlarida kontsentratsiyasiga qarab jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`i bo`yicha taklif etilayotgan progressiv stavka quyidagicha: birinchi guruh, eng past daromadli iqtisodiyotda band bo`lgan 10% gacha bo`lgan aholiga-soliq stavka 10%; o`rta daromad darajasida o`rta daromaddan kam yoki o`rta daromaddan yuqori bo`lgan aholining ikkinchi va uchinchi guruhlari (iqtisodiyotda band aholining 30% gacha), mos ravishda soliq stavkalari -15 va 20 %, to`rtinchi guruhdagi (iqtisodiyotda band aholining 20% gacha) soliq stavkasi 25% hamda yuqori daromadga ega bo`lgan beshinchi guruhdagi (iqtisodiyotda band aholining 10% gacha)- soliq stavkasi 30-50% gacha. Bunda oxirgi guruhdagi aholining daromadlariga solinadigan haqiqatdagi soliq stavkasi nisbatan pastroq bo`lib, taxminan 27% (yoki 46% maksimal 50% bilan) va mavjud imtiyozlar va chegirmalarni hisobga olgan holda bundan ham kamroq bo`lishi mumkin¹⁰⁸.

Yugay (2021) tomonidan AQShdagi nisbatan maksimal soliq stavkasi va YaIM o`sinh sur`ati o`rtasidagi bog`liqlik 1929-yildan 2019-yilgacha bo`lgan ma`lumotlar asosida empirik tahlili amalga oshirilgan. Modelning birinchi modifikatsiyasida YaIM o`sinh sur`atlari bo`yicha maksimal daromad solig`i stavkasining regressiyasi (eng kichik kvadratlar usuli bo`yicha) hisoblangan. Natijada, bu ikki ko`rsatkich o`rtasida statistik bog`liqlik mavjudligi aniqlangan. Biroq determinatsiyaning past koeffitsienti tufayli modelning to`g`riligi shubhali bo`lgan, shuning uchun unga qo`shimcha o`zgaruvchilar qo`shilgan. Modelning ikkinchi modifikatsiyasida o`zgaruvchi sifatida nafaqat yalpi ichki mahsulotning

¹⁰⁷Sheglov V.Yu. 2019. Vliyaniye stavki podoxodnogo naloga na uroven jizni. elib.pnzgu.ru.; Smirnov R.O. 2016. Modelirovaniye vibora progressivnoy shkali podoxodnogo naloga. <https://www.elibrary.ru>.

¹⁰⁸Щеглов В.Ю. 2019. Влияние ставки подоходного налога на уровень жизни. <https://www.elib.pnzgu.ru>.

o`lish sur`ati, balki yalpi ichki xususiy investitsiyalarning o`lish sur`ati va davlat xarajatlarining o`lish sur`atlaridan ham foydalanilgan¹⁰⁹.

Regressiyani baholash natijasida model determinatsiya koefitsientini yuqoriligi holatida maksimal soliq stavkasi va YaIM o`lish sur`ati o`rtasida bog`liqlik yo`qligini ko`rsatgan (2.9-jadval). Shunday qilib, ushbu xulosa ilgari ko`rib chiqilgan empirik tadqiqotlarning bir qismi bilan tasdiqlangan: iqtisodiy o`lish sur`ati va maksimal daromad solig`i stavkasi o`rtasidagi bog`liqlik aniq emas.

2.9-jadval

AQSh yuqori daromad solig`ining stavkasining YaIM o`lishiga ta`siri regression baholash natijalari¹¹⁰


	bog`liq o`zgaruvchi	
	1-model	2-model
	daromad solig`ining maksimal stavkasi,%	daromad solig`ining maksimal stavkasi,%
YaIM o`lish sur`ati, %da	1.220** (0.482)	0.678 (0.410)
Yalpi ichki xususiy investitsiya o`lish sur`ati,%da		-2.319*** (0.637)
Davlat xarajatlarining o`lish sur`ati, %da		0.592*** (0.215)
Konstanta	56.853*** (2.822)	70.747*** (12.457)
Kuzatuvlar soni	90	90
Determinatsiya koeffitsienti	0.068	0.451

Shuningdek, eng yuqori progressiv soliq stavkasining yuqori darajasi inqirozlar davrida va ushbu inqirozlardan qutulish yillarida sodir bo`lganligini ko`rish mumkin. Shu bilan birga, bir qator hollarda progressiv soliqning marjinal stavkasining oshishi inqirozni bartaraf etishga va YaIM o`lishiga yordam beradi. Boshqa hollarda iqtisodiy o`lish progressiv soliqning doimiy, lekin ancha yuqori

¹⁰⁹Yugay E.V. 2021. Progressivnaya shkala podoxodnogo nalogooblojeniya i ekonomicheskiy rost SShA. brary.ru/download/elibrary_45616613_66130196.pdf.

¹¹⁰Yugay E.V. 2021. Progressivnaya shkala podoxodnogo nalogooblojeniya i ekonomicheskiy rost SShA. brary.ru/download/elibrary_45616613_66130196.pdf.

marjinal stavkasida kuzatildi¹¹¹. Agarda tahlil qilib ko`radigan bo`lsak, davlat byudjetiga jami soliq soliq tushumlarida jismoniy shaxslarning daromad solig`ining ulushi 15 foizni, yuridik shaxslarni hisobga olgan holda mol-mulk va yer soliqlarning ulushi esa mos ravishda 2% va 3%larni tashkil etgan (2.8-rasm).



2.8-rasm. Jami soliq tushumida soliq turlarining ulushi,%da¹¹²

Byudjet daromadlarini shakllantirishda bilvosita soliqlarning ulushini yuqorligi shundan dalolat beradiki, soliq yukining asosiy qismi narx mexanizmi orqali oxirgi iste'molchi, ya'ni aholiga o'tishi mumkin. Bundan ko`rinib turibdiki, jismoniy shaxslarni daromadini soliqqa tortishda nafaqat daromad solig'i, balki QQS daromadi hajmiga ta'sir ko`rsatadi. Shu bilan birga, byudjet daromadlari manbai sifatida egri soliqlar to`g`ridan to`g`ri soliqlarga nisbatan bozordagi siklik tebranishlarga kamroq bog`liqdir, ichki bozorda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni)

¹¹¹Югай э.В. 2021. Прогрессивная шкала подоходного налогообложения и экономический рост США.http://elibrary_45616613_66130196.pdf.

¹¹²<https://soliq.uz/page/asosiy-korsatkichlar?lang=uz>.

sotishdan olinadigan QQS bo'yicha soliq solinadigan baza sifatida yakuniy iste'mol dinamikasi barqarorligidan dalolat beradi¹¹³.

Agarda Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromad miqdorini Respublika va Toshkent shahri bilan solishtirilganda, aholi hayot darajasini belgilovchi hisoblangan bu ko'rsatkich nisbatan pastligini kuzatish mumkin (2.10-jadval). Aholi turmush darajasi va daromadlaridagi ijobiy o'zgarishlarga qaramay, Qoraqalpog'iston Respublikasida aholining daromad darajasi bo'yicha sezilarli farqlanishi saqlanib qolmoqda.

2.10-jadval

Aholi jon boshiga yalpi daromad dinamikasi, (mig so'mda)¹¹⁴

yillar	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Toshkent sharhi	Respublika bo'yicha
2015	3908.0	10614.4	5410.6
2016	4372.0	12316.1	6215.9
2017	5233.1	14921.1	7314.1
2018	6808.7	18432.1	9128.6
2019	8136.2	23674.3	10891.3
2020	9437.4	25545.3	12125.6
2021	11391.6	30232.0	14769.0

Davlat soliq qo'mitasi va soliq statistik ma'lumotlarga asosan amalga oshirilgan regression tahlilda Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha 2015-2021 yillar davomida aholi jon boshiga daromadlar miqdoriga ta'sir etuvchi omillar (Y- bog'liq o'zgaruvchi) va (X_n - mustaqil o'zgaruvchilar) mehnat resurslari soni, bandlik darajasi, to'langan daromad solig'i summasi olingan.

Regression tahlilda bog'liq o'zgaruvchi sifatida aholi turmush darajasi ko'rsatkichlaridan hisoblangan aholi boshiga umumiy daromad summasi olingan bo'lib, bunda ta'sir etuvchi omillar tanlovida to'langan daromad solig'i mustaqil o'zgaruvchi sifatida olingan bo'lib, bu o'rtacha marjinal soliq stavkasini ifodalashi va hisoblangan daromad solig'i o'zgaruvchisi tarkibida soliq tushumlaridan tashqari turli soliq imtiyozlari miqdorini hisobga olinishi ham lozim bo'lib, chunki

¹¹³Ибрагимова Н.М. 2015.Эмпирическая оценка эффективности НДС и НДС в Узбекистане. https://www.elibrary.ru/download/elibrary_23268262_26696145.pdf.

¹¹⁴<https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/living-standards>.

aks holda ekonometrik tahlil obyekti sifatida soliq o'zgaruvchisi imtiyozlarni hisobga olish uchun qo'shimcha o'zgaruvchini talab qiladi.

2.11-jadval

Aholi jon boshiga daromadga omillar ta'sirining korrelyatsion matritsasi

	Y	X ₁	X ₂	X ₃
Y-aholi jon boshiga umumiy daromad, ming. so'm	1			
X ₁ -mehnat resurslari soni, ming kishi	0.846127	1		
X ₂ -bandlik darajasi, %	0.665539	0.302158	1	
X ₃ -to'langan daromad solig'i, mlr.so'm.	0.973410	0.761770	0.733552	1

Bog'liq o'zgaruvchi va ta'sir etuvchi omillar sifatida olingan mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasida korrelyatsion bog'liq mavjud degan xulosaga kelish mumkin. Shunday qilib, aholi jon boshiga umumiy daromadlar (Y) va mehnat resurslari soni ($r_1=0,8461$), bandlik darajasi o'rtasida ($r_2=0,6655$) hamda to'langan daromad solig'i o'rtasida ($r_3=0,9947$) uzviy bog'liqlik mavjudligi aniqlangan (2.11-jadval).

2.12-jadval

Regression tahlil modelini natijalari

Ko'p korrelyatsiya koeffitsienti R	0.98710963
Determinatsiya koeffitsienti R ²	0.97438543
tuzatilgan determinatsiya koeffitsienti R ²	0.97011633
Standart xatolik	583.60360410
Kuzatuvlar	22

Ko'p korrelyatsiya koeffitsienti R-0.98710963 bog'liq o'zgaruvchi (aholi jon boshiga umumiy daromadlar) va ta'sir etuvchi determinantlar bo'lgan mustaqil o'zgaruvchilar mehnat resurslari soni, bandlik darajasi hamda to'langan daromad solig'i o'rtasida o'rtasidagi kuchli statistik bog'liqlikni tavsiflaydi. Ko'p korrelyatsiya koeffitsientining 1 ga yaqinligi ko'rsatkichlar o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri va juda kuchli chiziqli bog'liqlikni anglatadi. Determinatsiya koeffitsienti R²-0.97438543 indikatorning qiymatini 1ga intilishi, bog'liqliklar adekvatligini, aholi jon boshiga daromadlarning 97,4% o'zgarishi tanlangan mustaqil

o`zgaruvchilarning o`zgarishi bilan izohlanadi (2.12-jadval). Aholi daromadlari tarkibida ish haqi ulushi yuqorligini hisobga olinadigan bo`lsa, aholi jon boshiga daromad miqdorini o`shishiga mehnat resurslari va aholi ish bilan bandligi darajasining o`shishi yuqori ta`sir ko`rsatishi tabiiy holatdir.

2.13-jadval

Dispersion tahlil natijalari

	<i>df</i>	<i>SS</i>	<i>MS</i>	<i>F</i>	<i>Muhimlik F</i>
Regressiya qoldiq umumiy	3	233212663.7	77737554.58	228.2416741	1.65328E-14
	18	6130677.001	340593.1667		
	21	239343340.7			

Dispersiyani tahlil qilish natijalariga ko`ra, model muhim va statistik ma`lumotlarga adekvat degan xulosaga keldi, chunki Fisherning adekvatlik mezoni ($F_{hisoblangan}=228.2416$) Fisher mezonining jadval qiymatidan (1,65) katta (2.13-jadval). $\alpha= 0,05$ ahamiyatlilik darajasidagi F-mezonining haqiqiy qiymati uning kritik qiymatidan kattaroqdir. Shuning uchun mumkin 0,95 ehtimollik bilan bog`liq o`zgaruvchi va olingan mustaqil o`zgaruvchilar o`rtasida bog`liqlik mavjudligini bildiradi. Shunday qilib, 100 ta holatdan 95 tasida, aholining jon boshiga daromadlari hajmi tanlangan ko`rsatkichlarga bog`liq, shuning uchun ekonometrik model ishonchli hisoblanadi.

2.14-jadval

Model parametrlarini nuqtali baholash

	<i>Koeffitsienti</i>	<i>t-statistika</i>	<i>P- muhimlik darajasi</i>
Y- kesishmasi	-12991.11482	-1.46301614	0.160706028
X ₁ - mehnat resurslari soni, ming so`m	8.95575078	3.910747632	0.001024582
X ₂ - bandlik darajasi, %	96.61362352	0.742078683	0.467613231
X ₃ - to`langan daromad solig`i, mlr.so`m	12.21987415	7.190615353	1.08127E-06

2.14-jadvalga muvofiq, ekonometrik modelni quramiz:

$$y = -12991.115 + 8.9558x_1 + 96.6136x_2 + 12.2198x_3 \quad (2.12)$$

Bundan bog`liq o`zgaruvchi hisoblangan aholi jon boshiga daromadlar summasining o`zgarishiga ijobiy ta`sir ko`rsatuvchi omillarning ta`siri miqdorini baholash ko`rish mumkin. Shu bilan birga, modeldagi o`zgaruvchilardan

hisoblangan daromad solig`i statistik jihatdan ahamiyatsizligi aniqlangan. Bunda esa jismoniy shaxslarni daromad solig`i amaldagi stavkasi daromadlarni qayta taqsimlashda, xususan, aholi daromadlari tengsizligi darajasini kamaytirishda samarasiz degan xulosaga kelish mumkin.

II bob bo'yicha xulosa

Aholi daromadlarini tarkibida ish haqi ko'rinishdagi daromadlar ulushini yuqoriligidan kelib chiqadigan bo'lsak, jismoniy shaxslar daromadlariga soliq solishda fiskal va tartibga solish nuqtai nazaridan progressiv soliq stavkalarini qo'llanishi optimal hisoblanadi.

Hududlar kesimida ko'rib chiqadigan bo'lsak, aholi jon boshiga umumiy daromad taqsimoti bo'yicha statistik ma'lumotlarga asosidagi tahlil natijalarida ko'pchilik regionlar respublika o'rtacha ko'rsatkichidan past ko'rsatkichga ega bo'lib, bu o'z navbatida daromadlardagi yuqori tengsizlikdan dalolat beradi. Agarda olib borilgan tahlillar natijalaridan kelib chiqadigan bo'lsak, jismoniy shaxslar daromadini yagona stavkada soliqqa tortishning amaldagi tartibi byudjet daromalari bazasini kengaytirishda, bundan tashqari aholi daromadlar tengizligini kamaytirishda samarasiz fiskal instrument hisoblanadi.

Jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan barcha soliqlar obyektiga nisbatan progressiv soliq shkalasi belgilanishi zarur, chunki ushbu diapazonlarning chegaralari fiskal va qayta taqsimlashdagi samarali soliq stavkalarini o'rnatilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqa tomondan, soliq shkalalarining tegishli diapazonlaridan kelib chiqib proporsional stavkalarda jismoniy shaxslarni soliqqa tortish taklifi daromad solig'i tizimida teng soliq yuki tamoyilini ta'minlash imkon berishi mumkin.

Barcha rivojlangan va aksariyat jadal rivojlanayotgan mamlakatlarning, jismoniy shaxslar daromadlarga soliq solishda nafaqat stavkalarning progressiv shkalasi, balki soliq solinmaydigan minimal miqdori (yashash minimumidan yuqori) ham qo'llaniladi.

Boshqa soliqlar kabi jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i iqtisodiy instrument hisoblanib, davlat mazkur soliq orqali bir tomondan, aholining real daromadlari va daromadlar tengsizligi darajasiga ta'sir etsa, ikkinchi tomondan, byudjetning daromad qismini shakllantiradi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga va soliq solishning fiskal va tartibga soluvchi funksiyalarini nazarda tutadigan bo'lsak, progressiv stavkada soliqqa tortish va soliq solinmaydigan minimum daromad summasini belgilanishi

byudjet daromadlarini oshirishda hamda aholi daromadlar tengsizligi darajasini kamaytirish samarali hisoblanadi.

Olib borilgan nazariy va empirik tadqiqotlar natijasida daromad solig`ining daromadlar tengsizligiga ta'sirining tahlili natijasida quyidagilar aniqlangan: daromad solig`ining qayta taqsimlovchi ta`siri samarasini oshirishda nafaqat soliq hajmi, shuningdek soliqqa tortish shkalasining optimal darajadagi progressivligi muhim ahamiyat kasb etadi; aholi daromadlardagi farqlanish darajasini pasaytirishda chegaraviy soliq stavkasini yuqori bo`lishi emas, mazkur soliq stavkalari o`rnatilgan daromadning chegaraviy qiymatini kamaytirish hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, ko`chmas mulklarni soliqqa tortish tizimini takomilashtirishda, soliq solishda ko`chmas mulklar qiymatini bozor narxilari asosida baholash mexanizmini joriy qilinishi va progressiv shkalada soliqqa tortishda maksimal soliq stavkalarini o`rnatishda ijtimoiy adolat mezonlari asosida amalga oshirish muhim hisoblanadi.

Regression tahlil natijalarida hisoblangan daromad solig`i statistik jihatdan ahamiyatsizligi aniqlangan. Bunda esa jismoniy shaxslarni daromad solig`i amaldagi stavkasi daromadlarni qayta taqsimlashda, xususan, aholi daromadlari tengsizligi darajasini kamaytirishda samarasiz degan xulosaga kelish mumkin.

III BOB. AHOLI DAROMADLARI TARKIBIGA SOLIQ STAVKASI SAMARALI TA'SIRINI MODELLASHTIRISHDAGI USTUVOR YO`NALISHLARI

3.1. Aholi daromadlariga soliq stavkasi ta'sirining samarasini oshirish yo'llari

Barchaga ma'lumki, aksariyat past daromadli mamlakatlardagi amaldagi soliq tizimidagi muammolardan biri jismoniy shaxslarga soliq solishda, avvalo, byudjet daromadlarini keskin oshirishga e'tibor qaratilishi, ya'ni soliq sohasida fiskal funksiyaning ustunligidir.

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlantirishda va YaIMni samarali qayta taqsimlashni amalga oshirishda ko'plab hal qilinishi zarur muammolar mavjud bo'lib, jumladan, daromadlar tengsizligida keskin farqlarni kamaytirish, soliqqa tortish optimallashtirish va soliq yukining mutanosibligini ta'minlash zaruriyatini yuzaga keltiradi. Aksariyat rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlar hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va aholi daromadlari darajasidagi keskin farqlanish jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimini o'zgartirish va birinchi navbatda, progressiv stavkadagi daromad solig'iga o'tishning dolzarb muammosini keltirib chiqardi¹¹⁵.

Moliyachi olim Baymuxametova tadqiqot natijalarida shaxsiy daromadlarni progressiv soliqqa tortishga o'tish soliq yukini aholi o'rtasida qayta taqsimlashning ijtimoiy xususiyatiga mos keladi, shuningdek, davlat byudjetiga daromadlarni ko'paytirishga olib kelishini ta'kidlab o'tgan¹¹⁶. Ta'kidlash joizki, Rossiyada 2001- yilda soliqqa tortilmaydigan minimal daromad summasi mavjud bo'lmagan holda proporsional 13% miqdorida jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkasining joriy etilishi, daromad solig'i bazasini kengayishiga, aholi daromad farqlanish darajasini pasayishiga va umuman yashirin iqtisodiyot ulushini qisqarishiga olib kelmagan, byudjetga daromad solig'i tushumini ortishi esa harbiy xizmatchilar hamda ularga tenglashtirilgan shaxslar tomonidan shaxsiy daromad solig'ini

¹¹⁵Тихомиров Р. О. 2019. Прогрессивное налогообложение как инструмент регулирования неравенства в распределении доходов. Вестси БДПУ. Серия 2. № 1. С. 85–92. <https://www.elibrary.ru>.

¹¹⁶Баймухаметова А.С. 2021. Прогрессивное подоходное налогообложение физических лиц и расчет шкалы прогрессии на основе программного продукта. Налоги и налогообложение. № 2. https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=34060.

to'lash bo'yicha imtiyozlarning bekor qilinishi bog'liq ekanligi bo'yicha iqtisodchi olimlar va mazkur soliq solish tizimi tarafdorlari o'rtasidagi bahs-munozaralar shu kungacha to'xtamagan. Jumladan, Respublikamizda ham 2019-yildan boshlab jismoniy shaxslar daromad solig'i progressiv shkalada soliqqa tortish bekor qilinib, yagona 12% stavkada o'rnatilgan, shuningdek, jismoniy shaxslarni soliq tortish tizimi o'zgarigan (3.1-jadval). Jumladan, dividend va foizlarga 5%da, YaTTlar olingan daromadi miqdoridan kelib 12 % stavkada daromad solig'i yoki hududi hamda tegishli faoliyat turi uchun qat'iy belgilangan soliq yoki umumiy belgilangan 12 foiz stavkasi soliq to'laydi. YaTTning daromadi 100 mln. so'mdan 1 mlrd. so'mgacha bo'lsa, aylanmadan belgilangan stavkalarda soliq to'laydi.

3.1-jadval

Jismoniy shaxslarning soliq solish tartibi va soliq stavkasida o'zgarishlar tahlili¹¹⁷

Jismoniy shaxslar	Islohatlargacha	Islohatlardan keyin	Izoh
dividendlar va foizlar	soliq stavkasi–10%	soliq stavkasi–5%	mol-mulk ijarasi va sotishdan daromadga-12%
ish haqi	progressiv shkala: 1 EKIHgacha – 0%; 1 dan 5 EKIHgacha –7,5%; 5dan 10 EKIHgacha– 16,5%; 10 EKIHa va yuqori – 22,5%	yagona stavka – 12%	mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 3 baravari miqdoridagi daromadlar bo'yicha qisman ozod etish tartibi mavjud.
	majburiy sug'urta badali–8%	bekor qilingan	
yakka tartibdagi tadbirkor daromadi	hudud va faoliyat turi bo'yicha qat'iy belgilangan soliq stavkasi eng kam ish haqiga karrali miqdorlarda belgilangan	12 % stavkada daromad solig'i yoki hudud va faoliyat turi bo'yicha oylik soliq stavkasi summada belgilangan.	daromadi 100 mln. so'mdan-1 mlrd so'mgacha bo'lgan YaTT faoliyat turlari bo'yicha belgilangan stavkada aylanmadan soliq to'laydi. Daromadi 1 mlrd. so'mdan ortiq YaTT foyda solig'i to'laydi. Ijtimoiy soliq bazaviy hisoblash miqdori va 50 %.
mol-mulkka soliq	mol-mulkning kadastr qiymatidan 200 kv.m.gacha-0,2%; boshqa aholi punktlari: 200 kv.m.dan oshiq -0,25%; shaharlar: 200 kv.m.dan oshiq -500 kv.m.gacha-0,25%; 500 kv.m.dan oshiq-0,35%	mol-mulkning kadastr qiymatidan 200 kv.m.gacha-0,25%; boshqa aholi punktlari: 200 kv.m.dan oshiq -0,33%. shaharlar: 200 kv.m.dan oshiq -500 kv.m.gacha-0,33%; 500 kv.m.dan oshiq-0,44%; tadbirkor -	

¹¹⁷O'rganishlar asosida dissertanat tomonidan tuzilgan.

		1,5%.	
er solig`i	yakka tartibda uy-joy yer solig`i bazaviy stavkasi: Toshkent shahri: 5 ta zona 1 kv.m. 297,3-752,1 so`m. shahar va posyolkalar: soliq stavkasi viloyat, shaharlar kesimida so`mda. qishloq joydagi yer solig`i: viloyatlar va joylashgan joyiga nisbatan stavkaga koeffitsient qo`llaniladi.	Yakka tartibda uy-joy yer solig`i bazaviy stavkasi: Toshkent shahri: 5 ta zona 1 kv.m. 700-1280 so`m va hududlar kesimida so`mda bazaviy stavkalar belgilangan. Bazaviy stavkaga viloyatlar 0,5-2,0 gacha, tuman, shaharlar va Toshkent shahri bo`yicha 0,7-3,0 gacha tuzatish koeffitsient qo`llaniladi.	

Jismoniy shaxslarni mutanosib shkalada soliqqa tortish modelini tarafdorlarining ta`kidlashicha, ushbu model iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishga imkon beradi, shu bilan birga, yuqori daromad olishga qiziqish uyg`otadi, bu esa oxir-oqibat iqtisodiy o`rinishni rag`batlantiradi. Jismoniy shaxslar daromadiga progressiv shkalada soliq solish modelini tarafdorlarining fikricha, jamiyatdagi aholi daromadini qayta taqsimlashda samarali va nisbatan adolatli hisoblendi. Shu bilan birga, iqtisodiy rivojlanish darajasi yuqori bo`lgan mamlakatlarda jismoniy daromadlarni soliqqa tortishning progressiv shkalasi qo`llaniladi. G`arb mamlakatlarida asosiy soliq yuki aholining eng badavlat qatlami o`z zimmasiga oladi, bunga jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig`i shkalasining yuqori marjinal stavkalari progressivligi hamda standart va turli ijtimoiy aholi guruhlari uchun soliq solinmaydigan daromad summasi o`rnatilishidir¹¹⁸.

Shu bilan birga, ushbu mamlakatlarda ko`pchilik rivojlanayotgan va o`rinish iqtisodiyoti mamlakatlar soliq tizimidan hadya va merosga soliq mavjud emas. Umuman olganda, jismoniy shaxslar daromadiga yagona 12% stavkada va mulkiy daromadlarga past stavkada soliq solinishi hamda soliq tizimida taqdim etilgan soliq chegirmalari asosan nisbatan ta`minlangan aholi guruhi qatlamlari manfaatlarini qondirishga qaratilgan deb baholash mumkin.

¹¹⁸Баймухаметова А.С. 2021. Прогрессивное подоходное налогообложение физических лиц и расчет шкалы прогрессии на основе программного продукта. Налоги и налогообложение. № 2. https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=34060.

Soliq solishning progressiv shkalasini joriy etish bo'yicha argumentlar tahlil¹¹⁹

№	qarshi argumentlar	asoslovchi argumentlar
1	Bu hukumatga tadbirkorlik ishonchsizligining yanada oshishiga, xorijiy investitsiyalar va ichki kapitalni chiqib ketishiga olib keladi.	Progressiv soliqqa tortishda aholining boy qatlami ko'proq soliq to'laydi va bu adolatli pirintsip hisoblanadi.
2	Yashirin iqtisodiyotning yuqori ulushi sharoitida byudjet daromadlarini shakllantirishda soliq solishda tekis shakaladan foydalanish samarali. Xarajatlar samaradorligini oshirish zarur hisoblanadi.	Progressiv stavkada daromad solig'ini joriy etishni hohlamaslik yuqori daromadlarini yuqori soliqlardan himoya qilish uchun qaror qabul qiladigan aholi qatlamidan kelib chiqadi.
3	Bu soliq to'lashdan bo'yin tovlash va soliq ma'murchiligining xarajatlari o'sishiga olib keladi.	Tekis soliq shkalasi soliq ma'murchiligi tizimi rivojlanmagan mamlakatlarga xosdir.
4	Daromad tengsizligi va jamiyat tabaqalanishining ortib borishi.	Progressiv daromad solig'i shkalasi rivojlangan va jadal rivojlanayotgan mamlakatlarda muvaffaqiyatli qo'llaniladi.
5	Kapitalni offshor zonalarga o'tkazish bilan kurashishda zarur hisoblanadi.	Progressiv daromad solig'i mavjud bo'lgan evropa va AQShda o'rta sinf daromadlari ancha yuqori va uning ulushi yuqori.
6	Odatda progressiv shaxsiy daromad solig'ini joriy etish tarafdorlari tomonidan ko'rsatiladigan boy odamlar toifasi odatda mansabdor shaslardir, ammo ularning nominal daromadi yuqori emas va ularning korrupsion renta ko'rinishida oladi va bu soliq solinmasdan qoladi.	Yashirin iqtisodiyot korrupsiyasiga qarshi kurashish va byudjetga to'liq soliq tushumlarini ta'minlash maqsadida daromadlarni umum deklaratsiyasi joriy etiladi. Soliq organlari faoliyati samaradorligi oshiradi.
7	Boy aholi qatlamini yanada boy bo'lishiga olib keladi.	Bu mahalliy byudjetlar daromadining oshishiga, ish bilan band bo'lgan aholining daromadlarini soliqqa tortishga jalb qilinishiga olib keladi.
8	Daromadga emas, xarajatlarga soliqlarni joriy etish kerak.	Aholining soliq savodxonligi va soliq madaniyatining oshishiga olib keladi.
9	Byudjetning soliq strukturasi o'zgarmaydi va daromad solig'i ulushini oshirish mumkin emas.	Tekis shkaladagi soliq iqtisodiyoti rivojlanmagan davlatlar uchun xosdir.

Natijada, amaldagi daromad solig'i tizimi kam daromadli aholini soliqqa tortish kabi ko'rinadi. Iqtisodchi olimlarning fikricha, progressiv soliqqa tortishni joriy etishning muxoliflari jamiyatda davlatning ijtimoiy yo'naltirilgan davlat qurish ustuvorligiga mos kelmaydigan davlatning iqtisodiy yo'nalishini belgilovchi siyosatini qo'llab-quvvatlaydigan qismiga tegishli guruhlar hisoblanadi. Jismoniy shaxslarning progressiv stavkada soliqqa tortish modelini qo'llanishi yoki qarshi bo'lgan argumentlarni qiyosiy tahlili amalga oshirilgan (3.2-jadval). «Keltirilgan

¹¹⁹O'rganishlar asosida dissertanat tomonidan tuzilgan.

qiyosiy tahlillardan ko`rinib turibdiki, soliq solish tamoyillariga rioya qilinishi, milliy daromadni samarali qayta taqsimlashni amalga oshirish (daromad tengsizligi va ijtimoiy adolatni ta`minlash) va fiskal (byudjet daromadlarini oshirish, soliq ma`murchiligi samaradorligi) nuqtai nazaridan ham soliq solishning progressiv shkalasini joriy qilish maqsadga muvofiqdir¹²⁰».

MDH olimi Kalinina tomonidan ko`rsatib o`tilgan jismoniy shaxslarning progressiv soliqqa tortish shkalasini matematik asoslashda uslubiy qoidalar asosida daromad solig`ini optimallashtirish modeli tomonidan ishlab chiqilgan dasturiy mahsulotni taklif qilingan¹²¹.

Progressiv soliq o`lchovlarini yaratish uchun butun mamlakat aholisini o`rtacha daromadlari miqdoriga qarab guruhlarga $i=1,2,\dots,m$. ajratish lozim. Progressiv shkala joriy etilishidan oldin va keyin soliq solinadigan baza va shaxsiy daromad solig`ining umumiy summasi teng bo`lgan taqdirda progressivlikka o`tish mumkin¹²²:

$$S = \sum_{i=1}^m S_i = S_0 \text{ ba } C = \sum_{i=1}^m S_i = n_i S_i = S_0 \quad (3.1)$$

Ishlab chiqilgan chiziqli transformatsiya usuliga muvofiq har qanday i -guruh n_i soliq stavkasi quyidagi formula bo`yicha hisoblanadi:

$$n_i = n_1 + (n_0 - n_1)(i - 1) / \sum_{j=2}^m (j - 1)\eta_j \quad (3.2)$$

Bu yerda, n_0 -jismoniy shaxslarni soliqqa tortish stavkasi, amalda stavka 13%; n_1 -aholining kam ta`minlangan birinchi guruhining shaxsiy daromadlariga soliq stavkasi; η_j -aholi pul daromadlarining guruhlar bo`yicha taqsimlanish koeffitsientlari, qiymati statistika qo`mitasining aholining pul daromadlarining kvintil guruhlar bo`yicha taqsimlanishi to`g`risida S_i umumiy daromad ulushi

O`zbekiston soliq qonunchiligida quyidagicha belgilangan: «Jumladan, soliq qonunchiligida olingan alimentlar, fuqarolar tomonidan olinadigan sug`urta tovonni summalari va qonunchilikka muvofiq uy-joy kommunal xizmatlar haqini

¹²⁰Grishanova I.A. 2016. Ekonometricheskij analiz vliyaniya sotsialno-ekonomicheskix faktorov na srednemesyachnyu zarabotnyu plat u naseleniya Rossii. https://elibrary.ru/download/elibrary_36709838_95491158.pdf.

¹²¹Kalinina O. V. 2011. Postroeniye ierarxicheskoy sistemi printsipov sotsialno orientirovannoy nalogovoy sistemi// Finansovaya analitika: problemi i resheniya. <https://cyberleninka.ru/article/n/postroenie-ierarhicheskoy-sistemy-printsipov-sotsialno-orientirovannoy-nalogovoy-sistemy>.

¹²²Баймухаметова А.С. 2021. Прогрессивное подоходное налогообложение физических лиц и расчет шкалы прогрессии на основе программного продукта. Налоги и налогообложение. № 2. https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=34060.

to'lash bo'yicha har oylik kompensatsiya pul to'lovlari jami daromad tarkibiga kiritilmasligi belgilangan bo'lsa, soliq solinmaydigan daromadlar sifatida moddiy yordam summolari (vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summolari-mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 4,22 baravarigacha miqdorda), soliq agenti tomonidan quyidagi yo'llanmalar qiymatini to'liq yoki qisman qoplash summolari va xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o'rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo'la beriladigan pul mukofotlari ko'rsatib o'tilgan¹²³». Bundan tashqari, vaqtinchalik soliq imtiyozlari sifatida ayrim hududlardagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar nisbatan pasaytirilgan soliq stavkalari qo'llaniladi. Jumladan, 2022-yil 1-yanvardan 2031-yil 1-yanvarga qadar bo'lgan davrda Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq tumanidagi mahalliy sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohalaridagi tadbirkorlik subyektlari foyda, aylanmadan soliq va jismoniy shaxslar daromad solig'ini 1 % miqdoridagi pasaytirilgan soliq stavkalari bo'yicha to'laydi.

Chiziqli bo'lmagan transformatsiya metodiga asosan tekis shakaladan progressiv shkalaga o'tishda soliq stavkasining ortib borishi ($k > 0$ o'sish uchun) (yoki $k < 0$ kamayish uchun) bilan chiziqli bo'lmagan bog'liqlik bo'yicha amalga oshirilishi mumkin.

$$n_i = n_1 + \frac{(n_0 - n_1) \cdot [1 + k(i - 1)] \cdot (i - 1)}{\sum_{j=2}^m \eta_j (j - 1) [1 + (j - 1) \cdot k]} \quad (3.3)$$


Bu yerda, k -nochizliqlik koeffitsienti.

Marjinal transformatsiya usuli guruhlar o'rtasida pul daromadlarining yagona taqsimlanishining faraziy sharti ostida i -guruh uchun progressiv soliq stavkalarini topishga imkon beradi:

$$n_i = n_1 + \frac{m(n_0 - n_1)(i - 1)}{\sum_{j=2}^m (j - 1)} \quad (3.4)$$

Bu yerda, $\eta_1 = \eta_2 = \dots = \eta_i = \dots = \eta_m = 1/m$

¹²³O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahrir). <https://lex.uz/docs/4674902>; Тихомиров Р. О. 2019. Прогрессивное налогообложение как инструмент регулирования неравенства в распределении доходов. Вестні БДПУ. Серія 2. № 1. С. 85–92. <https://www.elibrary.ru>.



3.1-rasm. Chiziqli ($k=0$) va ($k=0,1$) nochiziqli transformatsiya metodi¹²⁴

Chiziqli va chiziqli bo'lmagan transformatsiya usullaridan foydalangan holda aholi daromadlarini progressiv soliqqa tortishga misollari (n_1 5% va $k=0$ va $k=0,1$ da) keltirib o'tilgan (3.1-rasm).

O'zbekiston Respublikasi aholisi daromadlarini aholining 20 foizli guruhlariga bo'yicha notekis taqsimlanishi to'g'risidagi ma'lumotdan kelib chiqadigan bo'lsak, bugungi kundagi aholi umumiy daromadining taxminan 80 % 3-5 kvintil guruhlariga to'g'ri keladi (3.3-jadval). Umuman olganda, aholi daromadlari tarkibida ish haqi ko'rinishidagi daromadlar ulushi 73,6 %ni tashkil etib, aholi daromadlariga soliq stavkasini samarali ta'sir ko'rsatishini ta'minlashda, ish haqi ko'rinishidagi, shu jumladan tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlarga ham progressiv shkalada soliq solinishi optimal hisoblanadi.

Progressiv soliqqa tortish soliq bazasi darajasining o'sishiga qarab samarali soliq stavkasining qo'llanishi bo'lib, progressiyaning ikki turi mavjud: oddiy va murakkab. Oddiy progressiya bilan soliq bazasi butun miqdori bo'yicha oshgani sayin stavkalar o'sib boradi.

¹²⁴Баймухаметова А.С. 2021. Прогрессивное подоходное налогообложение физических лиц и расчет шкалы прогрессии на основе программного продукта. Налоги и налогообложение. № 2. https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=34060.

Aholi daromadlarini aholining 20 foizli guruhlari bo'yicha notekis taqsimlanishi tahlili¹²⁵

	2017	2018	2019	2020	2021
Aholining umumiy daromadi (mlrd.so`m)	236893.1	300842.7	365735.6	415085.0	515660.7
Kvintil guruhlari	umumiy daromaddagi ulushi, %				
I	9.3	9.3	9.1	8.5	8.4
II	13.6	13.6	13.6	13.3	13.4
III	17.3	17.2	17.4	17.2	17.5
IV	21.8	22.0	22.6	22.6	23.0
V	37.9	37.8	37.3	38.3	37.6
	umumiy daromaddagi ulushi asosida hisoblangan daromad summasi, mlrd.so`m				
I	22072.3	27928.1	33160.2	35466.1	43289.4
II	32287.3	41057.0	49800.0	55307.6	69243.9
III	40881.6	51840.1	63685.0	71461.0	90227.2
IV	51752.5	66256.1	82748.3	93808.4	118827.9
V	89899.4	113761.5	136342.2	159041.9	194072.3

Murakkab progressiya bilan daromad qismlarga bo'linadi, ularning har biri o'z stavkasi bo'yicha soliqqa tortiladi, ya'ni oshirilgan stavkalar butun ortib borayotgan obyektga emas, balki avvalgi bosqichdan ortgan qismga nisbatan qo'llaniladi. Progressiv soliqqa tortishni tanlash, asosan, diskretsion daromad deb ataladigan miqdorga bog'liq, ya'ni iste'molchining sof daromadi. Diskretsion daromad miqdori umumiy daromad va asosiy ehtiyojlarni qondirish uchun sarflanadigan daromad o'rtasidagi farqqa teng. Insonning haqiqiy to'lov qobiliyatini jami daromadi emas, balki diskretsion daromadi hisoblanadi, chunki daromadning oshishi bilan barcha hayotiy xarajatlar (oziq-ovqat, kiyim-kechak, boshqa zarur tovarlar, transport va boshqalar uchun) ulushi kamayadi va diskretsion daromad ulushi o'sadi. Bundan ko'rinib turibdiki, jami daromadga mutanosib stavkada soliq solishda soliq yuki nisbatan yuqori daromadga ega bo'lmagan shaxslar tushishi aniqdir. Shu sababdan jismoniy shaxslar daromadiga soliq solishda progressiv shkalalani o'rnatilishi fiskal va aholi daromadini tartibga

¹²⁵Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida dissertanat tomonidan tuzilgan.

solish jihatidan olib qaraydigan bo'lsak, mos ravishda byudjet daromadlar bazasini kengayishini hamda daromad tengsizligini kamaytirishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, soliq ma'muriyatchiligini va soliq nazoratini takomillashtirish maqsadida jismoniy shaxslar daromadlarining umumiy soliq deklaratsiyasiga o'tish bilan bosqichma-bosqich soliqqa tortishning progressiv shkalasini joriy etish zarur hisoblanadi. Jamiyatning kambag'al va boy aholi qatlamlari daromadiga nisbatan progressiv shkalada soliq solishning oddiy yoki murakkab modeli qo'llanishi bo'yicha soliq islohatlarini amalga oshirish vaqti keldi.

Shaxsning ehtiyojlarini hisobga oladigan bunday soliq tizimini joriy qilish zarurati yuzaga keladi. Masalan, Xitoyda jismoniy shaxslarni daromadini soliqqa tortishda minimal stavka 3%ni, maksimal soliq stavkasi esa 45%ni tashkil etib, progressiv soliqqa tortish sharoitida iqtisodiy o'sish global moliyaviy inqiroz davrida ham davom etishi mumkinligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, bu mamlakat aholisi soni bo'yicha proporsional soliq stavkasi o'rnatilgan Rossiya Federatsiyasidan deyarli 10 baravar ko'p bo'lishiga qaramay, Xitoyda 9 bosqichli progressiv daromad solig'i bo'yicha soliq ma'muriyati vazifasini muvaffaqiyatli bajarmoqda¹²⁶. Jismoniy shaxslar daromad solig'ini majburiy tibbiy sug'urta jamg'armasi va itimoiy sug'urta jamg'armalariga badallarga qayta taqsimlash hisobiga kam daromadli aholi daromad solig'i stavkasi minimallashtir maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, jismoniy shaxslar daromadiga nisbatan progressiv shkalada soliq solish tartibini o'rnatilishi va soliqqa tortilmaydigan minimum miqdorini belgilanishi zarur hisoblanib, shu jumladan, hududlar o'rtasida aholi jon boshiga daromadi respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichidan past bo'lgan Qoraqapog'iston Respublikasi shahar va tumanlaridagi aholi daromadlari tarkibiga samarali ta'sir o'tkazadi. Shu bilan birga, jismoniy shaxslar daromadini progressiv soliqqa tortish modelini qo'llanishi, aholi daromadi tarkibida byudjetdan beriladigan (turli ko'rinishdagi ijtimoiy to'lovlar) transfertlar ulushini kamaytirishga olib keladi.

¹²⁶Шеренков А.И., Зазнобина А.М., Колчин С.П. 2014. Практика применения прогрессивной шкалы налогообложения в мире и её перспективы в России // Молодежный научный форум: Общественные и экономические науки: электр. сб. ст. по материалам XIX студ. междунар. заочной науч.-практ. конф.-М.: «МТсНО». <http://nauchforum.ru/archive/MNF>.

3.2. Jismoniy shaxslarni progressiv stavkada soliqqa tortishdagi ustuvor yondashuvlar

Aynan samarali soliq siyosatini amalga oshirishga boʻlgan urinishlar koʻplab iqtisodchi olimlarni optimal soliqqa tortish boʻyicha keng koʻlamdagi ilmiy izlanishlar olib borishga sabab boʻlgan va shuning uchun ushbu tadqiqotlar va soliq siyosatni ishlab chiqish oʻrtasida aniq bogʻliqlik boʻlishi tabiiy hisoblanadi. Smith davrigacha boʻlgan va bundan keyingi davrlarda ham iqtisodchi olimlar tomonidan soliqqa tortishning oqibatlari boʻyicha koʻplab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu iqtisodchi olimlarning aksariyati soliq tizimining zaruriy jihatlari deb hisoblagan xususiyatlarini tavsiflashga harakat qilishgan. Barchaga maʼlumki, Smith tomonidan soliq solishni 4 ta tamoyillari keltirilgan: tenglik, (jismoniy shaxslarga soliq solishda, soliq ularning daromadiga mutanosib boʻlishi lozim); aniqlik, soliq majburiyatlari toʻliq va aniq belgilanishi shart; soliq toʻlovining qulayligi: soliqlar bir vaqtda va soliq toʻlovchi uchun qulay tarzda undirilishi kerak; soliq undirishdagi tejamkorlik, soliqlar undirish qimmatga tushmasligi va biznesga toʻsqinlik qilmasligi lozim¹²⁷. Koʻpgina optimal soliqqa tortishga bagʻishlangan iqtisodiy adabiyotlarda koʻrsatib oʻtilgan soliq solishning ikkinchi va uchinchi qoidalari keng muhokama qilinmagan va ehtimol bu ularning istak-xohishlariga maqbul kelishi bilan bogʻliqdir. Biroq iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda birinchi va oxirgi qoidalar borasida koʻplab bahs-munozaralar obyektiga aylangan. Tenglik gʻoyasi keng muhokama qilingan va hanuzgacha har qanday soliq siyosati taklifini baholashning muhim qismidir. Musgrave soliq yukining adolatli taqsimlanishini tashkil etadigan turli xil qarashlarni keltirib oʻtgan boʻlib, maʼmuriy xarajatlar va ragʻbatlantirishga taʼsiri ham keng muhokama qilingan. Shuning uchun soliqqa tortish boʻyicha takliflar koʻpincha uchta mezon boʻyicha tahlil qilinadi: adolatli soliqqa tortish zarurati (garchi adolat turli odamlarga turli xil narsalarni anglatsada); maʼmuriy xarajatlarni

¹²⁷Smith, A. 1776, *An Enquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*, Cannan edition, London: Methuen, 1904.

minimallashtirish zarurati; salbiy ta`sirlarni minimallashtirish zarurati¹²⁸. Uchta alohida mezonga ega bo`lishning qiyinligi shundaki, ma`lum bir siyosat taklifi odatda bitta mezonni qondiradi, barcha mezonlarga javob berishi mumkin emas. Masalan, mahalliy hukumat xarajatlarini moliyalashtirish uchun aholi jon boshiga soliq (daromad darajasidan qat`i nazar, ma`lum bir hududning har bir aholisidan teng miqdorda olinadigan soliq) va daromad solig`i o`rtasida tanlov qilishda ko`pchilik mahalliy daromad solig`ini adolatli deb hisoblaydi, ammo bu ishchi kuchi ta`minotiga so`rovnoma solig`iga qaraganda ko`proq to`squinlik qiladi. Biror qarorga kelish uchun daromad solig`i tizimining adolatdagi ustunligi ushbu soliqni mehnatga nisbatan ijobiy va salbiy ta`sirini solishtirish orqali (turlicha ma`muriy xarajatlarni hisobga olmaganida) ko`rsatish mumkin. Umuman olganda, optimal soliqqa tortish bo`yicha ilmiy nazariyalarning yondashuvi ushbu mezonlarni bir-biriga birlashtirishda iqtisodiy tahlil usullaridan foydalangan holda, har bir mezonga qo`llanilishi kerak bo`lgan nisbiy og`irliklarni bilvosita aniqlashdir. Bu individual naflilik (uy xo`jaligi) jamiyat farovonligi tushunchalari asosida amalga oshiriladi. Ijtimoiy farovonlik jamiyat farovonligining ko`rsatkichi sifatida qaraladi va alohida shaxslarning nafliligiga bog`liq. Biroq ijtimoiy farovonlik faqat individual naflilikni yig`indisi sifatida qarash shart emas, shuningdek, ushbu naflilikni qanchalik teng taqsimlanishiga bog`liq bo`lishi mumkin. Odatda naflilikdagi tengsizlik ortib borgan sayin, jamiyat farovonligi pasayib borishi taxmin qilinadi. Shunday qilib ijtimoiy ta`minot kontsepsiyasi soliq tizimidagi adolatlilik g`oyasini aks ettiradi, ya`ni soliqlar tengsizlik darajasini kamaytirsa, adolatli bo`ladi.

Optimal soliqqa tortish bo`yicha ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy ta`minot funksiyasi jamiyatdagi alohida shaxslarning nafliligiga (naflilik–inson ehtiyojlari qondirilishi) asoslanadi. “naflilik” tushunchasi optimal soliqqa tortish bo`yicha maxsus adabiyotlarda “daromad” tushunchasidan ham ko`proq qo`llanilib, bunday fenomenga quyidagi tushuntirishlar berilgan¹²⁹:

¹²⁸Musgrave R. A. 1959. The Theory of Public Finance, New York: McGraw-Hill.

¹²⁹Heady C. 1993. Optimal Taxation as a Guide to Tax Policy: A Survey. Fiscal Studies (1993) vol. 14, no. 1, pp. 15-41. <https://ifs.org.uk/fs/articles.pdf>.

Birinchiidan, individlar bevosita soliqlar ko`payishiga javoban o`z daromadlarining kamayishini qoplash uchun yuqori mehnat samaradorligi bilan javob berishi ancha keng tarqalgan.

Ikkinchiidan, soliqdan keyingi daromad miqdorining tengsizlik darajasi tahlili xatoliklarga olib kelishi mumkin, chunki bu tengsizlikka qanday omillar sabab bo`lganligi aniq emas. Masalan, teng bo`lmagan mehnat harakatlari natijasida (taklif qilingan mehnat miqdori) daromad miqdori tengsizlikning adekvat bo`lmagan o`lchovidir. Bu holatda naflilik tengsizlikning asosiy o`lchovi hisoblanadi, chunki u individlarning mehnat harakatidagi farqlarni baholashga imkon beradi.

Uchinchiidan, iste`mol tovarlariga bilvosita soliqlar solinishi narxlar va iste`molchilarning iste`mol strukturasi o`zgartiradi. Bu esa, o`z navbatida, nominal daromadni real daromadga o`tkazishda iste`mol narxlar indeksidagi muhim ko`rsatkichlar o`zgarishiga olib keladi. Bunda iste`molchilarning ustunligi daromad funksiyasi orqali emas, balki naflilik funksiyasi bilan aniqlanadi. Ushbu mulohazalarga asoslanib, naflilik funksiyasini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$U = f(x_1, \dots, x_n, L) \quad (3.7)$$

Bu yerda: U –naflilik; x_i –tovar iste`moli, shu jumladan, joriy jamg`armaga bog`liq kelgusidagi iste`mol; L –taklif qilingan mehnat miqdori.

Faqat soliqlar ushlangandan keyingi real daromad (Y) bilan ifodalangan iste`molning umumiy hajmi muhim ahamiyatga ega bo`lib, naflilik funksiyasi quyidagi ko`rinishga ega bo`ladi:

$$U = f(Y, L) \quad (3.8)$$

Statistik usullar yordamchi naflilik funksiyasi shaklini berishi mumkin bo`lsa-da, ular uning masshtabini aniqlay olmaydi, hisoblangan naflilik funksiyasining har qanday ortib borayotgan o`zgarishi bir xil kuzatuvlar soniga mos keladi. Masshtab foydalanuvchi tomonidan o`rganilayotgan muammoni maksimal darajada tushunishni ta`minlaydigan tarzda belgilanishi kerak. Ba`zi hollarda, naflilik funksiyasining masshtabi daromadga proporsional yoki naflilikni o`zgarishi daromadlar o`zgarishiga proporsional ravishda olinishi mumkin. Bunda

masshtabni shu tarzda tanlash mumkinki, daromadning bir birlikka ko`payishi (joriy narxlarda) naflilikning bir birlikka oshishiga olib keladi. Bu natijalarni talqin qilishni soddalashtiradi, chunki naflilik aniq taklif qilingan mehnat uchun soliq ushlangandan keyingi real daromad sifatida qaraladi. Biroq bu har doim ham mumkin emas, bu natijalarni talqin qilishni qiyinlashtiradi. Individual naflilik funksiyasi aniqlanganda, ular jamiyat farovonligini shakllantirish uchun jamlanishi zarurdir. Shuni ta`kidlash joizki, jamlash usuliga bog`liq bo`lmagan umumiy nazariy natijalar mavjud, ammo miqdoriy natijalar ma`lum bir usulni talab qiladi. Eng oddiy usul naflilikni qo`shadigan tushuncha ko`pincha “utilitarizm” deb ataladi:

$$Ijtimoiy\ farovonlik = \sum_h u_h \quad (3.9)$$

Bu yerda, u^h —individual (yoki uy xo`jaligi) h uchun naflilikdir. Agar naflilik funktsiyalari daromadni ifodalash uchun masshtablashtirilgan bo`lsa (mehnat taklifiga moslashtirilgan), ijtimoiy farovonlik o`lchovi oddiygina milliy daromadning mehnat taklifiga moslashtirilgan o`lchovidir. Jamiyat farovonligi funksiyasi bilan bog`liq muammo shundaki, bunda milliy daromad singari, daromadlarni taqsimlashni hisobga olmaydi. Agar adolatli soliq tizimi haqidagi fikrimiz naflilik tengsizlikni kamaytirishga qaratilgan bo`lsa, ijtimoiy farovonlik funksiyasi boy odamlarning nafliligidan ko`ra kambag`al odamlarning nafliligiga ko`proq ahamiyat berishi zarur¹³⁰. Ko`pgina tadqiqotlarda bunga naflilikni o`zgartiradigan quyidagi formulalar bilan erishiladi:

$$Ижтимоий\ фаравонлик = 1/1 - \varepsilon \sum_h (u^h)^{1-\varepsilon} \quad for\ \varepsilon \neq 1 \quad (3.10)$$

$$Ижтимоий\ фаравонлик = \sum_h \log(u^h) \quad for\ \varepsilon = 1 \quad (3.11)$$

Birinchi navbatda (3.4)da ifodalangan tenglikka e`tibor qaratib, shuni ta`kidlash mumkinki, $\varepsilon=0$ bo`lganda, bu tenglik (3.3)da ifodalangan tenglikka to`g`ri kelishini ko`rish mumkin. Shuning uchun, $\varepsilon=0$ bo`lganda, tengsizlik ahamiyatga

¹³⁰Tixomirov R. O. 2019. Progressivnoe nalogooblozheniye kak instrument regulirovaniya neravenstva v raspredelenii doxodov. Vestsi BDPU. Seriya 2. № 1. S. 85–92. <https://www.elibrary.ru>.

ega emas. Biroq agarda ε ijobiy bo'lsa, u^h – dagi o'sish mutanosib o'sishdan kamroq o'sishga transformatsiyalanadi

$$\frac{1}{1-\varepsilon} (u^h)^{1-\varepsilon}$$

Bu shuni anglatadiki, naflilikni mutlaq o'sishi nisbatan past darajadagi naflilikka ega bo'lganlarga qaraganda yuqori naflilik oladiganlar uchun kamroq ahamiyatga ega bo'ladi. Shunday qilib, ijtimoiy faravonlik funksiyasi naflilikni tenglashtirish uchun afzallikni o'zida mujassam etadi va bu afzallik ε uchun tanlangan qiymat bilan ortib boradi. ε cheksizlikka yaqinlashganda, tenglikka bo'lgan afzallik darajasi shunchalik kuchayadiki, Roul's nuqtai nazarni ifodalovchi ijtimoiy faravonlik funksiyasida faqat eng yomon ta'minlangan odamning naflilik darajasi har qanday ahamiyatga ega¹³¹. Shu bilan birga, $\varepsilon=1$ uchun (3.10)da ifodalangan tenglik noaniq va bu holda tenglik (3.11)da ifodalangan tenglik bilan almashtirilishi lozim. Agar naflilik funksiyasi tuzatilgan daromadga mutanosib bo'lsa, u uchun tanlangan qiymat juda aniq talqin qilinadi.

Umuman olganda, jamiyat farovonligiga aniq ta'sir to'rt omilga bog'liq bo'ladi: ishchi kuchi taklifining kompensatsiyalangan elastikligi, yuqori elastiklik sof daromadning o'sishi kichik yoki salbiy bo'lishini anglatadi, shuning uchun soliqning o'sishi ijtimoiy farovonlikni oshirish ehtimoli kamroq; 3.10 tenglamada ifodlangan ε tengsizlik haqida tashvishlanish darajasi, ε qanchalik yuqori bo'lsa, soliqlar oshishidan zarar ko'rganlarning naflilik yo'qotishlariga nisbatan kamroq nisbiy vazni ortadi va shuning uchun soliqlarning ko'payishi ijtimoiy farovonligini oshirish ehtimoli yuqoriroq; soliq solishdagi o'zgarishlar oqibatida daromadlar tengsizligining yuqori darajasi (nisbatan kambag'al) va (nisbatan boy) o'rtasidagi daromadlarning katta farqini anglatadi, daromadga nisbatan ko'proq nisbiy salmoq berilishi kerakligi va yuqori soliqlar ijtimoiy farovonlikni oshirish ehtimoli ko'proq¹³²; soliqni oshirish shkalasidan yuqori bo'lgan aholi ulushi. Bu nisbat qanchalik yuqori bo'lsa¹³³, eng kambag'allarga beriladigan naflilik shunchalik ko'p

¹³¹Rawls, J. 1971. A Theory of Justice, Cambridge, Mass.: Harvard University Press.

¹³²Майбуров И.А., Цоколевская А.М. Некоторые постулаты оптимального налогообложения труда. <https://elibrary.ru/download/elibrary>.

¹³³Тихомиров Р. О. 2019. Прогрессивное налогообложение как инструмент регулирования неравенства в распределении доходов. Вестси БДПУ. Серия 2. № 1. S. 85–92. <https://www.elibrary.ru>.

bo`ladi va shuning uchun soliqning o`shishi ijtimoiy farovonlikni oshirishga olib keladi¹³⁴.

Optimal daromad solig`i grafigi taxminan chiziqli ekanligi tadqiqotchilarga optimal chiziqli soliqqa tortish tahliliga e`tibor qaratishga imkon bergan. Bu raqamli misollar uchun zarur bo`lgan hisob-kitoblarni sezilarli darajada soddalashtiradigan muhim amaliy afzalliklarga ega. Stern tomonidan olib borilgan tadqiqotda Mirrlees modelidagi bazaviy strukturadan foydalanilgan holda, model orqali ishchi kuchi taklifining kompensatsiyalangan elastikligi, tengsizlikka nisbatan tashvish darajasi va davlat tomonidan talab qilinadigan daromad miqdoriga mos keladigan optimal soliq stavkalarini asoslab bergan¹³⁵. Shunday qilib, daromad solig`ining optimal marjinal stavkasi quyidagilar uchun yuqori bo`ladi: ishchi kuchi taklifining kompensatsiyalangan elastikligining past qiymatlari; ϵ ning yuqori qiymatlari, tengsizlik haqida tashvishlanish darajasi; soliq to`languncha bo`lgan ish haqlarida yuqori tengsizlik; davlat daromadlariga bo`lgan yuqori talablar.

Fikrimizcha, Mirrlees, Stern, Atkinson tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan kelib chiqib, optimal daromad solig`i shkalasi taxminan chiziqli deb hisoblash mumkin. Jismoniy shaxslar daromadiga nisbatan soliq progressivligini oshirishga bo`lgan har qanday istak bu yuqori soliqlarni kam sonli soliq to`lovchilar to`lashi bilan muvozanatlanadi. Daromad solig`i bo`yicha yana bir muhim xulosa shundaki, optimal marjinal soliq stavkalarining yetarlicha keng diapazoni asosiy parametrlar bo`yicha maqbul qiymatlar diapazoniga to`g`ri keladigan bo`lsa-da bu optimal stavkalariga tengsizlik darajasi kabi ishchi kuchi taklifining (ob`ektiv) xatti-harakatlarini baholash kuchli ta`sir ko`rsatadi. Bundan tashqari, soliq stavkalari to`g`risida qaror qabul qilishda qiymat mulohazalari majburiy ravishda hisobga olinadigan bo`lsa-da, daromadga soliq solishda (masalan, daromad solig`ining chiziqlilik yoki iste`molga soliqning bir xilligi) kabi alohida zaruriy masalalar hisobga olinishi lozim. Boadway va Songlarning

134Heady C. 1993. Optimal Taxation as a Guide to Tax Policy: A Survey. Fiscal Studies (1993) vol. 14, no. 1, pp. 15-41. <https://ifs.org.uk/fs/articles.pdf>.

135Stern, N. H. (1976), "On the specification of models of optimum income taxation", Journal of Public Economics, vol. 6, pp. 123-62.

ta`kidlashicha, qayta taqsimlash maqsadlariga faqat daromad solig`i yordamida erishish mumkin, hatto iste`mol qilinadigan tovarlar talabning daromad elastikligi bo`yicha sezilarli darajada farq qilsa ham¹³⁶. Shuningdek, Saezning fikricha, bilvosita soliqqa tortish milliy boyligni qayta taqsimlash nuqtai nazaridan optimal emas, bu faqat bevosita daromad solig`i orqali amalga oshirilishi lozim. Biroq, bu natijalar faqat progressiv daromad solig`i shartlarida tovarlarga yagona soliq solish sharoitida adolatli bo`ladi¹³⁷. Shuni ta`kidlash kerakki, bir vaqtning o`zida davlat daromadlari, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va tengsizlikni kamaytirish uchun QQSni joriy etish rivojlanayotgan mamlakatlar uchun asosiy muammo hisoblanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar byudjet daromadlarida egri soliqlar ulushi yuqori bo`lsa, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda to`g`ridan to`g`ri soliqlar davlat daromadlarining asosini manbasini tashkil qiladi. Jumladan, AQSh ning barcha darajadagi byudjet soliq tushumlarida bevosita soliqlarning ulushi yuqoridir (3.4-jadval).

3.4-jadval

AQSh byudjetlarida soliq tushumlarining strukturasi tahlili¹³⁸

Soliqlar	Federal byudjet	Regional byudjet	Mahalliy byudjet	umumiy
Jami	100	100	100	100
<i>shu jumladan</i>				
Foyda solig`i	6	6	1	5
Daromad solig`i	50	21	4	37
Ijtimoiy sug`urta	34	34	34	34
Aksiz solig`i	8	37	14	15
Mol-mulk solig`i		1	71	10
Boshqa soliqlar	2	8	4	6

Bethencourt va Kunzelar ijtimoiy normalar hamda iqtisodiy o`shishning mehnat va kapitalga soliq to`lashdan bo`yin tovlashga ta`sirini modellashtirish natijasida past daromadli mamlakatlarda mehnat va kapitalga soliq to`lashdan

¹³⁶Boadway R., Song Zh. Indirect taxes for redistribution: Should necessity goods be favored? // Research in Economics 2016. Vol. 70. Is.1. P. 64-88.

¹³⁷Saez E. Direct or indirect tax instruments for redistribution: short-run versus long-run // Journal of Public Economics. 2004. Vol.88. Is.3-4. P. 503-518.

¹³⁸<https://iqdecision.com/nalogi-v-s-sh-a-obzor>.

bo`yin tovlashning yuqori darajasi bilan tavsiflanadi, yuqori daromadli mamlakatlar esa aksincha bo`lishi aniqlashgan. Iqtisodchi olimlar ushbu holatni aholining soliq madaniyati darajasi bilan bog`lashgan.

Shunday qilib, soliq qonunchiligiga rioya qilish bo`yicha ijtimoiy normaning mavjudligi soliq to`lashdan bo`yin tovlayotgan aholi ulushining ham, soliq summasining ham pasayishiga olib keladi¹³⁹. Ikkinchi yondashuv iqtisodiy jihatdan adolatliroqdir, chunki u biznes va aholining real moliyaviy natijalarini shakllantirishga asoslanadi.¹⁴⁰.

Shunday qilib, iste`mol va daromad bo`yicha soliqlarning maqbul nisbati mavjudligini yoki yo`qligini aniqlashda muhim hisoblanadi. Jumladan, Tixonova tomonidan daromadlar tizimi va bilvosita soliqqa tortish o`rtasidagi munosabatlarni aniqlash uchun metodologiya sifatida qo`llanilgan tahlildagi usullari¹⁴¹:

1. Mamlakatning tarqalish matritsasi (87 ta davlatlar olingan). Jismoniy shaxslar daromad solig`i stavkalari va iste`mol solig`i o`rtasidagi muvofiqlikning grafik tasviri mamlakatlarni soliq stavkalari nisbati turi bo`yicha segmentlarga bo`lish imkonini beradi, shu bilan birga bu usulning soddaligi.

2. Bog`langan korrelyatsiya koeffitsientlari matritsasi. Mazkur usul QQS solig`i stavkasi (x1) korporativ (x9) va daromad solig`i (x10) hajmining milliy iqtisodiyotning umumiy rivojlanish darajasiga, tadbirkorlik holatiga va aholi farovonligiga bog`liqlik darajasini aniqlash uchun qo`llaniladi.

3. Korrelyatsionno-regression tahlil. Regressiya tenglamasining parametrlarini sharhlash uchun qoldiq grafigini va Goldfeld-Kvant mezonidan foydalangan holda qoldiqlarning geteroskdastikligi uchun tenglamani dastlabki baholash amalga oshiriladi:


$$F = \sum_{i=1}^m e_1^2 / \sum_{n-m-1}^n e_1^2 > F\alpha, v_{n-m} v_{n-m}$$

¹³⁹Bethencourt C., Kunze L. 2020. Social norms and economic growth in a model with labor and capital income tax evasion // *Economic Modelling*. Vol. 86. P. 170-182. <https://doi.org/10.1016>.

¹⁴⁰Lykova L.N. 2015. Tax burden in the Russian Federation: a comparative analysis point of view // *Journal of Tax Reform*. Vol. 1. Is. 1. P. 76-89.

¹⁴¹Tixonova A.V. 2021. K voprosu o vibore prioritnix podxodov v nalogooblojenii naseleniya // *Nalogi i nalogooblojenie*. № 4. – S. 26. https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=35020.

Grafikda belgilangan iste'molga soliq va daromad solig'i stavkalari miqdorining bog'liqligini baholash 87 ta mamlakat bo'yicha taqsimotida ko'rsatib o'tilgan (3.2-rasm). Davlatlarning aksariyatida progressiv daromad solig'i shkalasi mavjud bo'lib, rivojlanish mavjud bo'lmagan mamlakatlarda asosiy soliq stavkasi, rivojlanish mavjud bo'lgan mamlakatlarda esa o'rtacha samarali soliq stavkasi qo'llanilgan. Iste'mol soliqlari (QQS, va boshqa iste'mol soliqlari) uchun tahlilda faqat asosiy soliq stavkasi olingan.



3.2-rasm. Dunyoning 87 mamlakati bo'yicha daromad solig'i va QQS stavkalarining bog'liqligi diagrammasi¹⁴²

Tarqalish diagrammasi bevosita va bilvosita soliqlar stavkalari o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni ko'rsatganligi sababli, keyingi bosqichida QQS (y) va daromad solig'i (x) stavkalari o'rtasidagi korrelyatsiya-regressiya¹⁴³ tahlili o'tkazilgan (3.5-jadval).

3.5-jadval


Regression tahlil modelining natijalari

Ko'p korrelyatsiya koeffitsienti R	0.591
Determinatsiya koeffitsienti R ²	0.349
Muhimlik F	1.25E-6
y=a+bx tenglamadagi a parametrlning muhimligi	1.13E-4
tenglamadagi b parametrlning muhimligi	1.46E-5
Tenglama	y=7,22+0,264x

¹⁴²Tixonova A.V. 2021. K voprosu o vibore prioritetnix podxodov v nalogooblojenii naseleniya // Nalogi i nalogooblojenije. № 4. – S. 27. https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=35020.

¹⁴³Tixonova A.V. 2021. K voprosu o vibore prioritetnix podxodov v nalogooblojenii naseleniya // Nalogi i nalogooblojenije. № 4. – S. 27. https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=35020.

Taqdim etilgan regressiya modeli ko`rib chiqilayotgan omillarning ahamiyatini aniqlash maqsadida qoldiq grafigi (3.3-rasm) va Gol`dfel`da-Kvanta mezonidan foydalangan holda qoldiqlar geteroskedastlik uchun sinovdan o`tkazilgan (3.6).



3.3-rasm. Regressiya tenglamasi qoldiqlarining grafigi¹⁴⁴

$$F = \sum_{i=1}^m e_1^2 / \sum_{n-m-1}^n e_1^2 = 712,5/756,5 = 2,0$$

Mezonning (2.0) haqiqiy qiymati uning kritik qiymatidan (2.12) oshmadi, shuning uchun umumiy populyatsiyada juft chiziqli regressiya tenglamasi qoldiqlarining geteroskedastligi haqidagi nol gipoteza qabul qilinadi. Shunday qilib, regressiya tahlilining uchinchi sharti qondiriladi va tenglamaning parametrlarini oddiy eng kichik kvadratlar usuli yordamida baholash mumkin. tadqiqot natijalari shuni ko`rsatdiki, umuman olganda, iste`mol solig`i stavkasi hajmi daromad solig`i stavkasi bilan bog`liq, ammo QQS shkalasini belgilashda asosiy omillardan biri emas. QQS stavkasi o`zgarishining 34,9% daromad solig`i stavkasining o`zgaruvchanligi bilan bog`liq bo`lsa, qolgan 65,1% boshqa omillarga to`g`ri kelgan¹⁴⁵.

¹⁴⁴Tixonova A.V. 2021. K voprosu o vibore prioritetnix podxodov v nalogooblojenii naseleniya // Nalogi i nalogooblojeniyе. № 4. – S. 27. https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=35020.

¹⁴⁵Tikhonova A.V. Mathematical simulation modeling of the income taxation system with the use of Tukey's Q-test // Economic and Social Changes: Facts, Trends, Forecast. 2019. Vol. 12. Is. 1. P. 138-152.; 14. Goncharenko L., Tikhonova A., Melnikova N. and Malkova Yu. 2018. Assessment of the Influence of the Current National Economy

Shu bilan birga, bir qator davlatlarda past soliq stavkalari mavjud, bu guruh milliy va diniy xususiyatlar muhim rol o`ynaydigan an`anaviy sharqiy turdagi soliq tizimiga ega bo`lgan mamlakatlar tomonidan ifodalanadi. Ushbu turdagi mamlakatlarda fuqarolarning iste`moliga va daromadiga soliq stavkalari pastligi yoki soliq mavjud emasligi qayd etilgan bu asosan byudjet daromadlarining boshqa manbalari mavjudligi bilan izohlanadi. Soliq stavkalarini belgilash tamoyilining mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishining umumiy darajasiga bog`liqligini baholash uchun korrelyatsiya koeffitsientlari matritsasi tuzilgan (3.6-jadval).

3.6-jadval

Korrelyatsiya koeffitsientlari matritsasi

	x1	x2	x3	x4	x5	x6	x7	x8	x9	x10
x1	1									
x2	-0,03	1								
x3	-0,22	-0,07	1							
x4	0,20	0,04	-0,18	1						
x5	0,21	-0,19	0,15	0,06	1					
x6	-0,27	0,30	-0,20	0,05	-0,58	1				
x7	0,05	-0,01	-0,14	0,11	-0,27	0,23	1			
x8	-0,04	0,99	-0,04	0,04	-0,16	0,25	-0,01	1		
x9	0,10	0,06	-0,41	0,02	-0,28	0,42	0,23	0,04	1	
x10	0,59	0,09	-0,21	0,16	0,46	-0,23	-0,01	0,11	0,24	1

Mazkur keltirilgan matritsa iqtisodiy rivojlanish darajasi ko`rsatkichlari va hukumatlar tomonidan belgilangan soliq stavkalari o`rtasida hech qanday bog`liqlik yo`qligini ko`rsatgan.

Bunday natijalar Salaning siyosiy omillarning soliq tizimiga sezilarli ta`siri va soliqqa tortishning ayrim elementlarini belgilash tamoyillari haqidagi xulosasini ko`p jihatdan asoslaydi¹⁴⁶. Bundan tashqari, soliq stavkasi har doim ham soliq yukining ko`rsatkichi emas. Masalan, Frantsiyada daromad solig`ining ancha yuqori stavkasi, sezilarli soliq chegirmalari tizimi mavjud bo`lganda, aholi uchun

Development State upon Personal Income Taxation System // Proceedings of the 32nd International Business Information Management Association Conference (IBIMA), Seville Spain. P. 7982-7989. ; Zuykov A.V. Vliyanie imushchestvennogo nalogooblojeniya na fiskal`nyu nagruzku: metodicheskiy aspekt. <https://www.elibrary.ru>.

¹⁴⁶Sala H. 2019. A fresh look at fiscal redistribution and inequality in the US across electoral cycles // Journal of Behavioral and Experimental Economics. Vol. 81. P. 195-206.

haqiqiy samarali soliq yukini ko'rsatmaydi. Bu fakt tahlil natijalarini ma'lum darajada buzadi¹⁴⁷.

Umumlashtirilgan holda ta'kidlash joizki, nazariy va empirik yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar natijalaridan xulosa qilish mumkinki, byudjet daromadlari tarkibida to'g'ri yoki egri soliqlarni ulushi yuqoriligi davlatni taraqqiyoti darajasi ham soliq tizimining samaradorligiga bog'liqdir. Siyosiy omil ham muhim rol o'ynaydi, biroq uning ta'sirini matematik usullar bilan baholash qiyin va oqibatlarini avvaldan prognoz qilish juda muammolidir. Jismoniy shaxslar daromad solig'i va QQS stavakalari o'rtasida korrelyatsiya mavjud va quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin: birinchidan, soliq stavkasi mamlakatlar bo'yicha doimo soliq yukining indikatorini bo'lmaydi; yuqori daromadli davlatlarda yashovchi jismoniy shaxslarning daromad miqdori yuqoriligi va tadbirkorlik subyektlarining mavjud moliyaviy imkoniyatlari doirasida progressiv soliq (to'g'ri va egri) stavkalar o'rnatilgan, shu bilan bir qatorda, eng kam daromadli va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlar uchun muhim ijtimoiy imtiyozlar tizimi mavjud. Shu bilan birga, iste'mol va daromad soliqlarining optimal nisbatini aniqlashning iloji mavjud emas, bu davlatning individual parametrlariga va iqtisodiy tuzilishiga bog'liqdir. Shu bilan bir qatorda, soliq tizimi arxitektónikasiga omillar ta'sirini baholash orqali jismoniy shaxslarni soliqqa tortish parametrlarini (iste'mol va daromad soliqlarining samarali va nominal soliq stavkalari, soliq imtiyozlarining hajmi va shu kabilar) ushbu omillarning tegishli qiymatlari bilan aniqlash imkonini beradigan matematik modelni ishlab chiqish mumkin.

¹⁴⁷Тихонова А.В. 2021. К вопросу о выборе приоритетных подходов в налогообложении населения // Налоги и налогообложение. № 4. – С. 30. https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=35020.

III bob bo'yicha xulosa

Aksariyat rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlar hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va aholi daromadlari darajasidagi keskin farqlanish jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimini o'zgartirish va birinchi navbatda, progressiv stavkadagi daromad solig'iga o'tishning dolzarb muammosini keltirib chiqardi.

Turli mamlakatlarda jismoniy shaxslarni progressiv yoki proporsional stavkalarda soliqqa tortishni, shuningdek ularning kombinatsiyasini (progressiv-regressiv) tanlashda turli mamlakatlarda ham iqtisodiy, ham siyosiy va ijtimoiy motivlar tomonidan boshqariladi.

Progressiv shkalada soliq solish modeli jamiyatdagi aholi daromadini qayta taqsimlashda samarali va nisbatan adolatli hisoblandi. Shu bilan birga, iqtisodiy rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda jismoniy daromadlarni soliqqa tortishning progressiv shkalasi qo'llaniladi.

Jismoniy shaxslar daromadiga yagona 12% stavkada va mulkiy daromadlarga past stavkada soliq solinishi hamda soliq tizimida taqdim etilgan soliq chegirmalari, asosan, nisbatan ta'minlangan aholi guruhi qatlamlari manfaatlarini qondirishga qaratilgan deb baholash mumkin.

Progressiv soliqqa tortishni tanlash, asosan, diskretsion daromad deb ataladigan miqdorga bog'liq, ya'ni iste'molchining sof daromadi. Diskretsion daromad miqdori umumiy daromad va asosiy ehtiyojlarni qondirish uchun sarflanadigan daromad o'rtasidagi farqqa teng. Insonning haqiqiy to'lov qobiliyatini jami daromadi emas, balki diskretsion daromadi hisoblanadi, chunki daromadning oshishi bilan barcha hayotiy xarajatlar (oziq-ovqat, kiyim-kechak, boshqa zarur tovarlar, transport va boshqalar uchun) ulushi kamayadi va diskretsion daromad ulushi o'sadi.

Soliq ma'murchiligini va soliq nazoratini takomillashtirish maqsadida jismoniy shaxslar daromadlarining umumiy soliq deklaratsiyasiga o'tish bilan bosqichma-bosqich soliqqa tortishning progressiv shkalasini joriy etish zarur hisoblanadi. Bu chora-tadbirlarning barchasi ijtimoiy tengsizlik, aholining

daromadlari jihatidan keskin tabaqalanishi va jamiyatning tabaqalanishi muammolarini sezilarli darajada yumshatishga olib keladi.

Hukumat tomonidan aholi daromadlaridagi yuqori farqlanish va mamlakatdagi nobarqaror ijtimoiy vaziyatlarni yuzaga kelishi oldini olish maqsadida iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlovchi hamda daromadlarini qayta taqsimlash imkoniyati beruvchi adolatli va samarali soliq solish modelini qo'llash zarurdir.

Odatda naflilikdagi tengsizlik ortib borgan sayin, jamiyat farovonligi pasayib borishi taxmin qilinadi. Shunday qilib ijtimoiy ta'minot konsepsiyasi soliq tizimidagi adolatlilik g'oyasini aks ettiradi, ya'ni soliqlar tengsizlik darajasini kamaytirsada adolatli bo'ladi.

Jismoniy shaxslar daromadiga optimal soliq solishning standart nazariyasiga asosan tanlangan soliqqa tortish tizimi bir qator cheklovlarni hisobga olgan holda ijtimoiy ta'minot funksiyasini maksimal darajada o'sishiga olib kelishi lozim.

Daromad solig'i bo'yicha yana bir muhim xulosa shundaki, optimal marjinal soliq stavkalarining yetarlicha keng diapazoni asosiy parametrlar bo'yicha maqbul qiymatlar diapazoniga to'g'ri keladigan bo'lsa-da bu optimal stavkalariga tengsizlik darajasi kabi ishchi kuchi taklifining (obyektiv) xatti-harakatlarini baholash kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, bir vaqtning o'zida davlat daromadlari, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va tengsizlikni kamaytirish uchun QQSni joriy etish rivojlanayotgan mamlakatlar uchun asosiy muammo hisoblanadi. Tabagallashtirilgan QQS stavkasi iqtisodiy jihatdan yagona belgilangan stavkaga nisban samaraliroq hisoblanadi.

Byudjet daromadlari tarkibida to'g'ri yoki egri soliqlar ulushini belgilanishida davlatning taraqqiy etganlik va aholi daromadlari darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, rivojlanayotgan mamlakatlar byudjet daromadlarida egri soliqlar ulushi yuqori bo'lsa, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda to'g'ridan to'g'ri soliqlar davlat daromadlarining asosini manbasini tashkil qiladi.

QQS stavkasi o'zgarishining 34,9% daromad solig'i stavkasining o'zgaruvchanligi bilan bog'liq bo'lsa, qolgan 65,1% boshqa omillarga to'g'ri

kelgan. Bu jismoniy shaxslar daromadiga soliq solish tizimi va iste'molga soliq solish o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini aniq ta'kidlashga imkon bermaydi. Soliq stavkalarining elastikligini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, daromad solig'i stavkasi 1% ga oshgani holda, tahlil qilinayotgan 87 mamlakat bo'yicha QQS stavkasi o'rtacha 0,264% ga o'sgan.

Jismoniy shaxslar daromad solig'i va QQS stavkalari o'rtasida korrelyatsiya mavjud va quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin: birinchidan, soliq stavkasi mamlakatlar bo'yicha doimo soliq yukining indikatorini bo'lmaydi; iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda aholining xarid qobiliyati va xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy imkoniyatlarini hisobga olgan holda barcha turdagi soliqlar (bevosita va bilvosita) bo'yicha yuqori stavkalar belgilanadi, shuningdek, eng kam daromadli va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlar uchun muhim ijtimoiy imtiyozlar tizimi mavjud. Shu bilan birga, iste'mol va daromad soliqlarining optimal nisbatini aniqlashning iloji mavjud emas, bu davlatning individual parametrlariga va iqtisodiy tuzilishiga bog'liqdir.

XULOSA

Aholining daromadlari iqtisodiy kategoriya sifatida jamiyatda uy xo`jaliklari yoki shaxslar o`rtasida yaratilgan mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash, iste`mol qilish jarayonidagi real iqtisodiy munosabatlarini aks ettiradi. Optimal soliqqa tortishning standart nazariyasiga asosan, soliq solish tartibi mavjud cheklovlar inobatga olingan ijtimoiy faravonlik funksiyasini o`rishini maksimal darajada ta`minlashi lozim.

Soliqqa tortishning asosiy samrasida biri “daromad samarasi” bo`lib, soliqlar o`z mohiyatiga ko`ra jismoniy shaxslar daromadlarini qayta taqsimlash orqali bir qismini olib qo`yishi, o`z navbatida soliq to`langan keyingi jismoniy shaxsning tasarrufida real daromad miqdoriga (jumladan, iste`mol va jamg`arish normasiga) ta`sir ko`rsatadi.

Soliq qonunchiligida barcha faoliyatdan olingan daromadlar soliqqa tortilmaydi va hatto soliqqa tortiladigan faoliyatlar bo`yicha jismoniy shaxslarning daromadi turli xil stavkada soliqqa tortilishi mumkin va bu soliqqa tortishning ikkinchi fundamental ta`sirini soliqqa tortiladigan faoliyatni soliqqa tortilmaydigan faoliyat turlari bilan almashtirishda ifodalanadigan “almashtirish samarasi”dir.

Soliq summalarini hisoblashda “nominal stavka” va “haqiqiy stavka” kabi tushunchalarning mavjudligini istisno qilib bo`lmaydi, ya`ni “nominal stavka” umumbelgilangan soliq stavkasini anglatasa, haqiqiy stavka esa soliq chegirmalari hamda soliq imtiyozlari hisobga olingan holda korrektyrovka qilingan va daromad miqdoriga qarab differensiyalashgan soliq stavkalarini anglatadi. Boshqa teng sharoitlarda (byudjet daromadlarining ma`lum miqdori uchun), soliqqa tortilmaydigan minimal daromadni oshirish marjinal soliq stavkasini ko`tarish bilan birga amalga oshirish kerak.

Nazariy va empirik tadqiqotlar natijalarini umumlashtirgan holda sezilarsiz ijobiy foiz egiluvchanligi soliq siyosati korporativ va jismoniy shaxslar daromad solig`i integratsiyasi yoki kapitaldan daromadga soliqni kamayishini anglatuvchi iste`mol soliqlariga o`tish, jamg`armani, ishlab chiqarishning kapital zichligini,

daromad va farovonlikni oshiradi hamda keyinchalik yalpi daromadni kapitaldan mehnatga o'tkazishga olib keladi degan xulosaga kelish mumkin.

Shu bilan birga, kapitaldan daromadga soliq solishning amaldagi tartibi iste'mol va jamg'arish o'rtasidagi tanlovning buzilishi tufayli farovonlikning yo'qotilishiga olib keladi va foizli daromadga soliqlarni kamaytirish uzoq muddatli istiqbolda daromadlar darajasini oshiradi hamda kapitalning yalpi daromadning asosiy qismini mehnatga o'tkazadi.

Jismoniy shaxslar daromadiga soliq solish tizimining muhim elementlari sifatida soliq olinmaydigan daromad summasi va ijtimoiy yoki investitsion xarajatlarga soliq chegirmalari hisoblanadi. Iqtisodchi olimlarning fikricha, aholi iste'mol talabi hajmining yetarli bo'lmagan (asosiy qism aholining pul daromadlari faqat birlamchi ehtiyojlarini qondirishi), yuqori darajadagi daromad tengsizligi sharoitida daromadga mutanosib stavkada soliq solinishi jamiyatda ijtimoiy tengsizlik va qarama-qarshiliklarning keskinlashuviga sabab bo'lishi mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida progressiv soliq shkalalaridan foydalanishning jahon mamlakatlaridagi tengsizlik darajasiga ijobiy ta'sirini aniq qayd etish mumkin, ammo, aholi qatlamini o'rta sinfi shakllantirish sharoitida progressiv soliqqa tortish samaradorligi minimallashtiriladi. Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar, aholi daromadi tengsizligi yoki turmush darajasi yetarli darajada yuqori bo'lgan sharoitlarda progressiv stavkada soliq solish tavsiya qilinadi. Aynan shu holatda progressiv soliq stavkalarini qo'llanishi daromadlarning adolatli qayta taqsimlanishiga va bir vaqtning o'zida tengsizlikni qisqartiradi.

Soliq ta'sirining barcha makroiqtisodiy baholari, qoida tariqasida, juda shartli va yuqori aniqlikka da'vo qilmaydi. Biroq olib borilgan hisob – kitoblarni turli masshtablar-proporsional va progressiv soliqqa tortishning solishtirma ta'sirlarini aniqlashtirish uchun iloji boricha aniqroq amalga oshirishdir. Umuman olganda, aholi daromadlarini proporsional stavkada soliqqa tortish davlat byudjetini to'ldirish va daromadlar tengsizligi bilan bog'liq muammolarini hal qilmaydi.

Aholi daromadlarini tarkibida ish haqi ko`rinishdagi daromadlar ulushini yuqoriligidan kelib chiqadigan bo`lsak, jismoniy shaxslar daromadlariga soliq solishda fiskal va tartibga solish nuqtai nazaridan progressiv soliq stavkalarini qo`llanishi optimal hisoblanadi.

Hududlar kesimida ko`rib chiqadigan bo`lsak, aholi jon boshiga umumiy daromad taqsimoti bo`yicha statistik ma`lumotlarga asosidagi tahlil natijalarida ko`pchilik regionlar respublika o`rtacha ko`rsatkichidan past ko`rsatkichga ega bo`lib, bu o`z navbatida daromadlardagi yuqori tengsizlikdan dalolat beradi. Agarda olib borilgan tahlillar natijalaridan kelib chiqadigan bo`lsak, jismoniy shaxslar daromadini yagona stavkada soliqqa tortishning amaldagi tartibi byudjet daromalari bazasini kengaytirishda, bundan tashqari aholi daromadlar tengizligini kamaytirishda samarasiz fiskal instrument hisoblanadi.

Jismoniy shaxslar tomonidan to`lanadigan barcha soliqlar obyektiga nisbatan progressiv soliq shkalasi belgilanishi zarur, chunki ushbu diapazonlarning chegaralari fiskal va qayta taqsimlashdagi samarali soliq stavkalarini o`rnatilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqa tomondan, soliq shkalalarining tegishli diapazonlaridan kelib chiqib proporsional stavkalarda jismoniy shaxslarni soliqqa tortish taklifi daromad solig`i tizimida teng soliq yuki tamoyilini ta`minlash imkon berishi mumkin.

Barcha rivojlangan va aksariyat jadal rivojlanayotgan mamlakatlarning, jismoniy shaxslar daromadlarga soliq solishda nafaqat stavkalarning progressiv shkalasi, balki soliq solinmaydigan minimal miqdori (yashash minimumidan yuqori) ham qo`llaniladi.

Boshqa soliqlar kabi jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig`i iqtisodiy instrument hisoblanib, davlat mazkur soliq orqali bir tomondan, aholining real daromadlari va daromadlar tengsizligi darajasiga ta`sir etsa, ikkinchi tomondan, byudjetning daromad qismini shakllantiradi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga va soliq solishning fiskal va tartibga soluvchi funksiyalarini nazarda tutadigan bo`lsak, progressiv stavkada soliqqa tortish va soliq solinmaydigan minimum daromad summasini belgilanishi

byudjet daromadlarini oshirishda hamda aholi daromadlar tengsizligi darajasini kamaytirish samarali hisoblanadi.

Olib borilgan nazariy va empirik tadqiqotlar natijasida daromad solig`ining daromadlar tengsizligiga ta'sirining tahlili natijasida quyidagilar aniqlangan: daromad solig`ining qayta taqsimlovchi ta`siri samarasini oshirishda nafaqat soliq hajmi, shuningdek soliqqa tortish shkalasining optimal darajadagi progressivligi muhim ahamiyat kasb etadi; aholi daromadlardagi farqlanish darajasini pasaytirishda chegaraviy soliq stavkasini yuqori bo`lishi emas, mazkur soliq stavkalari o`rnatilgan daromadning chegaraviy qiymatini kamaytirish hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, ko`chmas mulklarni soliqqa tortish tizimini takomilashtirishda, soliq solishda ko`chmas mulklar qiymatini bozor narxilari asosida baholash mexanizmini joriy qilinishi va progressiv shkalada soliqqa tortishda maksimal soliq stavkalarini o`rnatishda ijtimoiy adolat mezonlari asosida amalga oshirish muhim hisoblanadi.

Regression tahlil natijalarida hisoblangan daromad solig`i statistik jihatdan ahamiyatsizligi aniqlangan. Bunda esa jismoniy shaxslarni daromad solig`i amaldagi stavkasi daromadlarni qayta taqsimlashda, xususan, aholi daromadlari tengsizligi darajasini kamaytirishda samarasiz degan xulosaga kelish mumkin.

Aksariyat rivojlanayotgan va o`tish iqtisodiyoti mamlakatlar hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va aholi daromadlari darajasidagi keskin farqlanish jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimini o`zgartirish va birinchi navbatda, progressiv stavkadagi daromad solig`iga o`tishning dolzarb muammosini keltirib chiqardi.

Progressiv shkalada soliq solish modeli jamiyatdagi aholi daromadini qayta taqsimlashda samarali va nisbatan adolatli hisoblandi. Shu bilan birga, iqtisodiy rivojlanish darajasi yuqori bo`lgan mamlakatlarda jismoniy daromadlarni soliqqa tortishning progressiv shkalasi qo`llaniladi. Jismoniy shaxslar daromadiga yagona 12% stavkada va mulkiy daromadlarga past stavkada soliq solinishi hamda soliq tizimida taqdim etilgan soliq chegirmalari asosan nisbatan ta`minlangan aholi guruhi qatlamlari manfaatlarini qondirishga qaratilgan deb baholash mumkin.

Progressiv soliqqa tortishni tanlash, asosan, diskretion daromad deb ataladigan miqdorga bog`liq, ya'ni iste'molchining sof daromadi. Diskretion daromad miqdori umumiy daromad va asosiy ehtiyojlarni qondirish uchun sarflanadigan daromad o`rtasidagi farqga teng. Insonning haqiqiy to`lov qobiliyatini jami daromadi emas, balki diskretion daromadi hisoblanadi, chunki daromadning oshishi bilan barcha hayotiy xarajatlar (oziq-ovqat, kiyim-kechak, boshqa zarur tovarlar, transport va boshqalar uchun) ulushi kamayadi va diskretion daromad ulushi o`sadi.

Soliq ma`murchiligini va soliq nazoratini takomillashtirish maqsadida jismoniy shaxslar daromadlarining umumiy soliq deklaratsiyasiga o`tish bilan bosqichma-bosqich soliqqa tortishning progressiv shkalasini joriy etish zarur hisoblanadi. Bu chora-tadbirlarning barchasi ijtimoiy tengsizlik, aholining daromadlari jihatidan keskin tabaqalanishi va jamiyatning tabaqalanishi muammolarini sezilarli darajada yumshatishga olib keladi.

Hukumat tomonidan aholi daromadlaridagi yuqori farqlanish va mamlakatdagi nobarqaror ijtimoiy vaziyatlarni yuzaga kelishi oldini olish maqsadida iqtisodiy fvaollikni qo`llab-quvvatlovchi hamda daromadlarini qayta taqsimlash imkoniyati beruvchi adolatli va samarali soliq solish modelini qo`llash zarurdir. Odatda naflilikdagi tengsizlik ortib borgan sayin, jamiyat farovonligi pasayib borishi taxmin qilinadi. Shunday qilib ijtimoiy ta`minot konsepsiyasi soliq tizimidagi adolatlilik g`oyasini aks ettiradi, ya'ni soliqlar tengsizlik darajasini kamaytirsam, adolatli bo`ladi.

Jismoniy shaxslar daromadiga optimal soliq solishning standart nazariyasiga asosan tanlangan soliqqa tortish tizimi bir qator cheklovlarni hisobga olgan holda ijtimoiy ta`minot funksiyasini maksimal darajada o`shishiga olib kelishi lozim. Daromad solig`i bo'yicha yana bir muhim xulosa shundaki, optimal marjinal soliq stavkalarining yetarlicha keng diapazoni asosiy parametrlar bo'yicha maqbul qiymatlar diapazoniga to`g`ri keladigan bo`lsa-da bu optimal stavkalariga tengsizlik darajasi kabi ishchi kuchi taklifining (obyektiv) xatti-harakatlarini baholash kuchli ta'sir ko`rsatadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, bir vaqtning o'zida davlat daromadlari, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va tengsizlikni kamaytirish uchun QQSni joriy etish rivojlanayotgan mamlakatlar uchun asosiy muammo hisoblanadi. Tabaqalashtirilgan QQS stavkasi iqtisodiy jihatdan yagona belgilangan stavkaga nisban samaraliroq hisoblanadi.

Byudjet daromadlari tarkibida to'g'ri yoki egri soliqlar ulushini belgilanishida davlatning taraqqiy etganlik va aholi daromadlari darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, rivojlanayotgan mamlakatlar byudjet daromadlarida egri soliqlar ulushi yuqori bo'lsa, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri soliqlar davlat daromadlarining asosini manbasini tashkil qiladi.

QQS stavkasi o'zgarishining 34,9% daromad solig'i stavkasining o'zgaruvchanligi bilan bog'liq bo'lsa, qolgan 65,1% boshqa omillarga to'g'ri kelgan. Bu jismoniy shaxslar daromadiga soliq solish tizimi va iste'molga soliq solish o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini aniq ta'kidlashga imkon bermaydi. Soliq stavkalarining elastikligini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, daromad solig'i stavkasi 1% ga oshgani holda, tahlil qilinayotgan 87 mamlakat bo'yicha QQS stavkasi o'rtacha 0,264% ga o'sgan.

Jismoniy shaxslar daromad solig'i va QQS stavkalari o'rtasida korrelyatsiya mavjud va quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin: birinchidan, soliq stavkasi mamlakatlar bo'yicha doimo soliq yukining indikatorini bo'lmaydi; iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda aholining xarid qobiliyati va xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy imkoniyatlarini hisobga olgan holda barcha turdagi soliqlar (bevosita va bilvosita) bo'yicha yuqori stavkalar belgilanadi, shuningdek, eng kam daromadli va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlar uchun muhim ijtimoiy imtiyozlar tizimi mavjud. Shu bilan birga, iste'mol va daromad soliqlarining optimal nisbatini aniqlashning iloji mavjud emas, bu davlatning individual parametrlariga va iqtisodiy tuzilishiga bog'liqdir.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalarida asosida shakllantirilgan xulosalardan kelib chiqib, quyidagicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

solliqqa tortish maqsadida aholi daromadlari tarkibini to`liq shakllantirish (mehnatga to`lash tarzidagi, mulkiy, meros va sovg`alar, moddiy naf ko`rinishdagi, transfertlar va ijtimoiy to`lovlar);

regionlarda jismoniy shaxslarni o`z-o`zini band qilgan holda mehnat faoliyatidan olingan daromadga soliq solinmasligi;

birlamchi zaruriy tovarlar va xizmatlarga nolli darajali yoki pasaytirilgan QQS stavkasini joriy qilinishi;

uzoq muddatga mo`ljallangan tovarlar bo'yicha (xususan, ipoteka va ta`lim krediti) kredit va foiz to`lovlarga soliq solinmasligi;

solliq solinmaydigan minimum daromad summasi o`rnatilishi yoki solliq imtiyozlari shaklidagi ekvivalenti shaklini (solliq krediti) qo`llash;

aholi daromad jismoniy shaxslar daromadini progressiv solliqqa tortish tizimini joriy qilinishi;

aholi umumiy daromadlarni taqsimlanishi bo'yicha aholi guruhlari ma`lumot asosida progressiv daromad solig`i shkalasi chegaralarini va solliq solinmaydigan daromad miqdorini o`rnatilishi;

hududning shahar va tumanlari rivojlantirishda muhim faoliyat sohasidagi yakka tartibdagi tadbirkorlar daromadini solliqdan muddatli ozod qilish;

jismoniy shaxslarni tadbirkorlik faoliyatida foydalanayotgan ko`chmas mulk obyektlariga solliq stavkasini pasaytirish;

belgilangan muddatda qurilishi tugallanmagan noturar joy obyektlarga nisbatan yuridik shaxslar mol-mulk solig`i amaldagi stavkasini ikki barobari miqdorida solliq solinishi;

aholi daromadini optimal solliqqa tortish va solliq ma`muriyatchiligini takomillashtirish maqsadida, bosqichma-bosqich jismoniy shaxslar daromadlarining umumiy solliq deklaratsiyasiga o`tish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Huquqiy me'oriy hujjatlar

1.1.O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahrir).
<https://lex.uz/docs/4674902>.

II Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar

2. Arnold J., Brys B., Heady Ch., Johansson Å., Schwellnus C., Vartia L. Tax Policy For Economic Recovery and Growth // The Economic Journal. 2011. № 121. R. F59–F80.

3. Atkinson E.B. Lectures on the economic theory of the public sector / E.B. Atkinson, J. E. Stiglitz. – M.: Aspect Press, 1995. – 831 p.

4. Bethencourt C., Kunze L. 2020. Social norms and economic growth in a model with labor and capital income tax evasion // Economic Modelling. Vol. 86. P. 170-182. <https://doi.org/10.1016>.

5. Boadway R., Song Zh. Indirect taxes for redistribution: Should necessity goods be favored? // Research in Economics 2016. Vol. 70. Is.1. P. 64-88.

6. Boskin M. J. 1978. Taxation, Saving and the Rate of Interest. Journal of Political Economy, 86(2), 3–27. <http://dx.doi.org/10.1086/260692>.

7. Buchanan, J.M. Musgrave R.A. Public finance and public choice: Two contrasting visions of the state. Cambridge, Mass.:MIT Press, 1999.–282 r.

8. Callaghan G. & Fribbance, I. (2007). Personal Finance, Palgrave Macmillan, 47–87.

9. David P. and J. Scadding, "Private Saving: Ultrarationality, Aggregation and 'Denison's Law'," Jour. Pol. Econ., 1974.

10. Ehrenberg R. J. Modern labor economics: theory and state policy: per. from English. / R J. Ehrenberg, R.S. Smith. - M.: Publishing House of Moscow. un-ta, 1996. - 777 p.

11. Fanti, L. and Manfredi, P. 2003. Progressive Income Taxation and Economic Cycles: a Multiplier-Accelerator Model //Discussion Papers del Dipartimento di Scienze Economiche – Università di Pisa, 11, 1–23.

12. Feldstein M. "Incidence of a Capital Income Tax in a Growing Economy With Variable Savings Rates" R.E. Stud., October 1974b.
13. Feldstein M. "The Welfare Costs of Capital Income Taxes," mimeo, 1975.
14. Fisher I. 1925. Purchasing power of money: its definition and relation to credit, interest and crisis /I. Fisher.- M.:Financial publishing house of the NKF of the USSR, - 399 p.
15. Gaspar, V. 2017. Inequality: Fiscal Policy Can Make the Difference <https://www.imf.org/external/russian/np/blog//101117r.pdf>.
16. Goncharenko L., Tikhonova A., Melnikova N. and Malkova Yu. 2018. Assessment of the Influence of the Current National Economy Development State upon Personal Income Taxation System // Proceedings of the 32nd International Business Information Management Association Conference (IBIMA), Seville Spain. P. 7982-7989.
17. Guillaud E. 2017. Four levers of redistribution: The impact of tax and transfer systems on inequality reduction /E. Guillaud, M. Olckers, M. Zemmour // LIS Working Paper Series. Luxembourg : Luxembourg Income Study, – 34 p.
18. Harberger A., "Introduction," in A. Harberger and H. Bailey, eds., The Taxation of Income From Capital, Brookings, 1969.
19. Heady C. 1993. Optimal Taxation as a Guide to Tax Policy: A Survey. Fiscal Studies (1993) vol. 14, no. 1, pp. 15-41. <https://ifs.org.uk/fs/articles.pdf>.
20. Hicks J. R. Cost and capital: per. from eng. / J. R. Hicks.- M.: Progress-Univers, 1993.- 487 p.
21. IMF Fiscal Monitor: Tackling Inequality / International Monetary Fund. – Washington, 2017. – 60 p.
22. King J. & Carey M. 2014. Personal Finance: A Practical Approach. Oxford University Press, 15–24.
23. Lykova L.N. 2015. Tax burden in the Russian Federation: a comparative analysis point of view // Journal of Tax Reform. Vol. 1. Is. 1. P. 76-89.

24. Mawejje J., Sebudde R. K. 2019. Tax revenue potential and effort: Worldwide estimates using a new dataset // *Economic Analysis and Policy*. Vol. 63. P. 119-129.
25. McConnell K.R. *Economics: principles, problems and politics: in 2 volumes; per. from English.* / K.R. McConnell, S.L. Bru. - M.: Respublika, 1993. - 1 vol. - 399 p.
26. Mirrlees J. A. 1971. "An Exploration in the Theory of Optimum Income Taxation" *Review of Economic Studies*, Oxford University Press, vol. 38(2), pages 175-208.
27. Mirrlees J. A. *An Exploration in the Theory of Optimum Income Taxation* // *Review of Economic Studies*. 1971. N 38. P. 175–208.
28. Musgrave R. A. 1959. *The Theory of Public Finance*, New York: McGraw-Hill.
29. N. Gregory Mankiw, Matthew Weinzierl and Danny Yagan. *Optimal Taxation in Theory and Practice*. <https://scholar.harvard.edu>.
30. Oguzhan Akgun & Boris Cournède & Jean-Marc Fournier, 2017. "The effects of the tax mix on inequality and growth," *OECD Economics Department Working Papers* 1447, OECD Publishing.
31. Pechman J. and B. Okner. *Who Bears the Tax Burden?* Brookings, 1974.
32. Radulova A. 2015. *Personal finances*. Faber, V. Tarnovo, 20–25.
33. Ramsey, F.P. 1927. «A contribution to the theory of Taxation», *Economic Journal*, vol. 37(145), pp.47-61.
34. Rawls, J. 1971. *A Theory of Justice*, Cambridge, Mass.: Harvard University Press.
35. Rosefsky R. S. 1999. *Personal Finance* (7th ed.). John Wiley and Sons Inc., 617–636.
36. Saez E. 2014. Direct or indirect tax instruments for redistribution: short-run versus long-run // *Journal of Public Economics*. Vol.88. Is.3–4. P. 503-518.
37. Sala H. 2019. A fresh look at fiscal redistribution and inequality in the US across electoral cycles // *Journal of Behavioral and Experimental Economics*. Vol. 81. P. 195-206.

38. Samuelson P.A. Economics / P. Samuelson, V.D. Nordhaus. - 9th ed., Rev. and additional-St. Petersburg: Alfa-Kniga, 2018.- 1325 p.
39. Smith, A. 1776. An Enquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations, Cannan edition, London: Methuen, 1904.
40. Stern, N. H. (1976), "On the specification of models of optimum income taxation", Journal of Public Economics, vol. 6, pp. 123–62.
41. Tikhonova A.V. 2019. Mathematical simulation modeling of the income taxation system with the use of Tukey's Q-test // Economic and Social Changes: Facts, Trends, Forecast. Vol. 12. Is. 1. P. 138-152.
42. Wright C., "Saving and the Rate of Interest," in A. Harberger and M. Bailey, eds., The Taxation of Income From Capital, Brookings, 1969.
43. Baymuxametova A.S. 2021. Progressivnoye podoxodnoye nalogooblojeniyе fizicheskix lits i raschet shkali progressii na osnove programmnoyа produkta. Nalogi i nalogooblojeniyе.
№ 2. https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=34060.
44. Balatskiy e.V., Ekimova N.A. Sravnitelniye xarakteristiki progressivnoy i ploskoy shkali podoxodnogo naloga. JOURNAL OF INSTITUTIONAL STUDIES Vol. 10, no. 3. 2018. S.102-122. <https://ecsocman.hse.ru>.
45. Brizgalin A.V. K voprosu o progressivnom nalogooblojenii – «bit ili ne bit» (ili rassujdeniya o sovremennoy nalogovoy politike) // Nalogi i finansovoye pravo. 2009. № 6. S. 17–29.
46. Butova, L.M. Doxodi naseleniya v sisteme blagosostoyaniya i mexanizmi ix regulirovaniya: avtoref. diss. ... kand. ekon. nauk: 08.00.01 / Butova Larisa Mixaylovna. Voronej, 2006. – 24 s.
47. Bikova A.Yu., Tikshaeva L.V. Progressivnaya shkala nalogooblojeniya kak instrument sokrasheniya neravenstva doxodov naseleniya // Nalogi i nalogooblojeniyе. 2016. № 5. S. 393–401.
48. Grachev M. S. Formirovanie rossiyskoy nalogovoy sistemi:: problemi effektivnosti i spravedlivosti. Nalogi i finansovoye pravo. №6, 2011 S.165-170.
49. Jarova E.N., Morozova G.V. 2013. Vliyanie sistemi nalogooblojeniya na uroven jizni naseleniya.

https://elibrary.ru/download/elibrary_21007018_31370828.pdf.

50. Zuykov A.V. Vliyaniye imushchestvennogo nalogooblojeniya na fiskalnuyu nagruzku: metodicheskiy aspekt. <https://www.elibrary.ru>.

51. Ibragimova N.M. 2015. Empiricheskaya otsenka effektivnosti NDFL i NDS v Uzbekistane. <https://www.elibrary.ru/download/elibrary>.

52. Ibragimova N.M.. 2017. Modelirovaniye multiplikatorov doxodov i rasxodov naseleniya na osnove modeli Sam: otsenki dlya Uzbekistana. https://www.elibrary.ru/download/elibrary_30296192_76913278.pdf.

53. Il'in A.e. Formirovaniye i regulirovaniye doxodov rabotnikov selskogo xozyaystva: avtoref. dis. ... d-ra ekon. nauk: 08.00.05 /Il'in Aleksey evgen`evich.- Kursk, 2005.– 44 s.

54. Imamova E.V. Doxodi naseleniya i mexanizm ix formirovaniya: avtoref. diss. ... kand. ekon. nauk: 08.00.01 /Imamova elena Viktorovna. – ekaterinburg, 2009. – 24 s.

55. Kalinina O. V. 2011. Postroeniye ierarxicheskoy sistemi printsipov sotsialno orientirovannoy nalogovoy sistemi// Finansovaya analitika: problemi i resheniya. <https://cyberleninka.ru/article/n/postroenie-ierarhicheskoy-sistemy-printsipov-sotsialno-orientirovannoy-nalogovoy-sistemy>.

56. Kalinina O.V. 2012. Printsipi i metodi sotsialno-orientirovannogo razvitiya nalogovoy politiki RF. Avtoreferat dissertatsii. Ivanovo. <https://www.dissercat.com/content/printsipy-i-metodysotsialno-orientirovannogo-razvitiya-nalogovoi-politiki-rossiiskoi-federa>.

57. Kolesov R.V. Byudjetno-investitsionnaya model ekonomicheskogo rosta regionov Rossii [Tekst] / R.V. Kolesov, K.Yu. Proskurnova // Finansovyy biznes. - 2017. - № 3 (188). - S. 3-7.

58. Kolesov R.V. O kontseptsii regionalnoy finansovoy politiki Rossiyskoy Federatsii na srednesrochnuyu perspektivu (do 2021 goda) /R.V. Kolesov // Na puti k grajdanskomu obshchestvu. - 2016. - № 4 (24). - S. 86-89.

59. Kosov M. e., Bondarenko N. O. Teorii proporsionalnogo i progressivnogo nalogooblojeniya: praktika primeneniya. Mejdunarodniy buxgalterskiy uchet.–2018.–T.21,№11.–S.1267–1280.

60. Kostoeva E.X. Organizatsiya risk-menedjmenta na predpriyatii/ e.X. Kostoeva, A.D. Burikin // Ekonomika i upravlenie: problemi, resheniya. - 2016. - T. 4. - № 12. - S. 33-38.

61. Kostilyeva L.V. 2011. Nalogooblojeniyе kak mexanizm regulirovaniya neravenstva naseleniya // Ekonomicheskie i sotsialniye peremeni: fakty, tendentsii, prognoz. № 3. S. 66–77.

62. Lukyanenko A.e. - 2017. Osobennosti otsenki effektivnosti ispolzovaniya materialno-texnicheskix resursov na selskoxozyaystvennix predpriyatiyax/ A.e. Lukyanenko, A.D. Burikin // Ekonomika i upravleniye: problemi, resheniya. - T. 1. -№ 10. - S. 106-114.

63. Mayburov I.A., Sokolovskaya A.M. Nekotoriye postulati optimalnogo nalogooblojeniya truda. <https://elibrary.ru/download/elibrary>.

64. Mamonova I. V., Alenikov A. S. Vliyaniye podoxodnogo proporsionalnogo nalogooblojeniya na predlojeniyе truda. <https://cyberleninka>.

65. Melnikova N. A., Nesterenko Dj. Sistema podoxodnogo nalogooblojeniya fizicheskix lits: otechestvenniy i zarubejniy opit. https://elibrary.ru/download/elibrary_44157174_83161752.pdf.

66. Morozova G.V., Migunova S.V. 2011.Vvedeniye progressivnoy shkali nalogooblojeniya doxodov fizicheskix lits kak sposob realizatsii printsipa spravedlivosti v nalogooblojenii // Sovremenniyе tendentsii v ekonomike i upravlenii: noviy vzglyad. № 8. S. 198–202.

67. Mudrevskiy A.Yu. 2017. Modelirovaniye protsessnogo podxoda v organizatsii truda rabochix / A.D. Burikin, A.Yu. Mudrevskiy // Ekonomika i upravleniye: problemi, resheniya. T. 2. №12. S. 57-63.

68. Mudrevskiy A.Yu. Osnovy predprinimatelskoy deyatel'nosti/ A.Yu. Mudrevskiy, A.D. Burikin, A.V.Yurchenko, S.B. Tyurin. Yaroslavl, 2018. - 256 s.

69. Mudrevskiy A.Yu. Formirovaniye sotsialnoy politiki / A.D. Burikin, A.Yu. Mudrevskiy // Sotsialnoe partnerstvo: opit, problemi i perspektivi razvitiya. 2017. S. 99-102.

70. Neklyudov B.A. Finansirovaniye predpriyatiya kak sovokupnost istochnikov razvitiya / B.A. Neklyudov, A.D. Burikin // Naukograd nauka proizvodstvo obshestvo. - 2017. - № 3. - S. 56-61.

71. Neklyudov V.A. Ustoychivost sotsialno-ekonomicheskogo razvitiya regionalnoy ekonomiki - Yaroslavl, 2017. - 296 s.

72. Neklyudov V.A. Finansi i ix rol v deyatelnosti predpriyatiya/ B.A. Neklyudov, A.D. Burikin // Ekonomika i upravleniye: problemi, resheniya. - 2017. - T. 5. - № 11. - S. 81-88.

73. Neravenstvo doxodov i ekonomicheskii rost: strategii vixoda iz krizisa. Pod redaktsiey A. Buzgalina, R. Traub-Mertsya, M. Voeykova. M: Kulturnaya revolyutsiya, 2014. – 406 s.

74. Odinkova T. D. 2015. Progressivnoye nalogooblojeniye doxodov kak vozmojnost resheniya problemi sotsialnogo neravenstva grajdan v Rossii// Izvestiya Uralskogo gosudarstvennogo ekonomicheskogo universiteta. № 1.S.15–23.

75. Pashinyan J.T. Sravnitelniy analiz nalogooblojeniya imushestva fizicheskix lits v rossii i zarubejnih stranax.<https://elibrary.ru>.

76. Ponomarev D. K., Sidorov P. A., Yakovleva T. Yu. Sravneniye nalogooblojeniya doxodov fizicheskix lits v Rossii i Kitaye // Nauchnoye soobshchestvo studentov XXI stoletiya. Ekonomicheskkiye nauki: sb. st. po mat. XXXVII mejdunar. stud. nauch.-prakt. konf. № 10(37).<http://sibac.info/archive>.

77. Rozin A.A. Optimizatsiya protsessa upravleniya predpriyatiem v usloviyax krizisnoy situatsii/ A.A. Rozin, A.D. Burikin // Ekonomika i upravleniye: problemi, resheniya. - 2017. - T. 1.- № 11. - S. 21-27.

78. Roshina N.V. Pravoviye osnovi promishlennoy bezopasnosti /N.V. Roshina, A.D. Burikin //Fundamentalno-prikladniye problemi bezopasnosti, jivuchesti, nadejnosti, ustoychivosti i effektivnosti sistem. 2018. - S. 74-79.

79. Selezneva V.A. Vidi i poryadok zaklyucheniya kollektivnogo soglasheniya v organizatsii/ V.A. Selezneva, A.D. Burikin // Sotsialnoe partnerstvo: opit, problemi i perspektivi razvitiya: sbornik dokladov i tezisov uchastnikov konferentsii. 2018. - S. 395-402.

80. Smirnov R.O. 2016. Modelirovaniye vibora progressivnoy shkali podoxodnogo naloga. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=27451951>.
81. Smirnov R.O. Modelirovaniye vibora parametrov shkali podoxodnogo naloga. Vestnik Sankt-Peterburgskogo universiteta. ekonomika.№4, 2011. https://elibrary.ru/download/elibrary_17037734_34913918.
82. Takmakova e.V. 2013. Politika raspredeleniya doxodov kak faktor ekonomicheskogo i sotsialnogo razvitiya obshchestva/ E.V. Takmakova, A.V. Stetsenko//Naukovedenie). №4.<http://naukovedenie.ru/PDF/05evn413.pdf>.
83. Takmakova E.V. Doxodi selskogo naseleniya v usloviyax stanovleniya rinochnoy ekonomiki: diss.... kand. ekon. nauk: 08.00.01 / Takmakova Elena Valeryevna. – Orel, 2003. – 191 s.
84. Tixomirov R. O. 2019. Progressivnoye nalogooblojeniyе kak instrument regulirovaniya neravenstva v raspredelenii doxodov. Vestsi BDPU. Seriya 2. № 1. S. 85–92. <https://www.elibrary.ru>.
85. Tixonova A.V. 2021. K voprosu o vibore prioritetnix podxodov v nalogooblojenii naseleniya // Nalogi i nalogooblojeniyе. № 4. – S. 19 - 35. https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=35020.
86. Fedchenko A.A. Regulirovanie doxodov rabotnikov v usloviyax stanovleniya rinka truda: diss. ... d-ra ekon. nauk: 08.00.05 / Fedchenko Anna Aleksandrovna- Voronej, 2002. – 423 s.
87. Filippov A. F. Differentsialnie uravneniya s razrivnoy pravoy chastyu. M., 1985. <http://www.mathnet.ru/php/archive>.
88. Chistyakov S. V., Ishxanova M. V. Matematicheskie modeli vibora nalogovix shkal: ucheb.posobie. SPb., 1998 <https://userdocs.ru/matematika>.
89. Shayxutdinova D.R. Spravedlivost` kak osnovnoy printsip nalogooblojeniya // Upravleniye ekonomicheskimi sistemami: elektronniy nauchniy jurnal. 2012. № 6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/spravedlivost-kak-osnovnoy-printsip-nalogooblozheniya>.
90. Sherenkov A.I., Zaznobina A.M., Kolchin S.P. 2014. Praktika primeneniya progressivnoy shkali nalogooblojeniya v mire i eyo perspektivi v Rossii // Molodejniy nauchnyy forum: Obshchestvenniye i ekonomicheskiye nauki:

elektr. sb. st. po materialam XIX stud. mejdunar. zaочноy nauch.-prakt. konf.-M.: «MTsNO». <http://nauchforum.ru/archive/MNF>.

91. Sheglov V.Yu. 2019. Vliyaniye stavki podoxodnogo naloga na uroven jizni. elib.pnzgu.ru.

92. Yugay E.V. 2021. Progressivnaya shkala podoxodnogo nalogooblojeniya i ekonomicheskij rost SSHA.

brary.ru/download/elibrary_45616613_66130196.pdf.

III Internet saytlari

93. <http://worldtaxes.ru/nalogi-v-mire>.

94. <https://iqdecision.com/nalogi-v-s-sh-a-obzor>.

95. <https://soliq.uz/page/asosiy-korsatkichlar?lang=uz>.

96. <https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/living-standards>.

97. <https://taxfoundation.org/oecd-tax-revenue-2021>.

98. <https://ultramodern-home.ru/2020/10/nalogi-dlya-fizicheskix-lic-v-stranax-evropy-v-2020-godu>.

99. <https://www.imf.org/external/russian/np/blog/2017/101117r.pdf>.

100. <https://www.rbc.ru/newspaper/2020/11/06/5fa010309a794777f46f>.

101. <https://www.stat.uz>.

102. <https://www.statista.com/statistics/758502/percentage-distribution-of-household-income-in-the-us/>.